

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 4-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Afoqova – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 4 (25), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

F.ABDUXOLIQOV. Amir Temur siymosining Sharq miniatyuralaridagi talqini.	4
M.IBRAGIMOVA. Etnomadaniyatning tarixiy genezisidagi jarayonlar.	13
S.NAVRO‘ZOV. Akademik rassom Dmitriev Kavkazskiyning Xiva taassurotlari.	19
M.ALIXOJIEV. Turkistondagi epidemiyalarga qarshi kurash tarixidan.	32
U.BEKMUHAMMAD. Otamaxzumoxunning Xorazm jadidchilik harakati va respublika rahbarligi davridagi faoliyati.	39
J.XASANOV. Moskva-Volga kanali qurilishida qatag‘on qilingan xorazmlik mahbuslar taqdiri.	47

FILOLOGIYA

M.ABDULHAKIM. Bedor qalb.....	53
N.HASANOV. “Risolai Sulton Xoja Ahmad Yassaviy” asari haqida mulohazalar.	61
M.QO‘CHQOROVA. So‘fizoda she‘riyatida ijtimoiy jadidona g‘oyalar talqini.	68
Z.MUQIMOVA. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda topishmoqlarning o‘rni.	74
A.ABDIYEV, A.ALLAMBERGENOV. Adabiy aloqalar rivojlansin desak.	81

TARIX**AMIR TEMUR SIYMOSINING SHARQ MINIATYURALARIDAGI
TALQINI**

**Firdavs
ABDUXOLLIQOV,**

**O'zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o'rganish va
ommalashtirish
bo'yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san'atshunoslik
bo'yicha falsafa
doktori.**

UO'K 95.15

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq miniatyuralarida aks ettirilgan Amir Temur siymosiga oid qo'lyozma asarlar taxlil qilinadi. Shuningdek, Amir Temur tasvirlangan miniatyuralarining bugungi kundagi ahamiyati haqida ham bahs yuritadi.

Аннотация: В статье анализируются рукописи, изображающие фигуру Амира Темура, отраженную в восточных миниатюрах. В статье также обсуждается значение миниатюр, изображающих Амира Темура, в наши дни.

Annotation: This article analyzes manuscripts depicting Amir Temur in Eastern miniatures. It also discusses the significance of miniatures depicting Amir Temur today.

Kalit so'zlar: Sharq miniatyurasi, tasviriy san'at, Amir Temur, musavvir, temuriylar, an'ana, sulola.

Ключевые слова: Восточная миниатюра, изобразительное искусство, Амир Темура, художник, Темуриды, традиция, династия.

Key words: Oriental miniature, fine arts, Amir Temur, painter, Temurids, tradition, dynasty.

O'rta asrlarda Sharqda juda keng tarqalgan tarixiy adabiyotlar (solnomalar – hukmdorlarning tarjimai hollari, manoqiblar) ham portret janrining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Aksariyat hollarda asarning buyurtmachisi sanalgan shohlarning shaxsiy hayoti va faoliyatidagi real voqealarni ifodalashda tarixiy va xotiraviy adabiyot panegirik (madh etish) xususiyati doirasida qolib ketgan. Tasvirlangan aniq tarixiy shaxslarning tipologik xususiyati mumtoz adabiyotdagi rasmlarga yaqin bo'lgan. Shu bilan birga, tarixiy mavzudagi qo'lyozmalarning bezakli suratlarida ba'zan tasvirning an'anaviy tamoyillari saqlangan holda, tarixiy shaxslarning ikonografiyasini yaratishga harakat qilingan. Bu holatni temuriylar davri qo'lyozmalarida ko'p uchraydigan Jamshid, Faridun, Iskandar Maqduniy, Doro, Anushervon singari afsonaviy, yarim afsonaviy va tarixiy qahramonlar qiyofalarida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, Amir Temur (1336-1405) siymosi Sharq qo'lyozmalarida eng ko'p uchraydigan obrazlardan biri. Shu bilan birga u dunyo tarixidagi eng yirik sarkardalardan biri hisoblanadi. Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrda yirik markazlashgan davlat barpo etdi va umrining so'ngiga qadar uni kengaytirishga harakat qildi. U o'z saltanati hududida ijtimoiy adolat o'rnatish barobarida me'morchilik, ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirishga harakat qildi.

Ayniqsa, temuriylar davrida tasviriy san'at keng rivojlandi, Kamoliddin Behzod singari iste'dodli rassomlar yetishib chiqdi.¹



Nafaqat temuriylar, boburiylar yoki shayboniylar davrida yaratilgan asarlarda, balki G'arb tasviriy san'at asarida ham Amir Temur obraziga ko'p bor murojaat qilingan. Sohibqironning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan ilk "portret"lar Xurosonda, temuriylar davridagi Hirotida, Shohrux va uning o'g'li, fan va madaniyat homiysi bo'lgan Boysunqur Mirzo hukmronligi yillarida paydo bo'lgan.

Bu borada rassomning o'z qahramoniga xos bo'lgan aniq xususiyatlarni bilishi katta rol o'ynagan. Biz bu holatni Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si yoki Abdulloh Xotifiyning "Temurnoma"siga ishlangan miniatyura turkumlarida Amir Temur taxtda o'tirgan, deyarli doim bir oyog'ini o'ziga yaqinroq tortgan va ikkinchisini uzatgan holda, cho'qqi soqolli ko'rinishda tasvirlangan.²

Uning obrazi aks etgan ushbu ikonografiya taxminan uch asr davomida saqlangan va temuriylar davridagi Hirotida ko'proq qo'llanilgan³. Bu an'ana XVI asrda safaviylar davridagi Sherozda ham, XVII asrga qadar Movarounnahrda ham saqlanib qolgan. Hukmdor, odatga ko'ra, jasur jangchi, adolatli davlat boshlig'i, chin musulmon va boshqa ijobiy sifatlar bilan tasvirlangan. Shu tariqa uning portreti davlatning muhim mafkuraviy targ'ibot quroliga aylangan⁴.

¹ Каланов А, Атбасарова Б. "Художественная культура рукописной книги эпохи тимуридов" // Наука, образование и культура. №1. 2019 - С.66.

² Рахимова З.И. Образ Амира Темура в миниатюре // Санъат, 4/2019, Б.10–13.

³ Шараф-ад-Дина Али Йезди. Зафар-наме / Пер. с перс. Е.А. Поляковой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. -Ташкент: Фан, 1988. - С. 148-160

⁴ Рахимова З. Образ Амира Темура в миниатюрной живописи. Санъат, 4/2019, Б.10–14.

Har qanday holatda ham, buyuk hukmdor o'zi namoyon etgan syujet va obrazga muvofiq tarzda, o'z davrining "ideal" qiyofasini saqlab qola olgan. Umuman olganda, tarixiy asarlarga ishlangan suratlarda rassomlar ma'lum tarixiy qahramonlarni, xususan hukmdorlar va sarkardalarni tasvirlashar ekan, shaxslarning individual xususiyatlarini emas, balki voqea, vaziyat, toifa turiga e'tibor qaratgan holda odob-ahloq qoidalariga rioya qilganlar.

Amir Temur o'z zamondoshlari va keyingi avlodlarning katta e'tiborini qozongan. Buning isboti sifatida nafaqat avlodma-avlod o'tib kelgan og'zaki manbalarni, shu bilan birga ham adabiy, ham musiqiy asarlarni, tasviriy san'atning turli janrlarida aks etgan Amir Temur obrazlarini ham ko'rsatish mumkin.¹

Ma'lumki, Amir Temurning o'zi ham nomi avlodlar xotirasida muhrlanib qolishini orzu qilgan va tarixchilarga o'z hayotidagi voqealar haqida kitoblar yozishni yoki rassomlarga o'zining tarjimai holi aks etgan voqealarni aks ettiruvchi ulug'vor suratlar chizishni buyurgan.

1404-yilda Amir Temur huzuriga elchi bo'lib kelgan Ryui Gonzales de Klavixo o'zining "Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarida hukmdor, shuningdek o'sha paytdagi bir qator tarixiy shaxslarning tashqi ko'rinishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi: "U shohsupa ustida o'tirardi. Uning oldida favvora yuqoriga otilib turar, favvora hovuzida qizil olmalar suzib yurardi. Podshoh lo'labolishga yonboshlagan holda shoyi ko'rpacha ustida o'ltirardi. Podshohning egnida gulsiz silliq shohi yaktak, boshida uzun telpak, telpakning yuqorisida qizil, yoqut, javohir va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan edi".²

Garchi Amir Temur davri voqealari haqida Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Hofizi Abru singari ko'plab tarixchilar o'z asarlarida yozib qoldirgan bo'lsalar-da, Ibn Arabshoh uning tashqi ko'rinishi haqida batafsilroq tavsif bergan yagona tarixchidir. Ibn Arabshohga ko'ra: "Temur chiroyli qaddi-qomatli, baland bo'yli, peshonasi ochiq, boshi katta, baland ovozli bo'lgan, uning qudrati jasoratidan kam bo'lmagan; yuzining yorqin qizilligi oqligini jonlantirgan. Yelkalari keng, barmoqlari ingichka, mushaklari kuchli bo'lgan. Uzun soqol qo'ygan; o'ng qo'li va oyog'i janglarda shikastlangan. Nigohi juda mehribon edi...".³

Bizgacha yetib kelgan Amir Temur portretlaridan eng qadimgisi XIV oxiri – XV asr boshiga mansub. Unda Amir Temur jangovar libosda tasvirlangan.

Portretida uning chap qo'li hajmi kichikroq, chap oyog'i an'anaviy tarzda soni ostiga olingan, o'ng oyog'i esa to'g'ri holatda taxtdan pastga osilgan. Rassom Amir Temurning nogironligini shu tarzda an'anaviy holat bilan mohirona niqoblab, san'atkorona aks ettiradi. Bir oyog'i uzatilgan, ikkinchi oyog'i esa tizzadan bukilgan shartli holat ko'pincha Hirot rassomlari tomonidan XV asr davomida, so'ngra Movarounnahr rassomlari tomonidan XVII asrda Amir

¹ Amirkeyan, Raissa. "Un portrait en miniature du XV e siecle: Sultan Baysunkur Bahador khan, Prince Timuride (Collection du Matenadaran)". *Iran & the Caucasus*. Published by: Brill. [Vol. 2 \(1998\)](#), pp. 119-123.

² Клавихо Р.Г. Самарқандга, Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. – Тошкент, Замон Пресс-инфо. 2023. – Б 160.

³ Якубовский А. Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяние. – Москва. Гураш, 1992. – С. 23.

Temur obraziga nisbatan qo'llanilgan va ayni holat qizg'ish cho'qqi soqoli bilan birga uning ikonografiyasining odatiy detallaridan biriga aylangan. Ammo ancha keyingi, XVI–XVII asrlarda ishlangan Eron yoki Hindiston miniatyuralarida Amir Temurning ikonografiyasi unutilgan. O'z davri odob qoidalariga ko'ra, Amir Temur obrazi miniatyurachilar tomonidan miniatyura yaratilgan davrdagi ideal shaxs, hukmdorlar yoki jangchilarning namunasi sifatida talqin qilingan.


Ibn Arabshohning yozishicha, “Amir Temur chiroyli qaddi-qomatli, baland bo'yli, peshonasi ochiq, boshi katta, baland ovozli bo'lgan, uning qudrati jasoratidan kam bo'lmagan; yuzining yorqin qizilligi oqligini jonlantirgan. Yelkalari keng, barmoqlari ingichka, mushaklari kuchli bo'lgan. Uzun soqol qo'ygan; o'ng qo'li va oyog'i janglarda shikastlangan. Nigohi juda mehribon edi...”. Yuqoridagi miniatyura ushbu tasvirlarga mos kelishi bilan ham ahamiyatlidir.

Tarixchi olimlarning ta'kidlashlaricha, Amir Temur saroylari janglarda, ziyofatlarda, elchilarni qabul qilish sahnalarida va boshqa joylarda uning o'zi ishtirok etgan devoriy suratlari bilan bezatilgan bo'lsa-da, bu suratlar bizgacha yetib kelmagan. Amir Temurning hayotlik davrida miniatyurada aks ettirilgan birorta tasviri saqlanib qolmagan. Miniatyura san'atidagi mashhur suratlar orasida Temurning temuriylar davridagi Hirot va Sheroz, safaviylar davridagi Sheroz, XVI–XVII asrlardagi Movarounnahr maktabi kabi turli san'at markazlarida va turli davrlarda ishlangan portretlari alohida jozibaga ega, lekin Boburiylar Hindistoni rassomlari uni ko'proq tasvirlashgan. Chunki, Boburiylar saroyida portret janri allaqachon tarixiy hujjat darajasiga ko'tarilgan edi.¹

Temuriy hukmdorlardan biri Iskandar Sulton davrida, XV asrning o'rtalarida Sherozda Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” sarkarda faoliyatiga bag'ishlangan tarixiy asarlar orasida Amir Temurning hayoti va faoliyati juda haqqoniy va to'liq ta'riflangan asar sanaladi. Uning eng qadimgi nusxalaridan biri 1435-1436-yillarda yaratilgan bo'lib, ayni paytda AQShning Nyu-York shahridagi Metropoliten muzeiyda saqlanmoqda.

Amaldagi ahloq-odob tamoyillariga ko'ra, Yazdiy Amir Temurni har ishda muvaffaqiyat qozongan va urushlarda g'olib chiqqan sarkarda, raiyatga shafqatli, xoinlar va dushmanlar bilan murosasiz, haqiqiy musulmon sifatida ta'riflaydi. Asar yozib tugallanishi bilan, tez orada qo'lyozma temuriylar davridagi tarixiy adabiyotlar orasida eng mashhur asarlardan biriga aylanib ulgurdi va tasvirlar bilan boyitilib, qayta-qayta ko'chirildi.

¹ Грек Т. “Могольские миниатюры XVII века с изображениями дворцовых приемов — дарбаров (Сравнительная характеристика групповых портретов)” // Страна и народы востока. Книга 3, вып. XIV. Москва, Наука, 1999. - С. 237.



Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga ishlangan ilk rasmlar XV asrning birinchi yarmida Temurning nabirasi Ibrohim Sulton hukmronligi davrida Sherozda yaratilgan. Ularda Amir Temur obrazi shartli ishlangan, lekin rassom uning yuziga mongoloid irqiga xos xususiyatlarni kiritgan.

Sohibqiron obrazining keyinchalik sharq Rafaeli nomini olgan mashhur rassom Kamoliddin Behzod ijodiga mansub miniatyuralarda o‘ziga xos talqinini ko‘rishimiz mumkin. “Zafarnoma”ning yana bir qo‘lyozmasi 1480-1484-yillarda Hirotida, Husayn Boyqaro hukmronligi davrida ko‘chirilgan bo‘lib, bu nusxa Behzod mo‘yqalamiga mansub miniatyuralar bilan boyitilgan.¹

Yazdiyning “Zafarnoma”siga ishlangan mazkur illustrasiyalar turkumidagi birinchi miniatyuraning syujeti temuriylar uchun juda katta siyosiy ahamiyatga ega. Aynan shu voqea, aniqrog‘i, 1370-yilning aprel oyida Balx zabt etilganidan so‘ng Temur Chig‘atoy ulusi hududlaridagi yagona hukmdorga aylangan.

Behzod unda voqeaning eng kulminatsion lahzasi – Sohibqironni hukmdor sifatida tan olayotgan Chig‘atoy ulusi beklarining qasamyod qilish jarayonini tasvirlaydi. Temur safdoshlari va a‘yonlari orasida, nafis bezatilgan chodir oldidagi taxtda tantanavor ko‘rinishda savlat to‘kib o‘tiribdi. U boshiga o‘zining mavqeini bildiruvchi qimmatbaho toj, ustiga yashil to‘n kiygan. Bir oyog‘i sonining ostiga bukilgan, ikkinchisi esa taxt yonidagi o‘rindiqlik ustiga tushirilgan. Uning qizg‘ish cho‘qqisoqol yuzida ulug‘vorlik aks etgan.

Xuddi shu qo‘lyozmadan olingan “Qipchoqlar qo‘shinining ta‘qib qilinishi” miniatyurasida qo‘lyozmaning ikki sahifasini egallagan.² Amir Temur tomonidan Gurjistonning Nergiz shahridan quvib chiqarilayotgan qipchoqlar shu atrofda g‘orlarga yashiringan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur bu jangda katta qalqonlardan savatlar yasashni buyurgan, shu savatlar orqali Amir Temur va uning askarlari tepadan g‘orga tushib, dushmanlarni qo‘lga tushirishgan.

Ushbu sahnani tasvirlarkan, Behzod o‘sha davrdagi odob qoidalari nuqtai nazaridan, Amir Temurni oddiy askar singari savatda g‘orga tushayotganini

¹Камолитдин Бехзод. “Темур Буюк амир этиб сайланиши муносабати билан байрам уюштирмоқда”, (Шарафитдин Али Яздийнинг “Зафарнома”си), Хирот, 1480-1485. Жон В. Гарретт кутубхонаси. Жон Хопкинс университети.

²Камолитдин Бехзод. “Темур Буюк амир этиб сайланиши муносабати билан байрам уюштирмоқда”, (Шарафитдин Али Яздийнинг “Зафарнома”си), Хирот, 1480-1485. Жон В. Гарретт кутубхонаси. Жон Хопкинс университети.- 2826-283а.

tasvirlay olmasdi. Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmas edi. Shuning uchun u hukmdorga xos holatda, qoya tepasida, saltanat ramzi sanalgan soyabonning soyasida turib, voqeani kuzatayotgan sohibqironni tasvirlaydi.

Qo‘lyozmadagi yana bir miniatyurada Smirna qal‘asining Amir Temur tomonidan ishg‘ol qilinishi tasvirlangan bo‘lib, askarlar qal‘aga shiddat bilan bostirib kirayotgan bir paytda, sohibqiron kompozitsiyaning o‘ng tomoni, pastki qismida, amirlarga xos tarzda ot ustida, harbiy harakatlarning borishi haqidagi hisobotni tinglayotgan holda tasvirlangan. Behzodning o‘zi o‘sha davrda yashaganligi uchun ham hukmdor obrazini yaratishda qabul qilingan odob qoidalaridan chetga chiqqan olmagan.

Qo‘lyozmada Samarqanddagi Jome masjidining qurilishi ham o‘ta haqqoniy tarzda qalamga olingan. Unda Behzod turli sohadagi ustalarning birgalikdagi mehnati aks etgan qurilish maydonining realistik tasvirini yaratadi. Diptixning o‘ng tomonida qurilishga shaxsan rahbarlik qilgan hukmdorning o‘zi tasvirlangan. Uning qiyofasi va Hirotidagi qurilishlarga katta homiylik qilgan Navoiy obrazi o‘rtasida ma‘lum o‘xshashlik mavjud. Shu tariqa Behzod, go‘yo o‘z homiysi va ustoziga iltifot ko‘rsatib, uning qurilishga homiyligini Temurning shaharsozlik faoliyati bilan qiyoslagan. U bu yerda Mahmud Muzahhibning mashhur portretidagi Navoiy kabi hassaga suyanib turibdi, hatto uning yuzi ham Navoiy portretidagi yuz tuzilishiga o‘xshaydi.

Boburiylarning turli davrlarda yaratilgan miniatyuralarida Amir Temurning siymosiga katta o‘rin berilgan. Buning sababi temuriylar sulolasi asoschisi, Hindistondagi boburiylarning bobokaloni, o‘zining harbiy g‘alabalari, adabiyot, san‘at va ma‘rifatga homiyligi bilan mashhur bo‘lgan bu zotning favqulodda katta nufuzga egaligi bo‘lgan.

Yozma manbalarda keltirilishicha, “Jahongir podshoh o‘zining buyuk ajdodining hayotlik davrida yoki vafotidan keyin chizilgan, shu bilan birga, albatta, haqqoniy ishlangan portretiga ega bo‘lishni juda hohlagan. Qo‘l ostidagilar uni xursand qilish istagida unga Amir Temur portretlarini jo‘natishgan»¹.

Boburiylar davrida yaratilgan Amir Temur portretlari shartli tarzda chizilgan va uning individual qiyofasini aks ettirmagan. Tabiiyki, bu rassomlarning hech biri Amir Temurni shaxsan ko‘rmagan. Ehtimol, Amir Temur portretlarining O‘rta Osiyoga xos ikonografiyasi yo‘qolgan yoki boburiylarning portret janri konsepsiyasiga to‘g‘ri kelmagan bo‘lishi ham mumkin.

Boburiylar davri rassomlari Sohibqironning bir kishilik, juftlik va guruh ko‘rinishidagi ko‘plab portretlarini yaratishgan. Rassom Govardxon tomonidan yaratilgan “Amir Temurning otliq portreti” (1620–1627) juda mashhur sanaladi.

Boburiylar rassomlari Amir Temurni uning etnik xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘ziga xosliklar bilan tasvirlashga harakat qilishgan, masalan, uning kelib chiqishi Movarounnahrda ekani ixcham chorpech salla bilan ifodalangan, miniatyuraning qolgan detallari esa uslubi va kompozitsiyasiga ko‘ra faqat

¹ Атманова Ю. Портрет в индийском искусстве эпохи Монголов: Монография. – Москва: 2021, - С.71–72.

hindlarga xos tarzda ishlangan. Temurning qiyofasiga qisq ko'zli tekis yuz tuzilishi orqali turkiy va boburiylarga xos xususiyatlar berilgan, lekin uning ikonografiyasining o'ziga xos belgisi – oqsoqligiga ishora sifatida ko'riladigan, o'ng oyog'ini yig'ib o'tirishi holati unutilgan yoki ehtimol, uning mavqeini kamsitmaslik uchun ataylab ko'rsatilmagan.

Amir Temur barcha portretlarida hind uslubi uchun an'anaviy sanalgan, boshi atrofida porlab turadigan nurchambarlar bilan tasvirlangan. Boburiylar miniatyuralarida u ko'pincha Hindistonga xos tarzda qimmatbaho toshlar qadalib, o'yma naqsh bilan bezatilgan baland suyanchiqli, to'rtta kalta oyoqli oltin taxtda o'tirgan holatda aks ettirilgan. Taxt tepasida saltanat ramzi sanalgan *oftobon* – guldor qimmatbaho chodir. Ba'zi miniatyuralarda Temur chapga o'girilib, yarim yonbosh holatda o'tirgan, oyoqlarini chalishtirib, katta yostiqa suyangan holatda tasvirlangan. U ko'pincha saltanat va harbiy qahramonlik atributlari – qilich, bayroq, o'q solingan o'qdon bilan, shuningdek, hindlarga xos ko'rinishda – qo'lida lochin yoki qimmatbaho javohirlar bilan bezatilgan tojni ushlab turgan holda tasvirlangan.

Suratdagi shaxsning holati (yarim profilda) ham hind portretlariga xosdir. Shu bilan birga, doimo rassomlar uning libosidagi O'rta Osiyoga xos detallarga, masalan, ko'p qavatli liboslar, bosh kiyimi, charmdan tikilgan baland etigi yoki ukpar qadalgan sallasiga alohida e'tibor qaratishadi. Aksariyat portretlardagi Amir Temurning yuzida boburiy vorislarining yuz tuzilishi bilan o'xshashlik bor va ehtimol, bu uning portretlari uchun qo'yilgan majburiy talablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ana shunday miniatyuralardan birida Amir Temur kompozitsiyaning markazida o'tiribdi. U saltanat tojini o'ng tomonida o'tirgan Boburga topshirmoqda. Hokimiyat timsollaridan biri hisoblangan tojning topshirilishi ayni damda hukmron sulolaning qonuniyligini tasdiqlaydi. Sohibqiron temuriylar davri uslubida kiyingan, boshiga salla o'ragan yetuk inson sifatida tasvirlangan va uning umumiy ko'rinishiga ham Boburiylarga o'xshash xususiyatlar aks etgan. Chap tomonda Boburning o'g'li Humoyun (1530–1545) tasvirlangan.¹

Bobur ham barcha portretlarda, xuddi ayni holatdagi kabi, O'rta Osiyoga xos yashil sallada tasvirlangan, Humoyun esa salla va ukpar yoki qadama bezak bilan bezatilgan kigiz qalpoq – *toji izzat* kiygan. Tadqiqotchilarning fikricha, Humoyun shia mazhabidagi safaviylarning maxsus bosh kiyimi - *toji haydariydan* farq qilishi uchun bu bosh kiyimni o'zi joriy qilgan. Toji izzat imperator Akbar tomonidan bekor qilingan va undan keyingi davr miniatyuralarida uchramaydi.

Bunday suratlardan yana biri hindistonlik musavvir Muhammad Afzal abu Faqirullohxon ijodiga mansub bo'lib, u ayni damda Rampur Raza kutubxonasida saqlanadi. Ushbu sulolaviy guruh portretidagi ayvonning markazida sulolaning asoschisi Amir Temur (1370–1405) o'zining 12 nafar avlodi qurshovida tasvirlangan. Amir Temur siymosi mazkur portretida boburiylarning estetik tasavvurlari doirasida tasvirlangan bo'lib, uning ikonografiyasidan mutlaqo

¹ Абдухоликов Ф., Рахимова З. Шарқ миниатюраси: Тарихий шахслар. – Тошкент. Silk Road Media, 2021. – Б.336.

foydalanilmagan. Buyurtmachi va uning talab va istaklarini bajargan rassom uchun asosiy maqsad sulolaning shajarasini ko'rsatib berish bo'lgan. Chap tomonda Mironshoh (1366-1408), Abu Said (1451—1469), Bobur (1526—1530), Akbar (1556–1605), Shohjahon (1628–1658), Bahodirshoh (1707–1712), o'ng tomonda Sulton Muhammad (?-1451), Umarshayx (1469-1494), Humoyun (1530-1556), Jahongir (1605–1627), Olamgir (1658–1707), Jahondorshoh (1712-1713) tasvirlangan.



Ma'lumki, 1941-yil 2-22-iyun kunlari maxsus ekspeditsiya tomonidan Samarqanddagi "Go'ri Amir" maqbarasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'beklar qabri ochilgan, ularning jasad qoldiqlari o'rganilgan, ekspeditsiya tarkibida bo'lgan M.Gerasimov (1907-1970) ushbu qoldiqlarga qarab temuriylarning yuz tuzilishlari qayta tiklagan.¹

Amir Temur siymosi sovet yillarida yovuzlik, bosqinchilik, jabr-zulm timsoli bo'lib keldi. Maktab darsliklarida Amir Temurni o'quvchilarga tanitish uchun M.Gerasimov ishlagan rekonstruksiya dan foydalanilgan. M.Gerasimov o'z davrining siyosiy mafkurasidan kelib, imkon qadar Amir Temurni qahrli, qo'rqinchli qiyofada tasvirlagan bo'lishi mumkin. Ammo, Gerasimov bu rekonstruksiyani yaratishda sarkardaning bosh suyagi, antropologik chizgilaridan chiqib ketmagan.²

Bugungi kunda Amir Temur siymosiga, uning hayoti va faoliyatiga, jahon davlatchiligi rivojiga qo'shgan hissasi keng miqyosda o'rganilmoqda. Amir Temur obrazi asrlar davomida G'arbda ham, Sharqda ham adabiyot va san'at

¹ Бердимуродов А. Самарканд тарихидан томчилар. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б 283.

² ГЕРАСИМОВ М.. «ПОРТРЕТ ТАМЕРЛАНА (ОПЫТ СКУЛЬПТУРНОГО ВОСПРОИЗВЕДЕНИЯ НА КРАНИОЛОГИЧЕСКОЙ ОСНОВЕ)» // КРАТКИЕ СООБЩЕНИЯ ИНСТИТУТА ИСТОРИИ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ. 1947. № XVII. С. 14—21.



vakillarini qiziqtirib kelgan, juda ko‘p ilmiy va badiiy adabiyotlar, tasviriyl san‘at asarlari yaratilgan. Bu jarayon hozir ham davom etayotir.

Jumladan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng tarixiy-madaniyl merosni anglab yetish va tadqiq qilish ishlari butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi.¹

Zamonaviyl ilm-fan tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati, ularning tashqi ko‘rinishi, xarakteri, fe‘l-atvorini chuqurroq o‘rganishni, ularning siymosini yanada aniqroq, mukammalroq aks ettirishni talab etmoqda. Bu ayniqsa, fotografiya va kino taraqqiy etmagan paytlarda yashab o‘tgan tarixiy shaxslarning real qiyofasini yaratishda katta o‘rin tutadi. Demak, Sharq miniatyuralaridagi Amir Temur tasvirlarini chuqurroq o‘rganish, tadqiq qilish orqali bu sarkardaning asl ko‘rinishini yanada haqqoniyroq tasvirash imkoniyati mavjud. Bu esa, zamonaviyl rassomlar uchun Amir Temur ikonografiyasini o‘rganish, uning qiyofasini yanada aniqroq va real ko‘rinishda tasvirlash imkonini beradi. Shuningdek, bu tadqiqotlar axborot texnologiyalari yordamida Amir Temurning 3D formatidagi qiyofasini yaratish, turli illustrasiyalar, bolalar uchun suratli kontentlar, animatsion filmlar yaratishda ham foyda berishi mumkin.

¹ Акилова К. Поиски смысла. Монография. - Ташкент, издательство журнала “Санъат”. 2016. - С. 38.

TARIX **ETNOMADANIYATNING TARIXIY GENEZISIDAGI** **JARAYONLAR.**



**Muslima
IBRAGIMOVA,**
Renessans ta'lim
universiteti "Ijtimoiy-
siyosiy fanlar"
kafedrası dotsenti, tarix
fanlari nomzodi

UO'K 820.30

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqi etnomadaniyatining tarixiy genezisi tahlil qilingan. Urf, odat, an'analar taqqoslangan holda tarixdagi etnik jarayonlar ham tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье анализируется исторический генезис этнокультуры узбекского народа. Этнические процессы в истории изучаются также путем сопоставления обычаев, традиций и нравов.

Annotation: This article analyzes the historical genesis of the ethnoculture of the Uzbek people. Ethnic processes in history are also studied, comparing customs, traditions, and customs.

Kalit so'zlar: Etnomadaniyat, tarix, genezis, urf-odat, an'ana, marosim, qal'a, din, san'at.

Ключевые слова: Этнокультура, история, генезис, обычай, традиция, церемония, замок, религия, искусство.

Key words: Ethnoculture, history, genesis, custom, tradition, ceremony, castle, religion, art.

Etnomadaniyat - asrlar davomida yaratilgan etnik qadriyatlarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va hozirgi holatini o'rganadigan alohida fan sohasi bo'lib, vatanimizda mustaqillik yillarida shakllana boshladi. Etnomadaniyatning vujudga kelishining dastlabki ildizlari - ibtidoiy e'tiqodiy qarashlar, totemizm, animizm, shomonlik va ov bilan bog'liq marosimlar miflarga asoslangan teatrlashgan tomosha san'atlarining paydo bo'lishi va shakllanishiga mustahkam zamin hozirlagan. Miloddan avvalgi VII asrda paydo bo'lgan zardo'shtiylik dinining dualistik ta'limoti - ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni targ'ib etishi, Axriman a Axuramazda, Mitra, Anaxita, Xubbi, Zurvan, Mitra kabi Xudolarga bag'ishlangan miflar, rivoyatlar tarixiy va afsonaviy epik qahramonlarni vujudga keltirdi. Ma'budlarga bag'ishlangan marosimlar va bayramlarda ma'budlar, afsonaviy qahramonlarning talqin etilishi teatrlashgan tomoshalar mavzulari rang-barangligini ta'minlab, badiiy jihatdan boyishiga sabab bo'ldi.

O'zbek etnomadaniyati xalq urf-odatlari, ijodiyoti, o'yinlari, pazandaligi, maishiy madaniyati, me'morchiligi va amaliy san'ati, milliy liboslari, tabobati,

xalq pedagogikasi kabilar o'rganilib, asosiy turkumlarga ajratiladi. O'zbek xalqi etnomadaniyatining tarixiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlar haqida to'xtalganimizda, jumladan o'zbek etnomadaniyati milliy sirk an'analari ham o'z aksini topgan. Bu borada vatanimizda tarixan boy madaniy meros yaratilgan. Arxeologik materiallar, qadimgi devoriy tasvirlar ham buni tasdiqlaydi. Qadimgi qo'lyozma manbalarda bayon qilinishicha, bayramlarda, sayllarda chavandoz, masxaraboz, polvonlar ham ishtirok etishgan. Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Xolchayon, Dalvarzintepa, Afrosiyobdan masxarabozlarning haykalchalari topilgan. Ko'chmanchi xalqlarda ham chavandozlik, merganlik, tuyani boshqarish va o'yin ko'rsatish keng tarqalgan. Markaziy Osiyolik san'atkorlarni boshqa hududlarda ham uchratish mumkin bo'lgan¹. Etnomadaniyatning eng yorqin va ommabop ko'rinishlari dorbozlar ijodida o'z aksini topgan. Dorbozlar chiqishlarida xalq teatrining ayrim elementlari mujassamlashtirilgan. Xususan, ularning tomoshalari qisman teatrlashtirilgan shaklda tashkil etiladi va ma'lum ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga urg'u qaratiladi.

O'zbekiston hududining Surxondaryodagi Zarautsoy, Samarqand yaqinidagi Oqsoy va Ilonsoy, Farg'ona viloyatidagi suratsoy va Saymalitoshdan topilgan ov manzaralarida tomoshaga xos ana shunday xususiyatlar ifodalangan². Ushbu tasvirlardagi manzaralar faqatgina odamning ov jarayonidagi holatini aks ettirmay, unda ovlanadigan hayvonga munosabat, uni avrash bilan bog'liq afsun tasvirlari tushirilgan. Bunda ov paytidagi jarayon bilan ovdan keyin yoki oldin o'tkazilgan marosimlar jarayon bilan birga hayvonga taqlid qilish, uning harakatlari xarakterini ifodalashni talab etgan. Bularning ba'zilar jangovor o'yinni eslatsa, ba'zi raqslar afsungarlik, totemizm diniy marosimlar bilan aloqador bo'lgan³. Bu o'yinlar "Ovchilik o'yinlari" deb atalib, unda ovda bo'ladigan yoki bo'lib o'tgan voqealarni ifodalashga intilish teatrlashgan tomoshaga xos xususiyatlar, kayfiyat va tuyg'ularni ifodalash, plastik harakatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Odamlar orasida totemlarga bunday munosabat o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Totemistik qarashlar haqidagi tadqiqotlarda urug' ichidagi qarindoshlar, odam va urug' totemi - muayyan hayvon yoki o'simlikni mujassamlashtirilgan bir avloddan kelib chiqqaniga ishonishgan, ya'ni ular o'zlarini yarim inson-yarim o'simlik hisoblagan va ushbu tasavvurdan kelib

¹ Qoraboev U.H. Madaniyat masalalari T. : "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2009. 276-b.

² Qodirov M. H. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun T.: "Mumtoz so'z", 2011. 13-b.

³ Rahmonov M.R. O'zbek teatri qadimiy tomonlarda XVIII asrga qadar T.: "Fan", 1975. 27-b.

chiqib, har bir urug‘ o‘z totemining nomini olgan va unga sig‘ingan. Odamzod ongida “insonning hayvonga va aksincha hayvonning insonga aylanishiga ishonch hosil bo‘lgach, totemni iste‘mol qilish man etiladi va “tabu” – man etilgan narsa tushunchasi paydo bo‘ladi. Totemlar bilan bog‘liq udum va marosimlar e‘tiqodiy qarashlar va totemga qarab turli hududlarda turlicha bo‘lgan. Xususan, massagetlar totemizmga ikki tasavvur xos bo‘lgan:

- 1) Bolaning tug‘ilishi ayol badaniga totem kirishi bilan baholanadi;
- 2) O‘lim esa totem hayvonga aylanish, ya‘ni asliga qaytish deb hisoblanadi. Ehtimol, shuning uchun ham Xorazmning qadim hukmdorlarini qabila totemi hisoblangan buqa teriiga o‘rab ko‘mishgan”¹.

Davr o‘tishi bilan zardo‘shiylik dini, ellin madaniyati, buddaviylik va islom dinining kirib kelishi totemistik diniy urf-odat va marosimlarning faqatgina tomosha vazifasini saqlagani holda an‘aviy teatr san‘atining muqallid janri sifatida hayotini davom ettirishini taqozo etdi. Muqallidlar orasida bo‘ri, tulki, arslon, sirtlon, ayiq, maymun kabi yovvoyi hayvonlar, echki, sigir, ot, tuya kabi uy hayvonlari, laylak, xo‘roz, bulbul, chag‘alloq, to‘ti, o‘rdak, tovuş, kabutar kabi qushlarning harakatlari va o‘zaro munosabatlariga taqlid qilish uchraydi. “Dev o‘yini”, “Maymun o‘yini”, “Ot o‘yini”, “Chorloq o‘yini”, “Yumronqoziq o‘yini”, “Echki o‘yini” kabi muqallidlar aynan totemistik e‘tiqodning natijalari hisoblanadi ². Shuningdek, totemlar bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar yakkaxudolik dinining paydo bo‘ilishi bilan yo‘qolib ketmadi, balki xalq orasida urf-odat, marosimlar ko‘rinishida saqlanib qoldi.

Xalq ijodiyotining dastlabki namunalari, ritual, mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlar tabiiy sahna, dekoratsiya, ijrochilar, an‘anaviy raqs va badiiy matn o‘zbek teatr san‘atining etnomadaniy asoslarini belgilab berdi. Ayrim marosimlarning islom dini kirib kelishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madagi omillar ta‘sirida derituallashishi marosim tarkibidagi so‘z magiyasi, harakat, badiiy matnning ritual an‘ana sifatidagi belgilarining yo‘qolishi va ommaviy tomoshaga aylanishi hamda xalq tomosha san‘atining hayotiy qamrovi kengayishiga olib keldi.

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati jahon tamaddunida alohida bosqich bo‘ldi. Sohibqiron barpo etgan ulkan davlat ilm-fan, san‘at va

¹ Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e‘tiqodlar tarixi T.: Jahon iqtisoiyoti va diplomatiya universiteti, 2008. 100-101-b.

² Raxmonov M. O‘zbek teatri qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar-T.: “Fan”, 1975. 34-b.

madaniyatning yuksak darajadagi rivojlanishi bilan nafaqat sharq, balki g'arb davlatlari taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Me'morchilik, tasviriy va amaliy san'atning noyob namunalari yaratildi. Xususan, Amir Temur va temuriylar davri tomosha san'ati alohida ob'ekt sifatida olimlar M. Rahmonov¹, M.Qodirov²lar tomonidan o'rganildi. Tadqiqotlar miniatyuralardagi tasvirlar, memuar asarlardagi ma'lumotlarga tayanib olib borilgan, sohada fundamental ilmiy izlanish olib borish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Aytish joizki, Amir Temur davri san'ati Sohibqiron zabt etgan hududlardan keltirilgan mohir san'atkorlar bilan boyib, o'z o'rnida bu holat maydon tomoshalarining taraqqiy etishi va tarkibiy jihatdan rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Herman Vamberi, Ryui Gonzalee de Klavixo asarlarida ko'chirib keltirilgan xalqlar haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan, uning kundaliklarida Samarqandga keltirilgan erkak va ayollar bir yuz ellik mingdan ortiq bo'lgani, bular orasida turk, arab, arman, yunon katoliklari, nasroniylar, yuzi bilan o'tga topinuvchi o'ziga xos mazhabga ega bo'lgan kishilar ham bor bo'lganligi, Sohibqiron ularning har biriga alohida hududlar biriktirib, erkin ijod qilishlari uchun imkoniyat yaratib berganligi haqida ma'lumot berilgan³.

Amir Temur "To'ylar, marosimlar, bayramlardan ham o'z saltanati qudratini namoyish etish yo'lida foydalangan. Umuman, hamma narsani - san'atni, o'yin va tomoshalarni, hatto o'z kuchini ham davlatni mustahkamlash, saltanatni ulug'lash, jangda g'olib chiqish sari yo'naltirgan⁴". Shu sababdan Sohibqiron tomonidan uyushtirilgan bayramlar, tomoshalarga nihoyatda mohir san'atkorlar jalb etilib, ular keng miqyosda nishonlangan. Rui Gonzales de Klavixoning kundaliklarida Amir Temurning elchilar sharafiga va boshqa sabablar bilan o'tkazilgan bayramlar tafsilotlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xususan, kundalikda sohibqiron nabirasiing to'yi munosabati bilan uyushtirilgan marosimda sayl o'tkazilib, unda hamma o'rda atrofida yig'ilib, xursandchilikka sherik bo'lganligi aytiladi. Shuningdek, tadbirning tashkiliy jihatiga e'tibor berilib, bozor o'rda atrofiga ko'chirilib, savdo-sotiq qilishga amr etilganligi, bu xursandchilikni hazil-mutoyiba bilan qiziqarli o'tkazish kerakligi aytilgan⁵.

¹ Rahmonov M. Temur va temuriylar davri san'atiga bir nazar. –T.: "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1996.19-b.

² Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san'atlari. T.: "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1996.64-b.

³ Amir Temur Yevropa elchilari nigohida T.: G'.G'ulom nomidagi "Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 123-b.

⁴ Qodirov B Temur va temuriylar davrida tomosha san'atlari. T. G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti 1996. 11- b.

⁵ Амир Темур Европа нигоҳида. Т. Ғ.Ғулом номидаги "Нашриёт матбаа-ижодий уйи" 2007. 126-б.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur bayramlar, to‘y, marosimlarni xalq sayli shaklida o‘tkazgan va unda xalq an‘anaviy teatrining ishtirokiga alohida e‘tibor qaratilgan. Tomoshalarda mohirlikni ko‘rsatuvchi o‘yinlarga keng o‘rin berilgan. Bular orasida hayvonlar ishtirokidagi bellashuvlar ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, elchilar ishtirok etgan bazmda fillar ishtirokida tomoshalar ko‘rsatilganligi kundlikda bayon etiladi.

Farg‘ona vodiysi maydon tomoshalari aks etgan manbalar nihoyatda ko‘p. Ana shunday lavhalarni yozib qoldirgan ziyolilar L.Kun, I.Ibragimov, S. Likoshin, A. Troiskaya, M. Alibekovlarning ishlari alohida ajralib turadi. O‘rganilayotgan davr maydon tomoshalari tilga olingan lavhalar qatoriga er-xotin V.Nalivkin va M. Nalivkinalarning qo‘lyozmasini ham kiritish mumkin. Salkam yigirma yil davomida Farg‘ona vodiysining turli shahar va qishloqlarni kezib chiqqan mualliflar mahalliy ayollarning maishiy hayoti, maydon tomoshalarining ahamiyati to‘g‘risida birmuncha aniq va haqqoniy ma‘lumotlarni keltiradi¹. Xalq bayramlari, urf-odatlari, oilaviy marosimlari, folklor, an‘anaviy musiqa madaniyati va boshqalar ijro etilish payti, o‘rniga ko‘ra turli tomosha ko‘rinishlarida amalga oshirilgan. Odamlar gavjumlashgan maydonlar, mahalla guzarlari, bozor atroflari, ko‘chalarda namoyish etilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, har bir davrning o‘z etnik an‘analari bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, mazmunan boyib boradi, ba‘zilar yo‘qoladi, yangilari vujudga keladi. Shuningdek, bir zamonning an‘analari ikkinchisiga mos kelmasligi mumkin. An‘analar inson faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo‘ladi. Tarixiy jarayonlar, ijtimoiy taraqqiyotning oldinga borishiga, insonning barkamol, sog‘lom ravnaq topishiga xizmat qiladi hamda muayyan xalq ommasining tub manfaatlariga muvofiq keladigan, marosim, rasm-rusum, urf-odat, turmush va tafakkur tarzi an‘ana vositasi sifatida rivojlanadi va qadriyatga aylanadi². Tadqiqotimiz mavzu doirasi nihoyatda keng bo‘lib, o‘zbek milliy an‘analari, urf-odatlari, udumlari, qadriyatlari, marosimlari, bayramlari, turmush tarzi, kiyinish madaniyatidan tortib, milliy taomlarigacha bo‘lgan barcha sohalarini - xalqimizning milliy xususiyatlari, xalq sifatida tarixda tutgan o‘rni, buguni va kelajagi, millatning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini belgilab berish masalalarini ham qamrab oladi.

¹ Наливкин В., Наливкина М. Очерки быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. Казань, Типография Императорского Университета 1886 г.

² “Фалсафа” комусий луғат Т.: “Шарк”, 2004. 32-б.




Bir necha ming yillik tarixga ega o'zbek millatining asrlar davomida turli xalq va elatlar madaniyati bilan differensiyalashuvi va integratsiyalashuvi natijasida shakllangan. Bu nafaqat madaniyat, shu bilan birga millatning o'ziga xos xususiyatlari, dini, urf-odati, mentalitetining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan.

TARIX

AKADEMIK RASSOM DMITRIEV KAVKAZSKIYNING XIVA TAASSUROTULARI.

UO‘K 95.15



**Saparbay
NAVRO‘ZOV,
Ma‘mun universiteti
dotsenti, tarix fanlari
nomzodi.**

Annotatsiya: ushbu maqolada Rossiya Imperator akademiyasi a‘zosi, rassom Lev Yevgrafovich Dmitriev Kavkazskiyning XIX asr oxirida Xiva xonligiga uyushtirgan ijodiy sayohati yuzasidan fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье речь идёт о творческой путешествии гравюриста художника, члена Российской Императорской академии Льва Евграфовича Дмитриева Кавказского в Хиву конца XIX века.

Annotation: The article discusses the artistic journey of the artist Lev Yevgrafovich Dmitriev Kavkazsky, a member of the Russian Imperial Academy of Arts, to Khiva Khanate at the end of the 19th century.

Kalit so‘zlar: gravyurachi rassom, Charjo‘y, Xiva, Xonqa, Petro-Aleksandrovsk, Xiva xoni, devonbegi, Amudaryo, temir ko‘prik, hovli-joy, chodir-o‘tov.

Ключевые слова: Художник гравюрист, Чарджуй, Хива, Ханки, Петро-Александровск, Хивинский хан, диванбеги, река Амударья, железнодорожный мост, дом усадьба, кибитка.

Key words: Artist engraver, Chardzhuy, Khiva, Khanka, Petro-Alexandrovsk, The Khan of Khiva, divanbegi, Amu Darya river, railway bridge, estate house, wagon.

Kech kuz, 1887-yil 25-oktabr tongida Xiva tomon safarga otlangan turli kasbdagi yo‘lovchilar qayiqalarda bir necha kun davomida Jayhunning tashvishli va tahlikali to‘lqinlari bilan olishgancha, 16-noyabrdagina rus harbiy qo‘rg‘oni Petro-Aleksandrovsk pristaniga kelib to‘xtadi. Darhaqiqat, bu galgi yo‘lovchilar Xivadagi rus kontoralari xizmatchilari emas, balki Amudaryoda suv yo‘li qatnovini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq mutaxassislar - injener, texnik va ishchilar edi.

Charjo‘ydan kelgan bu yo‘lovchilar daryo uzra suv oqimi bo‘ylab 600 chaqirim masofani suzib o‘tishgan. Safar davomida mutaxassislar daryo qirg‘oqlarining o‘pirilishi, to‘lqinlar harakati, hajmi va ularning kengligini aniq ravishda o‘lchash bilan shug‘ullanishgan. Aslida ekipaj a‘zolari Amudaryoda ilmiy tadqiqot qiluvchi guruh bo‘lib, uning rahbari harbiy injener kapitan Kolsov edi. Bu injenerlik ekspeditsiyasining natijasi xonlik iqtisodiy hayotida muhim rol

o'ynovchi, yangi transport tizimi bo'lmish Amudaryo flotiliyasiga yo'l ochardi. Darhaqiqat, ushbu yo'lovchilar orasida peterburglik rassom Lev Yevgrafovich Dmitriy Kavkazskiy ham bor edi¹. U imperator badiiy akademiyasi a'zosi bo'lib, familiyasiga o'zga rassomlardan farq qilish uchun "Kavkazlik Arslon" laqabini qo'shib olgan. U Kavkazda tug'ilib, Stavropol shahar gimnaziyasini tugatgach, Peterburg badiiy akademiyasida tahsil olgan. Talabalik davrida ikkita kumush medal va "Kavkaz stipendiyasi" sohibi sifatida oliy dargohni bitkazdi. Hayotini badiiy ijodga bag'ishlagan Lev Yevgrafovich 1882-yilda imperator badiiy akademiyasi a'zoligiga saylandi. Rassom ijod bilan shug'ullanarkan, Kavkaz va Kavkazortiga ijodiy sayohatlar qildi. Ayniqsa, rassom hayotida uning 1887-yil yozida Zakaspiy va O'rta Osiyoga qilgan sayohati natijalari ijodiy faoliyatiga beqiyos ilhom bergandi. Sharqona turmush tarziga doir boy va rang-barang materiallar yig'ildi. Petro-Aleksandrovska mehmonni shaxsan Amudaryo bo'limi boshlig'i, general mayor K.O. Razgonov kutib oldi. Mezbon sifatida izzat ko'rsatib mehmondorchilik qilgach, Xiva hukmdori va Matmurod devonbegi nomiga ishonch xatlarini berib, yo'lga kuzatib qo'ydi. Musavvir o'z esdaliklarida ko'rsatishicha, "4-dekabr, 1887-yil. Kun peshindan oqqach, daryoning so'l qirg'og'iga o'tib oldik, Xiva tomon yo'lga chiqdim. Yonimda tilmoch hamrohim qozoq yigiti bor edi. Kunning ikkinchi yarmida, chamasi soat 4 larga yaqin Xonqa qal'asiga kirib keldik. Yo'l bo'ylab kuzatarkanmiz, bu hududda deyarli e'tiborga loyiq biron narsa ko'zga tashlanmasdi. Ko'rganlarim esa o'xshash va bir xil manzara edi.

Biz Xonqa hokimi Aminboy hoji Muhammad o'g'li hovlisida to'xtadik. U Xivada saroy doirasida ham katta obro'ga ega. Aminboy hoji rus bosqini arafasida Xiva karvoniga boshchilik qilib, Hindistonga elchi sifatida borib Inglizlar bilan bo'lgan muzokaralarda ruslarga qarshi kelishuvlarga erisholmay qaytib kelgandi².

Xonqada bizni iliq kutib olishdi. Bek hovlisiga tutash joylashgan "mehmonxona" atalmish chodirga joylashdik. O'rtada o'choqqa o't yoqildi. Issiqqina choy ichib, sal-pal qizinib, o'zimizga kelgandik, ko'rinishdan oddiygina kiyingan bek kirib keldi. U xushbichim, 45 yoshlar chamasida edi. Bek men bilan uchrasharkan, ust boshimga, kiyimlarimga boqqanda uning nazarida soddalik, oddiylik his qildim. Biz u kishi bilan miriqib suhbatlashdik. Tarjimon hamrohim uning hamma gap-so'zlarini bimalol sodda, ravon tilda yetkazgandi. Suhbat

¹ Л.Е. Дмитриев Кавказский. По Средней Азии. Записки художника. Спб. 1894. с.57

² А. Кун. Туркестанские ведомости №32, 1873.

ancha qiziq kechdi. Dasturxonni yana yangi yeyimliklar, shirinliklar bilan to'ldirishdi. Go'sht, qazi va sho'rva hamda mahalliy uzma kurdik yeb kechki tushlikni o'tkazdik.

Kechqurun soat 7 lar chamasi bek biz bilan "buguncha!", deya xayrlashib chiqib ketdi. Hamrohim ikkalamiz choyxo'rlikni yana biroz davom qildirdik. O'tovda uyquga yotarkanmiz, o'ranib yotsak-da, tongga yaqin ancha sovqotdik. Qattiq charchoq tufayli qotib uxlagan ekanmiz, ertalab bizni tonggi uyqudan sovuq shamolning uvlagan sasi uyg'otdi.

Tashqarida ob-havo ancha sovuq edi. Chodirda o't yoqilgach, xonaga salpal ilqlik yugurdi. Nonushtaga endigina qo'l urgandik, bek o'zining kenjatoyi bilan kirib keldi. Bolakay juda yoqimtoy ekan, uni ko'rishim bilanoq negadir quvontirishga urindim. Sovg'a sifatida hamyonimdagi katta forsiy kumush tangani berarkanman, bek janoblari hadyamni bolaning boshidagi taxyosiga qadab qo'ydi. Dasturxonga nonushta uchun yaxna go'sht va iliqqina qaymoq tortishdi. Qaymoqni yoqtirishim tufayli ancha yeb qo'ydim. Bekka mehmondorchiligi uchun minnatdorchilik sifatida istaklarimni izhor qilayotgandim, u idishdan barmog'iga qaymoq ildirib og'zimga tiqib soldi. Bek taklifiga moyil holda og'zimdagi qaymoqni noiloj yutishga majbur bo'ldim. Yana ustiga-ustak, mezbon mehmondorchiligi evaziga yuvilmagan barmoqlarining og'zim ichida o'ynashiga minnatdorchilik bildirishim lozim edi. Xonqa beining mehmondo'stligidagi ortiqcha va oshiqcha "saxovat"ini fikran singdira olmagan holda chamasi soat 9 larda Xiva tomon yo'lga chiqdik", deb yozgandi sayyoh. U yo'l sarguzashtlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Xivaga yaqinlasharkanmiz, yo'limizda ko'plab terakzor, mahalliy gujumlaru, bog'-rog'lar uchrardi. Yo'lning o'ng tomonida katta uyga ko'zimiz tushdi. Tevarak-atrofi devor bilan o'ralgan katta bog'li bu uy xon hazratlarining kichik inisi Otajon to'raning hovlisi edi". Yo'lovchilar kuzning izg'irin shamolli sovug'iga qaramasdan, Xonqa qal'asidan poytaxt ostonasigacha bo'lgan masofani ildamlilik bilan o'tib, peshin soat 2 larga yaqin Xiva darvozasiga kelib qolishdi. Qadimiy bu qal'ada sayyoh turli xil manzaralarga boqarkan, nazarida "Xiva naqadar jozibali ko'rinsa ham, lekin qarovsiz, ifloslangan, achinarli ahvoldagi uy-joylar, eski-tuski, lash-lushlar kabi ko'rinayotgan binolar, nafis koshin ila bezatilgan minoralar ham, o'z-o'zini ko'z-ko'z qilib turgani holda ularning mutlaqo ta'mirtalabligi, biron kishini tashvishlantirmasdi". Xivada chorvador ko'chmanchilarning turarjoyi bo'lmish

(chodir) o'tov kuzatuvchi nazarida anoyi bir holat namoyon qilardi. Deyarli har bir hovlida paxsa loydan qurilgan imorat oldida chodir o'rnatilgan bo'lib, mulkdor xo'jalikniki esa bejirimligi, xilma-xil bezalishi bilan ajralib turardi. Chorvador turkman turmush tarzining uzoq o'tmish yodgorligidan nishona misoli saqlanayotgan chodir o'tovdan o'troq shahar hayotiga ko'nikkan aholining na qashshoq va na mulkdor toifasi hali-beri uzoqlashmasa kerak?!¹.

Nihoyat shaharning tor ko'chalari-yu, o'nqir-cho'nqir yo'llarini kesib o'tgan yo'lovchilar Matmurod devonbegining hovlisiga kirib keldilar. Ular Xivada General Razgonov yo'llanmasiga ko'ra avval Matmurod devonbegi bilan uchrashishi lozim edi. Mehmonlar uchun devonbegining hovlisida alohida xona ajratilgandi. Dmitriyev-Kavkazskiyning eslashicha, "otdan zo'rg'a tusha oldim,xolos. O'zimni mutlaqo boshqara olmaydigan ahvolda edim. Ichkari xonaga kirishim bilanoq, to'shalgan gilamlarga cho'zilgancha yostiqqa bosh qo'ydim. Sal-pal uxlab, o'zimga keldim".

Peterburglik mehmon o'ziga ajratilgan xona va uning ahvoliga ko'z tashlarkan, yevropalik zodagonlar nazaricha "mehmonxonada hech qanday mebel ko'rinmas; faqatgina to'shalgan gilamlaru, yostiqlar hamda o't yoqilib turgan o'choqdan boshqa biron narsa yo'q" edi.

Nihoyat, kechki soat 9 larda devonbegi kirib keldi. U ancha yoshlarga borib qolgan, lekin xushbichim, rus tilida gaplasha olardi. Biz bilan biroz suhbatlashgach, o'z oshpazlaridan birini chaqirib, mehmon ixtiyorida bo'lib, xizmat qilishini tayinladi. So'ngra meni o'z xonasiga taklif qildi.

"Devonbegi xonasi nazarimda yevropacha uslubga moslashgan holda ustar va kursilar, mittigina oshxona soati, oyna va chiroq qo'yilgandi. Bu ikkala xona ham lampa shisha bilan yoritilardi. Ayni damda xo'jayin uyga yana bir mehmonni chaqirtirdi. U kishi badavlat savdogar bo'lib, semiz bo'lsa ham jussasi kelishgan, yoqimtoy edi. Kechqurunga ziyofat uyushtirildi. "Kichkina xonada divanda oyoqlarimizni uzatib o'tirar ekanmiz, tamaki solingan chilimni dastyor bola har birimizga 5-10 minut sayin chektirib turdi. Lekin hamma uchun og'izga tortiladigan munshtuk bitta ekanligi g'ashimni keltirdi", - deb yozgandi sayyoh. Qo'shni xonada uch nafar sozanda tomosha ko'rsatishga shay turardi. Ashulachi hofiz kuchli va yoqimli ovoz bilan, ko'zlarini yumgancha g'amli ohangda

¹ Л.Е. Дмитриев. Кавказский. Ўша асар, 72-бет.

kuylardi. Xonanda qo'shig'ini tugatib-tugatmas, devonbegi janoblari nihoyatda faxr ila quvonch bilan ashulachi san'atini maqtay ketdi.

Mezbon fikrini qo'llab-quvvatlarkanman, his-hayajonimni yashirmadim. Men ham maqtovg'a qo'shildim, uning san'atidan zavqlanarkanman, haqiqatan ham uning ovozi, kuyi qalbimni to'lqinlantirgandi. Shu bois men ham yoqimli ovozi uchun xonandani maqtadim.

His-hayajondan rag'bat oldi shekilli, devonbegi janoblari haqiqatan ham Xivada mashhur bastakor, mening kotibim", - deya bizni tanishtirdi. Ziyofatda bazm, tomosha avjiga chiqdi. Torli asboblardan kuylar chertildi.

O'yin ohangidagi raqsga 13-14 yasharlik 3 nafar o'g'il bola o'ynadi. Raqschilar harakati sekin boshlanib, ularning qo'l, oyoqlari va gavda harakati tezlashib bordi. Barmoqlar harakati gavda harakatlarini to'ldirganday edi. Dastlab oyoqlar, so'ngra qo'llar tez-tez harakatlanardi. O'yin oxirlab qolganda bolalar harakati ko'z ilg'amas darajada tezlashdi. Ziyofat oxirida o'rtaq baland bo'yli, semiz, katta yoshlardagi masxaraboz chiqdi. Uning chiqishida kulgili hajviy harakatlar ifodalandi. Mehmonga san'atkorning ichakuzdi hajvlari yoqib tushdi. Shu boisdan ham mehmon qo'shiqchiga qobiliyatini sinash maqsadida bo'lsa kerak, "Rus askari qanday qo'shiqlar aytadi?", deya savol qo'ydi. Javobni eshitgach, mehmon hayratda qoldi. "Nutqida uch-to'rt ruscha so'zni ishlatarkan, go'yo butun qo'shiqni his qilganday askar xarakterini ifodalay olgandi. Kuzatuvchi nazarida ikki nafar askarning ruscha so'kinishi san'atkorona tasvirlangandi"¹. Ziyofat so'nglab qolganda Matmurod devonbegi meni ogohlantirarkan, "ertaga saroyga birga boramiz, bugun dam oling", deya chiqib ketdi. Ertasi kun peshindan oqqach devonbegi mehmonni saroyga olib ketdi. Peterburglik mehmon Xivadagi ilk taassurotlarini eslarkan: "otlarga o'tirib poytaxtning tor ko'chalaridan yurib saroy tomon borarkanmiz, ko'chada har bir uchragan kishi hurmat-e'tibor bilan Matmurod devonbegiga ta'zim qilishi go'yo davlat arbobiga o'z ichki hissiyotini ifoda qilganday" edi. Nihoyat, yo'lovchilar saroyga kelib qolishdi. Mehmon nazarida "hukmdorning saroyi Xivadagi boshqa imoratlardan deyarli farq qilmasdi". O'tliqlar yo'lda uchragan birinchi hovlini kechiboq, manzilga yetib kelishdi.

¹ Лев Евграфович Дмитриев. Кавказский. Ўша асар. 72-бет

Bular kirib kelgan hovli oddiygina ko‘rinsa-da, ichkarisi kigiz bilan to‘shalgandi. Lekin bu “oddiygina bino”da hukmdor qabulini kutib o‘tirgan, qimmatbaho zar to‘nlardagi qora qirpiq telpakli qiyofalar saroy mulozimlari edi. Saltanat muhitida o‘zini yot his qilgan rassom yangi sarpoda emasligiga achingandi. Shu alfozda oraga ochiqlik kiritish zarurga o‘xshaydi.



Balki rassom, poytaxtdan janubga, yozi issiq, sovug‘i qattiq Turkiston safariga o‘tlanarkan, qadimiy Xivada hatto mamlakat hukmdori saroyida bo‘lishini gumon ham qilmagandir. Shuning uchun ham sayyoh nafaqat safarda, hatto Xiva hukmdori Sayid Muhammad Rahim II Feruzxon bilan uchrashuvdagi audensiyada ham odatdagi kundalik kiyimlarida qolishga majbur edi. Shuni ta’kidlash zarurki, xon qabulida kutuvchilar safida navbatda o‘tirgan xorijiy mehmonga yetarlicha qiziqish va e’tibor ko‘rsatilgandi.

Hukmdor qabulidagi manzara sayyoh uchun qiziqarli kechdi. Qabulxonada kutuvchilarning har biriga chilim chektirishdi. Sayyoh ba’zi amaldorlarning qilmishlarini o‘zicha “ajoyib odat, amaldorlar uchun oliy darajadagi “aristokratizm” deya baholagandi. Jumladan, katta amaldorlardan birisiga xizmatkor bisyor chilimni taklif qilib, qo‘liga tutqazganida u kishi o‘zi chekmasdan faqat og‘zini ochib qarab turdi. Shu payt bisyor chilimni o‘zi so‘rib, tutunini amaldor og‘ziga yubordi”. Bunday odatiy hol deyarli har 3-4 daqiqada takrorlandi. Rassom o‘zicha bu holatni baholarkan, ana bunisi mahalliy “aristokratizm”, “barin ishi” deb qo‘ya qolgandi.

Peterburglik mehmonni qabulxonada ko‘p kuttirishmadi. Saroy mulozimi tezda uni ichkariga taklif qildi. Qabul audensiyasi quyidagicha o‘tgandi: “Bizni xon hazratlari huzuriga kiritishdi. Saltanat hukmdori katta ayvonda qirmizi gilamda o‘tirgandi. Qabulxona eni va uzunasiga katta hajmda bo‘lmasa-da, ta’mirtalbligi yaqqol ko‘rinib turardi”.

“Devor va tepasi (patik) qachonlardir zangori rang berilganligi bois, o‘chgan ko‘rinadi. Devorlarning ham u yer, bu yerida devor parchalari ko‘chgandi. Men ham xon hazratlari oldiga devonbegi va tarjimon hamrohligida

kirdim. Hukmdor huzurida devonbegi va tarjimon bukilib ta'zim qilib salomlashishdi va tikka turishdi. Men esa, hukmdorning tabassum ila qo'lini uzatib taklif harakati bilan unga yaqinlashgach, gilamda o'tirishga taklif qildi. Darhol jovonimdagi Razgonovning ishonch xatini janobi oliylariga tutqazdim. Xon hazratlari xatni o'qib bo'lgach, qanday qilib, qaysi yo'llar bilan Peterburgdan kelganimni surishtirdi.

Ayniqsa, Zakaspiy temir yo'li janobi oliylarini qiziqtirgandi. Turli xil savollar qo'yib, Xivadan Peterburgga borish yo'llarini bilishga urindi. Suhbat chog'ida Zakaspiy va Kavkaz orqali Peterburgga borish istagini bildirarkan, Xiva shahrini ko'rib tanishishimga ijozat qildilar. Uchrashuvni yakunlar ekanmiz, Xon hazratlari orqaga qaytishimdan oldin yana bir bor huzuriga kirishimni so'radi. Tabassum bilan qo'lini uzatib xayrlashgach, saroydan chiqib ketdik", deb eslaydi sayyoh. Peterburglik sayyoh musavvir sifatida hukmdor Sayid Muhammad Rahimxon qiyofasiga qilgan chizg'ilarida "Xon ko'rinishidan xushsurat ko'rinmasa-da, dono va xafaqon jiddiy ifodasi qop-qora soqol bilan o'ralgan chehrasiga mos tushardi. O'zaro suhbat chog'ida yuzi biroz jonlanarkan, yanada yoqimtoy ko'rinardi. Zero, hukmdor yonida bir tomonda bog'lama qog'ozlar va siyohdon bo'lsa, boshqa tomonda general Kaufman sovg'asi kumush va tillo rang berilgan Kavkaz xanjari turgandi. Xon hazratlari Turkiston gubernatori sovg'asini har doim o'zi bilan birga olib yurgan. Nihoyat shunday tarzda Xiva xoni bilan peterburglik rassom o'rtasidagi audensiyaga yakun yasaldi. "Xon qabulidan qaytib chiqarkanmiz, - deb yozadi sayyoh, - qabulxona ro'parasidagi hovlini aylanib o'tgach, saroy devori oldida kattagina, lekin g'ishtdan qurilib, somon loy bilan shuvoqlangan pastakkina ayvonga ko'zi tushdi. Bu joyda xon haftaning ma'lum kunlari aholini qabul qilib, talab iltimoslarigacha tinglab, shu kuni el-yurtning oddiy cho'poni uchun ham marhamat ko'rsatib, saxovat bajo qilgan". "Hovliga kirayotgan paytda, - deb eslaydi sayyoh, "qo'llarida mevalar-u noz ne'matlarga to'ldirilgan savat-u mis laganlarda, shirinliklar, patir, kulcha non va yog'li qatlama ko'targan oddiy kishilarni uchratdim". Devonbegi so'zlariga qaraganda bu kishilar xon hazratlariga turli sovg'alar keltirishgan". "Ertasi kuni oldimga janob Baranovskiy kirib keldi. U Xivada yashaydigan yagona rus millatiga mansub kishi bo'lib, deyarli barchaga tanilib qolgandi. Xiva rus maktabi o'qituvchisi 55 yoshlik, kiyinishi va tashqi ko'rinishidan oddiy xivalikka o'xshash, mahalliy tilni ancha o'zlashtirgan. Oldin u kishi harbiyda shtab kotibi lavozimida xizmat qilgan. "Baranovskiy men bilan suhbat chog'i o'zi dars

beradigan maktabni borib ko‘rishni taklif qildi. Biz unga ergashib, 2-3 ko‘chani o‘tgach, yo‘lda Xiva haqida biroz qiziqarli suhbatlarini eshitib manzilga yetib keldik”.

Qarshimizdagi o‘mrab, deyarli zo‘rg‘a turgan eski, noturar imorat rus-xiva tuzem maktabi edi. Maktab Xivada davlat arbobi Pahlavon Mirzaboshi Komil Xorazmiy tashabbusi bilan 1884-yilda tashkil qilindi.¹ Dastlab maktabga Petro-Aleksandrovskdagi rus-tuzem maktabidan o‘qituvchi N.S. Sazontov dars berishga taklif qilingan. “Biz sinf xonasi eshigini ochishimiz bilanoq, deyarli bo‘m-bo‘sh devorda osig‘liq jo‘g‘rofik xarita, bir necha kitoblar xonaning yagona inventari edi. Sinf xonasida o‘qituvchi uchun yasatilgan oddiy ustarda siyohdon va ikki juft o‘tirg‘ich kursi maktabni eslatuvchi asboblari edi. Qo‘shni xonada ko‘rpa-to‘shaklar uyumiga ko‘zimiz tushdi. Bu yer yotoqxona edi. Maktabda 11 nafar o‘quvchi bo‘lib, ular 11-13 yoshlardagi bolalar edi. Biz ko‘rganda ular bilan musulmon o‘qituvchi shug‘ullanayotgandi. Men bu o‘quvchi bolalarga yaqinlasharkanman, go‘yo ko‘rsatma berganday birvarakayiga hammasi o‘rnidan turib ta‘zim qilib, yoppasiga xor tarzida salomlashishdi. Men mulla o‘qituvchini bolalar o‘zlarini erkin tutishlariga undadim. Ular shu zahoti bizni o‘rab olishdi. Ko‘zlari bizga erkin holatda boqardi. Ularni sinfga kirishga undagach, bilimlarini aniqlash maqsadida qo‘ygan savollarimga erkin holatda aniq javoblar berishdi. Bolalarning hech biri rus tilini bilmasa ham, kitobni yaxshi o‘qir, ba‘zilari ruscha yoza bilardi. Hatto to‘rt amalni bajarib, arifmetik vazifalarni yecha olardi. To‘g‘risi, bu o‘quvchilar menda iliq taassurot qoldirgandi”.

Xivada rus-tuzem maktabi endigina bir yil faoliyat ko‘rsatishiga qaramasdan, hayratlanarli darajadagi muvaffaqiyatlarga erishgandi. Bu o‘quvchilar Xiva xoni hukmi bilan maktabga tortilgan. Lekin yetim bachalar edi. Sinfdan chiqar ekanman, bolalarning quvnoq, shodon guruhi o‘ramida qolib ketdim. Ularning har biri menga o‘zini yaqin tutishni istarkan, hatto qo‘llari bilan kiyimlarimga teginardi”. Shirinliklar olib berish uchun o‘qituvchisiga pul berganimda, sahovatim tufayli bolalarning shodligi meni tasavvur qilolmaydigan holatga tushirdi. Maktabdan chiqishim bilanoq, xon xazratlari huzuriga yo‘l oldim. U kishi mening maktab haqidagi taassurotlarim bilan qiziqdi. Xivadagi bu kichik madaniy-ma‘rifiy dargohning kelajakdagi ahamiyati yuzasidan fikr bildirarkanman, u zot minnatdorchilik bildirdi. Maktabni yana ham ixlosmand bolalar bilan to‘ldirish zarurligini aytganimda o‘z amaldorlarining farzandlarini

¹ Беялов Г.М. Хоразмда халқ маорифи тараққийси . Тошкент 1966 , 9 бет.

tortmoqchi ekanligini aytdi. Maktabni kuzatishim saroy ahli uchun kutilmagan quvonchli yangilik sifatida qabul qilindi. Chunonchi, ertasi kuni bolalar xon ko'rsatmasi bilan 3 kun dars mashg'ulotlaridan ozod qilinib, har bir talaba va muallimlar xon hazratlaridan tuhfa sifatida bittadan to'n va po'stin olishdi. Darhaqiqat, shu kuni kechqurun Matmurod devonbegining o'g'li bizni mehmonga chaqirdi. Mehmonxona atalmish chodirga kirarkanman u yerda besh kishi o'tirgandi. Chodirning ichi to'laligicha gilam bilan to'shalgan. Ustar ustida rus samovari shig'illab qiziyotgan, atrofda shinni solingan banka qutilari xamda rus pazandachilik idishlari betartib holatda yotardi. Kuzatarkanman, mehmonlar 20-22 yoshlardagi yigitlar edi. Ziyofatdoshlar suhbatini qizidi. Savol-javoblar, o'yinqiroq va qiziqarli hikoyalar davraga xushchaqchaqlik baxsh etardi. Ayni paytda xonaga bizni o'z san'ati bilan hayratlantirgan xushovoz qo'shiqchi Matmurod devonbegining "kotibi" kirib keldi. U kishi ziyofat chog'ida mendan Rossiya lo'lilari mumtoz qo'shiqlarining mashxur ashulachisi Vera Zorina haqida so'rab, meni tinch qo'ymasdan ko'prok narsa bilishni istardi.

Suhbatdoshim fikrlaridan angladimki, Vera Zorinaning ixlosmandi sifatida san'atidan hayratda ekanligi sezilardi. U Moskva va Peterburgda 1883 yil 15 may kuni podsho Aleksandr III ning toj kiyish marosimlarida Xiva xonligi vakillari sifatida ishtirok qilgan. Rus operasi lo'li romanslari mohir ijrochisi Vera Vasilevna Zorina xaqiqatdan ham operada lo'lilar yo'nalishi asoschisi hisoblanardi. Xatto XIX asr oxirida rus san'atida tanqidchilar V. Zorina ijodini Vena operasidan ham yuqori baholashgan. Shu bois san'atkor "rus opera teatri yulduzi"¹ deb qaralgan.

Bayram tantanalarida imperator Aleksandr III janobi oliylariga Xiva xonining aziz sovg'asi sifatida hadya qilingan egar jabduqlar va suvligi tillo va qimmat baho toshlardan yasab bezatilgan to'rt nafar axial taka otlari saroy ay'yonlarining e'tiboriga ko'z-ko'z qilingandi. Shuningdek imperator janobi oliylariga sovg'a sifatida silovsin terisidan tikilib qimmat baxo toshlar qadalgan Xiva hukmdorlarining bosh kiyimi, qini tillodan ishlangan shamshir va qimmat baho ikkita xanjar, qurollar sovg'a qilindi². Darhaqiqat, Peterburglik mehmon sharafiga uyushtirilgan ziyofat qiziqarli va quvnoq o'tgandi. Bu haqda sayyoh "ertasi kuni Xivaga sayohatim yakunlanishi sababli orqaga qaytish uchun yo'l

¹ Уварова Е.Д. "Городская развлекательная культура России XVIII- XIX веков " СПб 2000 с.19

² "Нива" 1883 № 22 с.530

tayyorgarligimni ko'rgach, qaytadan saroyga kirib xon xazratlari bilan xayrlashdim", - deb yozgandi. Xiva taassurotlarini xayolida jamlar ekan, Lev Yevgrafovich o'zi ko'rgan kechirganlarini yanada oydinlashtirish, ravshanroq qilishga intildi. "Xiva qal'asidagi me'moriy obidalar asl holatini yo'qotgan, vayrona ko'rinishda bo'lib, ta'mir talab holda qolarkan, ular sotuv do'konchalariga aylantirilganligi oqibatida, imoratlar achinarli holatdadir". Mehmon Matmurod devonbegi bilan xayrlashib Amudaryo tomon, Petro-Aleksandrovsq qo'rg'oni sari yo'l oldi. Zangori osmon tip-tiniq, kun osoyishta, ob-havo esa, sovuq edi. Kun peshindan oqqach, Xivadan yo'lga chiqqan bu ikki nafar yo'lovchi kechqurunga kelib, qorong'uni qoralabgina Xiva va Honqa oraligidagi Go'ja qishlog'iga kirib kelishdi. Yo'lovchilar kechani shu qishloqda tunashdi. Izg'irin sovuq, yo'lda ularning yuz-betlarini xuddi muzdek yalagandi. Go'ja qishlog'idagi taassurotlarini sayyoh "Biz kambag'al bir xo'jalikda joylashdik, mehmonlar uchun alohida xona ajratishdi. Lekin, bu uyda bizga yeydigan hech nima topilmadi. Uy egasiga pul tutqazib yeydigan u-bu narsa topib kelishni iltimos qilgandim, birozdan so'ng go'sht, tuxum, qand va choy olib kelishdi. Xonaga o't yoqib qizindik. Ovqatlangach oldimizga mezbonning qo'shnilari bizni ko'rish uchun kela boshladilar. Mezbonlik qilgan go'jaliklar bilan tarjimon orqali suhbatlashdik. Kechada Xorazmcha gurung qizidi. Oddiy xivaliklar xushchaqchaq kishilar ekan. Bunda ko'k choyni qandsiz ichilishi odatiy holga o'xshab ko'rindi. Kirib kelgan olti kishining har biri kissasidan tamaki chiqarib, birin-ketin chekishdi. Kechki soat 10 larga qarab, kelgan go'jaliklar biz bilan xayrlashib chiqib ketishdi. Lekin tungi uyqum xotirjam, osoyishta kechmadi. Xonadagi turli hasharotlar goh u yerimni, goh bu yerimni chaqib uyqu bermasdi. Buning ustiga kechasi xona ancha sovidi. Shul bois tonggi soat 5 larda uyg'ondik. Ertalab nonushtani qiliboq yo'lga otlandik. Uy egasining sahovati va mehmon do'stligi bizni hayratlantirgandi. Qadrdon kishisini kuzatganday biz bilan xayrlashdi.

Honqaga qal'asiga kirib kelarkanmiz, bek bilan xayrlashish uchun qisqa muddatga to'xtadik. Aminboy hojini ovga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda uchratdik. U ov kiyimi kiyib olgan, yelkasida miltiq ushlagan holatda edi. Shu tarzda bek bilan xayrlashdik.

Yo'lovchilar Amudaryo bo'yiga kelib, hayratda qoldilar. Chunki ular o'ylagan holat emasdi, daryo muzlab qolgandi. Narigi sohilga o'tkazuvchi qayiqlar esa, muz tufayli harakatsiz yotardi.

Sohil bo‘ylab deyarli yana 30 verst tepaga yuridik. Nihoyat daryoning narigi sohiliga chiqish uchun qulay joy topildi. Daryodan o‘tib olgan yo‘lovchilar uchun narigi tomondagi “Xiva safari” yakunlangandi.

Peterburglik mehmon Petro-Aleksandrovska general Razgonovning “Sharqona” mehmon xonasida joylashdi. Kechqurun o‘zaro suhbat davomida mezbon Charjo‘ydan haliyam paroxod haqida xabar yo‘qligini ma’lum qilarkan, bir necha kun kutishni maslahat qildi. O‘z esdaliklarida sayyoh bu haqda “ob-havo tinch, osmon tiniq” lekin sovuq tufayli yana zerikarli kunlar boshlandi.

Kutilgan 5 kun ham hademay o‘tdi. Razgonov Charjo‘yga o‘z odamlarini yuborishni aytib qoldi. Nihoyat, yo‘lovchilar 13 dekabrda Petro-Aleksandrovska Charjo‘y sari yo‘lga chiqishdi.

Karvon tarkibida 6 nafar tuya va tuyakash bilan Dmitriev Kavkazskiy Charjo‘yga eltib qo‘yish uchun shartnoma tuzdi. Karvon goh sohil bo‘ylab, goh Qoraqum uzra yo‘l bosib 23 dekabr kunigina Charjo‘yga yetib keldi. Yo‘l azobida sovuqdan goh ovqatlanish, goh dam olishi gumon bo‘lgan yo‘lovchilar Charjo‘yga kirib kelarkan, bosib o‘tilgan yo‘ldagi azoblar endi xotirada qolgandi. Amudaryo ortida esa, yangi qurilayotgan temir yo‘lning Samarqandga tegishli qismida qish o‘zini har daqiqada eslatardi. Lekin shunga qaramasdan qurilish ishlari shiddat bilan bormoqda edi. Charjo‘yda bunyod qilingan uylar, turli imoratlar: shaxsiy turar joylardan tortib, to davlat idoralarigacha, mehmonxonalar, bozor va savdo-sotiq joylari, hamda o‘g‘il bolalar maktabi, hammomlar va qandolatchilik ustaxonalari barchasi: kuzatuvchi nazarida “Sharqona shahar majmuasini namoyon qilardi”.

Nihoyat, sahro-qum yo‘l azobi orqada qoldi. Tashvishli va tahlikali Xiva safarini yakunlagan sayyoh issiqqina choymi yo kofega ishtahasi yurishganini his qildi. Asrlar osha Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab qatnagan karvonlar qo‘nalg‘asi bo‘lmish bu qal’a, sharqu g‘arbni bog‘lovchi darband sifatida Jayhun uzra tashiladigan tranzit savdo mollarini o‘zida jamlarkan, enidilikda Rus mustamlakasining harbiy qo‘rg‘oni sifatida, Charjo‘y shahri yevropacha qiyofaga kirgandi”. Darxaqiqat shuni ta’kidlash zarurki, Podsho Rossiyasining Kaspiy orti viloyatini markazga bog‘lovchi temir yo‘lni 1886 yil 30 noyabriga kelib Charjo‘y shahrida, Amudaryoga bog‘lanishi Rus markaziy matbuotida haqiqiy “Rus mo‘jizasi “ deya ta’riflangan. Lekin bu Temir yo‘l magistrali Rossiyaning markazidan ajralib qolgandi. Aynan shu bo‘shliqni injener arxitektor G.

Bachinskiyning “axmoqona” deb nomlangan injenerlik g‘oyasi Jayxunning ikki qirg‘og‘ini bog‘lovchi temir yo‘l uchun “yog‘och ko‘prigi loyixasi”, misli mo‘jiza sifatida qabul qilindi. General Annenkov tasdiqlagan loyihada 1886 yil 23 avgustda daryo suv osti asoslari ta‘mirlangach, deyarli to‘rt oy ichida qurib bitkazib temir yo‘l iziga bog‘lab qo‘yildi¹.

Ayniqsa, 1888 yilning 6 yanvarida Charjo‘y va charjo‘yliklar dabdabali va qiziqarli bayram tantanalariga ilk bor guvoh bo‘lishdi. Shu kuni butparast pravoslavlarning cho‘qintirish bayrami Jayhun uzra qurilgan temir yo‘l ko‘prigining ochilish marosimiga to‘g‘ri keldi. Xiva safari xotiralarini yangi sarguzashtlar bilan boyitar ekan: Sayyoh Charjo‘yda ko‘rgan kechirganlarini “Pravoslavlarining cho‘qintirish odati bayram sifatida butun Rusda nishonlanadi. Bugun musulmon Chorjo‘yi ham o‘zining yevropacha qiyofasi uzra qo‘shaloq tadbirlarni namoyon qilyapti. Jayhunning so‘l qirg‘og‘i uzra kemada supa yasatilib unga gumbazsimon shaklda Georgiy ordeni lentasida xoch tasviriga qalqon yopishtirildi. Aynan shu supada daryoga cho‘milib suvdan chiqqanlar cho‘qintirildi. Shu tarzda Charjo‘y bayram tadbirlariga guvohlik qildi.



Bayram tantanalarida ikkita harbiy batalon askarlari hamda Charjo‘y beki ishtirok qildi. Cho‘qintirish bayrami daryo ko‘prigi ochilishiga bog‘lanib ketdi. Ko‘prikdan ilk bor o‘tgan poezd davlat bayroqlari bilan bezatilgan edi. Ilk bor yo‘lovchilar safida general M.A. Annenkov, harbiy quruvchi injener kapitan G. Balinskiylar ishtirok qildi. Ko‘prik uzra ilk bor yurgan poezd va uning yo‘lovchilari hamda tomoshabinlarda, kutilmagan yangilik va imtihon sifatida quvonchli hissiyot uyg‘otdi. Qo‘shaloq bu shodiyona tufayli general Annenkov nonushta ziyofati uyushtirdi.

¹ Марков Е.А. “Мост через Амударью”, “Нива” 1900 № 48

Nihoyat, 1888 yil 17 yanvaridan boshlab poezd lokomotivlari Charjo'y ko'prigi orqali Buxoro-Samarqand temir yo'li qurilishi uchun markazdan Zakaspiy temir yo'li orqali relslar, shag'alto'sh, yog'och, taxta va boshqa zarur anjomlar bilan ta'minlab turdi. Xotima sifatida shuni ta'kidlash zarurki, Peterburglik akademik rassom, gravyurist, Lev Yevgrafovich Dmitriev Kavkazskiy o'ziga suhbatdosh bo'lgan Xiva hukmdori Sayid Muhammad Rahim Bahodirxon II ni chuqur hayolga cho'mgan, jiddiy qiyofada, mamlakat osoyishtaligi posboni sifatida, amaldor Matmurod devonbegini esa, Xiva feodal monarxiyasi mexanizmidagi oshiqcha vint misli, ko'rinishidan pismiqlik, ichki olami mavhum qiyofasiga badiiy chizg'ilar qilgandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Л.Е. Дмитриев Кавказский. По Средней Азии. Записки художника СПб 1894 с.57
2. А. Кун Туркестанские ведомости №32 1873
3. Л.Е. Дмитриев Кавказский Ўша асар 72 бет
4. Лев Евграфович Дмитриев Кавказский . Ўша асар 72 бет
5. Беялов Г.М. Хоразмда халқ маорифи тараққийси . Тошкент 1966 , 9 бет
6. Уварова Е.Д. “Городская развлекательная культура России XVIII- XIX веков “ СПб 2000 с.19
7. “Нива” 1883 № 22 с.530
8. Марков Е.А. “ Мост через Амударью” , “Нива” 1900 № 48

TARIX**TURKISTONDAGI EPIDEMIYALARGA QARSHI
KURASH TARIXIDAN****UO‘K 514.8**

**Muhammadjon
ALIXOJIEV,**
Andijon davlat
universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksey Dmitriyevich Grekovning hayoti va ilmiy faoliyati tahlil etilgan. Uning yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda amalga oshirgan innovatsion tadqiqotlari, shuningdek, ilmiy muassasalarni tashkil etishdagi tashabbuskorligi yoritilgan. Maqola A.D.Grekovning shaxsiy va kasbiy hayotini, uning jamoat sog‘lig‘ini yaxshilashdagi faoliyatini hamda bugungi kundagi ilmiy merosining ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются жизнь и научная деятельность Алексея Дмитриевича Грекова. Освещены его инновационные исследования в борьбе с инфекционными заболеваниями, а также инициативы по созданию научных учреждений.

Статья посвящена изучению личной и профессиональной жизни А.Д.Грекова, его деятельности по улучшению общественного здравоохранения и значению его научного наследия в современном мире.

Annotation: In this article analyzed the life and scientific activity of Aleksey Dmitriyevich Grekov. His innovative research in the fight against infectious diseases, as well as his initiative in the establishment of scientific institutions were highlighted.

The article aims to analyze A.D.Grekov's personal and professional life, his work in public health improvement and the importance of his scientific legacy nowadays.

Kalit so‘zlar: yuqumli kasalliklar, vabo, bezgak, o‘lat, profilaktika, harbiy-sanitariya, bakteriologiya, gosptal, tibbiy kadrlar, feldsher.

Ключевые слова: инфекционные заболевания, холера, малярия, чума, профилактика, военная-санитария, бактериология, госпитал, медицинские кадры, фельдшер.

Key words: infectious diseases, cholera, malaria, pestilence, prevention, military sanitary, bacteriology, hospital, medical personnel, paramedic.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshida Turkiston mintaqasi jadal ijtimoiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar davrida ko'plab qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz keldi. Bu davrda vabo, bezgak, o'lat, chechak,

ichburug‘ va boshqa ko‘plab epidemiyalar mintaqada keng tarqalib, aholi salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirdi. Bu ofatlarni bartaraf etishda sanitariya va epidemiologiya sohasida faoliyat yuritgan shifokor olimlarning hissasi beqiyos bo‘ldi. Ular epidemiyalarga qarshi kurashda ilmiy asoslangan usullarni ishlab chiqish bilan birga inson salomatligi uchun muhim bo‘lgan profilaktik tadbirlarni joriy etishdan tortib, mintaqada sanitariya sharoitini yaxshilashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ham amalga oshirdilar. Bu borada professor Aleksey Dmitriyevich Grekovning faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. U mintaqaviy bakteriologiya asoschilaridan biri sifatida turli infeksiyalarga qarshi samarali tadqiqotlar o‘tkazib, bakteriologiya instituti faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil qildi va boshqardi.

A.D. Grekov Rostov viloyatining Novocherkassk shahrida 1873-yilda tug‘ilgan. U Harbiy-tibbiyot akademiyasini a‘lo baholar bilan tamomlab, o‘z ish faoliyatini 1898-yilda Turkistonning Kaspiyorti viloyatidagi Marv uezdida kichik harbiy hospitalda yosh shifokor sifatida boshlaydi. Shu davrda (1893-1902- yillar) mintaqada malyariya epidemiyasi bilan kurashayotgan edi. Kasallikni tashxislash va uning kechishini o‘rganish maqsadida A.D. Grekov hospital huzurida kichik laboratoriya tashkil qildi. Mikrobiologik tadqiqotlar borasidagi uning ilmiy faoliyati aynan shu laboratoriyadan boshlandi[1].

1899-yilda Grekov Buxoroning sanitariya holatini va yuqumli kasalliklarning tarqalish sabablarini bevosita o‘rganish va epidemiyalarning oldini olish maqsadida shaharga tashrif buyurdi. Grekov Buxoro sanitariyasining qoniqarsiz holatining asosiy sabablaridan biri — shahar ichidagi qabristonlardir deb ko‘rsatadi va shunday deb yozadi: 1899-yilda shaharga tashrif buyurgan o‘latga qarshi ekspeditsiya vrachi Grekov shunday yozgan edi: “Qabriston maydoni ko‘pincha shaharning o‘z maydonidan katta bo‘ladi va qabristonlardagi qabrlar nihoyatda zich joylashgan”. Shaharda havo o‘lik tanalar hididan shunchalik to‘lib ketardi-ki, ba’zida nafas olish qiyinlashardi. Kasallik tufayli o‘lib qolganlarning soni ortishi bilan vaziyat yanada og‘irlashdi[2].

Buxoroning sanitariya holatini ko‘zdan kechirishda A.D. Grekovning roli katta bo‘lgan. Ichki qabristonlarni yopib, shahardan tashqarida yangi qabristonlar ochishni so‘rashganida, ruhoniylar rahbari – qozikalon shunday javob bergan edi: “Shahardagi ko‘plab qabristonlar alohida shaxslarning mulkidir, ularning otalari va bobolari shu yerda dafn etilgan, shuning uchun ularning o‘liklarini bu yerda ko‘mishga ruxsat berishni ta’qiqlash mumkin emas[3]”.

Aleksey Dmitrievich Grekov o'zining tibbiyot sohasidagi faoliyatini yuqori darajada rivojlantirish maqsadida bir necha yil Marvda shifokor sifatida faoliyat ko'rsatgandan so'ng, malakasini oshirish uchun Sankt-Peterburgga boradi hamda u Rossiyaning eng nufuzli tibbiyot maktablaridan biri – Harbiy-tibbiyot akademiyasida o'qish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu davr uning ilmiy va amaliy tajribasini yanada boyitgan muhim bosqichlardan biri bo'lgan.

Grekov Sirotininning terapiya klinikasida ishlab, ichki kasalliklarning tashxisi va davolashi bo'yicha nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirdi hamda klinik amaliyotda ko'plab qimmatli tajribalar orttirdi. U shu davrda ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini namoyon qilib, o'zining birinchi yirik ilmiy tadqiqotini amalga oshirdi. Buning natijasida 1907-yilda A.D. Grekov o'zining doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu uning ilmiy faoliyatidagi muhim qadam bo'lib, uni yuqori malakali mutaxassis sifatida tanitdi. Himoya ishidan so'ng Grekov yana Turkistonga qaytishga qaror qildi.

U Pishpek harbiy hospitalida ish boshladi va u yerda bakteriologik laboratoriya tashkil qildi. 1911-yilda u Toshkentga xizmatga ko'chirildi va Toshkent harbiy hospitalining katta ordinatori bo'ldi[4]. Olim bu yerda ham yuqumli va parazitar kasalliklarni o'rganish bo'yicha izlanishlarni davom ettirdi.

A.D. Grekov XX asrning boshida vabo (xolera) epidemiyasiga qarshi kurashda jahon miqyosida e'tibor qozongan tibbiyot mutaxassislaridan biri bo'lib, uning Erondagi 1912-yildagi faoliyati uning epidemiologiya sohasidagi yetukligini namoyon qilgan. Uning vabo epidemiyasini jilovlashdagi sa'y-harakatlari nafaqat Eronda, balki keyinchalik Rossiyada va boshqa davlatlarda epidemiyaga qarshi tadbirlarni samarali tashkil etishda asos bo'lgan. Grekov bir necha bor Rossiya va uning tashqarisida vaboga qarshi ekspeditsiyalarga muvaffaqiyatli rahbarlik qildi.

1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan Toshkentdagi hospitalga avstriyalik va chexiyalik asirlar kela boshladi. Tez orada Toshkentda harbiy epidemiologik hospital tashkil etildi, unda harbiy asir shifokorlar ishladilar, Aleksey Dmitrievich Grekov esa ushbu hospitalning bosh shifokori etib tayinlandi[1].

1917-yil 15-iyun kuni Toshkent shahar dumasining katta zalida Turkiston harbiy-sanitariya xodimlarining birinchi mintaqaviy qurultoyi ochildi. Uning ishida 116 nafar delegat, jumladan, 32 nafar shifokor, 10 nafar farmasevt, 49 nafar feldsher, 5 nafar mehribonlik opalari, shuningdek, turli idoralarning bir nechta

amaldorlari va xodimlari ishtirok etdi[5.**S.196.**]. Tashkiliy byuro raisi, doktor N.F. Barankin qurultoyni ochar ekan, hozirgi holatni tavsiflab, ustuvor vazifalar sifatida quyidagilarni sanab o‘tdi: harbiy-sanitariya idorasida kollegial boshqaruv yoki o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini yaratish; sanitariya ishini ham qo‘shin qismlarida, ham davolash muassasalarida tubdan qayta tashkil etish; barcha harbiy-sanitariya xodimlarining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash[6]. Mintaqada tibbiy ishlarni tashkil etish uchun qurultoy harbiy-sanitariya boshqarmasining yangi tarkibini sayladi. Hududiy harbiy-sanitariya inspektori lavozimiga shifokor M.P. Tixomirov tayinlanib, uning o‘rinbosari esa shifokor A.D. Grekov bo‘ldi. Boshqarma a‘zolari quyidagilardan iborat edi: shifokorlar A.V. Trapeznikov, N.F. Barankin, I. Minkevich, Zimin, A.P. Spiridonov, sanitar Ustimenko, farmasevt V.P. Karpov, feldsherlar Vodolazko va Kuryansev. A‘zolikka nomzod sifatida shifokorlar A.P. Berezskiy, Ionov, Shneyder, Bronshteyn va A.F. Kaplan tanlandi[5. **S.197.**].

1918-yilning 17-sentabrida Toshkent harbiy hospitalining kimyoviy laboratoriyasi va Pasterov stansiyasi asosida yangi ilmiy muassasa — Bakteriologiya instituti tashkil etildi. Bu institut o‘sha vaqtdagi mintaqa sog‘liqni saqlash tizimi va ilmiy taraqqiyoti uchun muhim qadam edi. Institutning tashkil etilishi epidemiyalarga qarshi kurash, jamoat sog‘lig‘ini yaxshilash va mikrobiologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. Institut direktorligiga Aleksandr Dmitrievich Grekov tayinlandi[7]. Bakteriologiya institutida o‘sha davr uchun zamonaviy hisoblangan laboratoriya uskunalari o‘rnatildi va mikrobiologiya hamda immunologiya bo‘yicha tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. A.D. Grekov rahbarligida institut nafaqat ilmiy tadqiqot markazi, balki yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan o‘quv maskani sifatida ham faoliyat yuritdi. Bakteriologiya institutining tashkil etilishi va uning ilmiy faoliyati keyingi yillarda mintaqa tibbiyotining rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu muassasa orqali jamoat sog‘lig‘iga oid ko‘plab yangi usul va qadamlar joriy etildi, shuningdek, bu soha mutaxassislari uchun muhim ilmiy asos yaratildi.

1918-yilda Turkiston o‘lkasida tibbiy kadrlarga bo‘lgan talab juda yuqori darajada edi. Mintaqadagi og‘ir sanitariya sharoiti yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga olib kelgan. Bunday holatda tibbiy xodimlarga, ayniqsa, hamshira va feldsherlarga bo‘lgan ehtiyoj juda katta edi. Shu sababli, 1918- yilning kuzida Turkiston hududida birinchi tibbiyot o‘quv yurti tashkil etildi. Bu o‘quv yurtining

asosiy maqsadi tezkor ravishda tibbiy kadrlarni tayyorlash orqali epidemiyalar, jumladan, malyariya, o'lat va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bo'lgan. O'quv yurtida Grekov mikrobiologiyadan, Voyno-Yasenetskiy esa anatomiyadan dars beradi[1].

Grekov mikrobiologiya fanidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, ya'ni infeksiyalarni profilaktika qilish va zararlangan hududlarda sanitariya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha o'quvchilarga ko'nikma bergan.

Grekov va Voyno-Yasenetskiyning har biri o'z sohasida yetuk mutaxassis sifatida, o'quvchilarga tibbiyotning turli jabhalarida mukammal bilim berishda hamkorlik qilgan. Ular o'quv yurtining o'quv dasturini yanada samarali qilish uchun yangi yondashuvlar va uslublarni joriy qilishda qatnashgan. Bu ikki olimning o'zaro hamkorligi o'quv yurtida tayyorlangan mutaxassislarning yuqori sifatli tayyorgarligini ta'minlagan.

1919-yil 25-iyun kuni Tashkiliy qo'mita RSFSR Maorif xalq komissariati universitetlar bo'limiga "Turkiston davlat universiteti tarkibida tibbiyot fakultetini tashkil etish zarurati haqida" deb nomlangan xatni yo'lladi[8]. Tibbiyot fakultetini tashkil etish zarurati, avvalo, mintaqaning iqlim sharoiti va yuqumli kasalliklar ko'pligi bilan asoslangan. Ikkinchidan, shifobaxsh o'simlik vositalari mavjudligi bilan bog'liq. Uchinchidan, mavjud sanatoriy hududlari (jumladan, Oq-Sikent, Arasan, Oq-Suv, Jalolobod va boshqalar) borligi bilan izohlangan[5.S.207.].

Grekov nafaqat amaliyot shifokori va yuqumli kasalliklarga qarshi kurash bo'yicha tashabbuskor, balki tibbiyot ilmining taraqqiyotiga xizmat qiluvchi turli ilmiy manbalarni yaratishda ham faol ishtirok etgan. Bu borada uning universitet tibbiyot fakulteti birinchi dekani P.P. Sitkovskiy bilan birgalikda "Медицинская мысль Узбекистана" jurnaliga asos solgani va birinchi mas'ul muharriri bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur jurnal mintaqada tibbiyot sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni yorituvchi asosiy platforma sifatida tashkil etilgan. Bu jurnalning maqsadi tibbiy xodimlar o'rtasida ilmiy tajriba almashinuvini rag'batlantirish, yangi tibbiy yutuq va izlanishlar haqida ma'lumot berish, shuningdek, aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ilgari surish bo'lgan.

Jurnalda turli yuqumli kasalliklar, sanitariya va gigiena kabi o'sha davr uchun dolzarb mavzular yoritib borilgan. Shuningdek, tibbiy statistika va jamoat salomatligi sohalariga ham alohida ahamiyat berilgan.

1918-yilda Toshkentdagi harbiy hospital huzuridagi Bakteriologiya laboratoriyasi Turkiston Respublikasi Sog'liqni saqlash xalq komissariati huzuridagi Mikrobiologiya laboratoriyasiga aylantirildi, uning mudiri etib A.D. Grekov tayinlandi. Keyinchalik ushbu laboratoriya negizida O'zbekiston SSR Sog'liqni saqlash xalq komissariati Sanitariya-bakteriologiya instituti tashkil etildi va uning birinchi direktori A.D. Grekov bo'ldi.

Mintaqada epidemiyalarga qarshi kurashni tashkil etish uchun mahalliy hukumat va tibbiyot xodimlari tomonidan muntazam ravishda turli yig'ilish va qurultoylar tashkil qilingan. Bu yig'inlarda kasallikning oldini olish, tashxis qilish, davolash va profilaktika tadbirlari yuzasidan keng muhokamalar o'tkazilgan. Shunday qurultoylardan biri 1922-yil oktabr oyida Toshkentda o'tkazildi. Bu Turkiston shifokorlarining o'lka patologiyasi muammolariga bag'ishlangan birinchi ilmiy qurultoy bo'lib, unda A.D. Grekov faol ishtirok etdi. Grekov bezgakka qarshi kurashishni qonun va davlat siyosati darajasiga olib chiqish uchun qator tashabbuslarni ilgari surgan. Uning sa'y-harakatlari bilan bezgakning tarqalish manbalari chivinlar bilan bog'liq muammo ekanligi aniqlandi. Grekov bu epidemiyaga qarshi kurashish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif qildi. O'zbekiston SSR hukumatining ko'magi bilan mazkur amaliy ishga minglab mehnat armiyasi ishtirokchilari jalb etildi. Ular botqoq hududlarni quritish va chivinlarning lichinkalarini yo'q qilish ishlarini amalga oshirdilar.

1924-yilda Oqqamishda o'lat (chuma) epidemiyasining tarqalishi Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini hamda sog'liqni saqlash tizimi holatini jiddiy sinovdan o'tkazadi. Oqqamish epidemiyasiga qarshi kurashda vrach epidemiologlarning favqulodda harakatlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu kurashda vrach Grekovning faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. Shuningdek, Grekov 1925-yil 10-15-noyabr kunlari esa Eski Buxoroda o'tkazilgan malyariya bo'yicha kengashda qatnashdi va bezgak kasalligiga qarshi kurashda yana bir bor o'zining yuqori malakali tibbiy va ilmiy tajribasini namoyish etdi[1]. Grekovning faoliyati faqat tibbiy yordam berish bilan cheklanmagan, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamli epidemiologik tadbirlarni ham qamrab olgan. Buxoroda bezgak kasalligining tarqalishiga qarshi kurashishda Grekovning faoliyati nafaqat tibbiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ko'rsatmalari, takliflari va amalga oshirgan ishlari Buxoroda epidemiyalarga qarshi kurashda muhim hissa qo'shdi.

1957-yil 30-iyul kuni o'z hayotini tibbiyot, mikrobiologiya va epidemiologiya sohalariga bag'ishlagan buyuk olim va tashkilotchi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan Aleksey Dmitriyevich Grekov vafot etadi.

Aleksey Dmitriyevich Grekovning hayoti va faoliyati Markaziy Osiyo tibbiyoti rivojlanishi tarixida alohida o'rin tutdi. Uning ilmiy tadqiqotlari, tashabbuskorlik faoliyati va tashkilotchilik qobiliyati yuqumli kasalliklarga qarshi kurash yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Grekov rahbarligida tashkil etilgan Bakteriologiya instituti nafaqat mintaqadagi ilmiy markazga, balki butun bir avlod shifokor va olimlarini yetishtirgan o'quv maskaniga aylandi.

Uning faoliyati nafaqat ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, balki jamoat sog'lig'ini yaxshilashda, epidemiyalarning oldini olishda va ko'plab insonlarning hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вавилова Т. Греков А.Д. – Основоположник микробиологии в Средней Азии. <https://mytashkent.uz/2012/03/29/a-d-grekov-osnovopolozhnik-mikrobiologii-v-sredney-azii/#more-30224>
2. Греков И.И. Бухара и её санитарное состояние // Врач. – Москва, 1899. – №19. – С.555.
3. O'Z MA, И-3-fond, 1-ro'uxat, 118-ish, 211-varaq orqasi.
4. O'Z MA, P. 2405-fond, 1- ro'uxat, 140-ish, 70-varaq.
5. Махмудов М. История медицины и здравоохранения Туркестана, Бухары и Хорезма (1865-1924 гг.) – Тараз: Туркістан тулғалары, 2015.
6. Труды 1-го Краевого съезда военно-санитарных чинов Туркестанского военного округа.–Ташкент: тип. Г.А.Ицкина, 1917. – С.5.
7. O'Z MA, P-40- fond, 1- ro'uxat, 332-ish, 42- varaq.
8. O'Z MA, P-368- fond, 1- ro'uxat, 1-ish, 6- varaq.

TARIX

OTAMAXZUMOXUNNING XORAZM JADIDCHILIK HARAKATI VA RESPUBLIKA RAHBARLIGI DAVRIDAGI FAOLIYATI.

UO‘K 574.30



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid namoyandasi Otamaxzumoxunning hayoti va fanda tadqiq etilmagan rahbarlik faoliyatiga oid eng yangi ma'lumotlar yoritilgan. Ayniqsa, respublikaga rahbarlik qilgan davridagi islohotlari, jamiyat, davlatchilikka qo'shgan xizmatlari arxiv manbalari asosida tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье представлены новейшие сведения о жизни и руководящей деятельности нового представителя джадидов Атамахзумохуна, которые не изучались в науке. В частности, на основе архивных источников будут изучены его реформы в период руководства республикой, его заслуги перед обществом и государственностью.

Annotation: This article presents the latest information on the life and leadership activities of the new representative of the Jadid, Atamakhzumohun, which have not been studied in science. In particular, his reforms during his leadership of the republic, his services to society and statehood are studied based on archival sources.

Kalit so'zlar: respublika, jamiyat, davlatchilik, islohot, shartnoma, huquqshunos, elchixona, tenghuquqlilik.

Ключевые слова: республика, общество, государственность, реформа, договор, юрист, посольство, равенство.

Key words: republic, society, statehood, reform, treaty, lawyer, embassy, equality.

Xorazmlik jadid namoyandalari, ularning jamiyat, davlatchilikda qilgan islohotlari haqida so'z ketarkan, xonlik davrida Islomxo'ja, Husayinbek Matmurodov, respublika davrida esa Polvonniyozhoji Yusupov, Boboosun Salimovlarning nomlari qayd etib o'tiladi. Biroq o'zining qa'tiyati, siyosiy irodasi, islohotlari bilan tarixning burilish davrida o'zgarish yasashga uringan yana bir siymo borki, uning nomi hatto tarixchilar e'tiboridan ham chetda qolib

kelmoqda. Ushbu jadid ziyolisi, huquqshunos Otamaxzumoxun Muhammadrahimovdir.



Xorazmdagi jadid faollaridan va respublikaga rahbarlik qilgan davlat arbobining Xiva shahrida tug‘ilgani va madrasa tahsilini tugatib, Qozikalon madrasasida mudarris, oxun vazifalarida faoliyat ko‘rsatganigina ma’lum. Biroq aynan qaysi sanada tug‘ilgani, qanday oilada voyaga yetgani va xonlik davridagi faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlar, afsuski, hozirgacha topilmagan. Biroq u “Yosh xivaliklar” partiyasining faollaridan bo‘lgani, Bobooxun Salimov, Polvonniyozhoji Yusupovlarning eng yaqin maslakdoshi va jadidchilik harakatidagi eng ta’sirchan, nufuzli shaxs bo‘lganligi ma’lum. Shu boisdan u 1920-yilda xonlik tugatilgandan keyingi respublika davrida adliya nozirligida mas’ul vazifada ishlagan. Dastlab Bobooxun Salimov boshchiligidagi adliya nozirligida faoliyat ko‘rsatgan.

1921-yil 23-mayda esa Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti va uning hay’ati tarkibiga adliya noziri qilib saylangan. 1921-yil 14-sentabrda XXSR MIKda “Oliy inqilob jazo mahkamasi” tashkil qilindi. Ushbu mahkamaga: Otamaxzumoxun Muhammadrahimov-(adliya noziri) rais sifatida, nozirlar kengashining raisi-

Menglixo‘ja Ibniyaminov, oliy taftish raisi-Xudoybergan Devonov, ziroat noziri-Abdullaxo‘ja Abdurahmonxo‘jaev, doxiliya noziri Hasan Ermatov, turkman sho‘ba raisi-Yangiboy Murodovlar a‘zo sifatida kirgan edilar.

“1921-yil sentabr oyida XXSR MIK majlisi chaqirilib, Xorazm Markaziy Ijroiya Komitetining raisi - Muhammadrahim Ollaberganov iste‘foga chiqadi va uning o‘rniga XXSR adliya nozirligi vazifasini bajarib kelgan Otamaxzumoxun Muhammadrahimov tayinlanadi. Otamaxzumoxun Muhammadrahimov o‘rniga adliya noziri qilib Mahmud Rahimov tayinlanadi” (1).

Bu vaqtda Markaziy ijroiya komiteti raisi amalda Xorazm respublikasining rahbari hisoblanar edi. Aynan Otamaxzumoxun davrida Xorazm respublikasining milliy manfaatlari yuzasidan g‘oyatda dolzarb ishlar qilinadi. Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSR MIKga rahbar bo‘lgach, o‘zbek harbiy ziyolilaridan yetishib chiqqan Mirkomil Mirsharopovni harbiy nozir va rus harbiylaridan bo‘lgan Mixail Voloshinning o‘rniga o‘zbek harbiylaridan bo‘lgan Hasan Ermatovni dohiliya (ichki ishlar) noziri qilib tayinladi.

“Otamaxzumoxun Muhammadrahimov maorif sohasida ham milliy lashtirish siyosatini oldinga suradi. Maorif noziri qilib qo‘yilgan tatar ziyolisi Hofiz Ziyovutdinov o‘rniga o‘zbek ziyolilaridan bo‘lgan Jumamurodoxunni maorif noziri qilib tayinlaydi” (2).

Afsuski, 1920-yildan Otamaxzumoxunning rahbarlik davrigacha ko‘pgina tarixiy va qimmatbaho buyumlari talon-toroj qilingan, o‘zlashtirilgan va markazga olib ketilgan hamda bu jarayonlar yana davom qilmoqda edi. Mirkomil Mirsharopov harbiy nozirlik vazifasiga tayinlanishi munosabati bilan 1921-yil 15-oktabrda 63-sonli buyruq chiqaradi va bu buyruq XXSR MIKning 1921-yil 18-oktabrdagi 58-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

“Ushbu buyruqda urushda qo‘lga tushgan o‘ljalar ayrim kishilarning mulki bo‘lmasligi, Xorazm hududidan chetga chiqarilib ketilmasligi, shuningdek, hozirgi vaqtda Xorazm kommunistik partiyasi a‘zolari va XXSRdagi rossiyaliklar qo‘lida bo‘lgan narsalarni tezlik bilan Xorazm askari ta‘minot sho‘basiga topshirish lozimligi, ushbu vaqtga qadar ayrim shaxslar tarafidan urush bahonasi bilan olib ketilgan narsalarni qaytarib berishning qat‘iy choralarini ko‘rish, shuningdek 2-o‘qchi brigadasi shtabi ham, uning ta‘minot sho‘basi tarafidan 1920-yilda va 1921-yilning boshlarida olib ketilgan narsalarni o‘z o‘rniga qaytarishi belgilandi. Shuningdek, Xorazmdan olib ketilib, Buxoroda sotilgan brilliantlarni o‘z joyiga qaytarish vazifasi ham kun tartibiga qo‘yiladi. Shuning bilan birga Xorazm hududidan chetga olib chiqib ketilgan tarixiy, qimmatli narsalarning kimlardaligini aniqlash, jumladan Xorazm xalqining harbiy hayotini ko‘rsatadigan qurol va Xorazmning sipohigarchilik davrini ko‘rsatadigan

olmos, brilliant, oltin, kumush kabi qimmatli narsalarga bundan keyin ehtiyot bo‘lishni XXSR hukumatidan so‘ralgan edi” (3).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov Xorazm respublikasining boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va respublikani taraqqiy qildirish borasida ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan edi. Jumladan, Afg‘oniston, Buxoro va boshqa davlatlarda Xorazmning elchixonalarini ochish hamda ularning elchixonalarini Xorazmda tashkil etishga ruxsat beradi.

Afg‘onistondagi elchixonaga rais qilib Boboovun Salimov tayinlandi. U 1920-yil apreldan 1921-yil mart oyigacha Xorazm Xalq Sovet respublikasida adliya noziri bo‘lgan, Polvonniyozhoji Yusupov hukumati ag‘darilgach u o‘zini hukumat ishlaridan chetda olib yurgan edi. Uning kotibi qilib Abdullaxo‘ja Abdurahmonxo‘jaev va elchixona a‘zosi qilib Marat To‘raev belgilandi.

“Buxoro Xalq Sovet respublikasi elchixonasiga rais qilib Mulla O‘roz Xo‘jamuhamedov belgilandi. U respublika hukumati a‘zolidigiga kiritilgan edi. O‘roz Xo‘jamuhamedov Xorazm Xalq Sovet Respublikasi delegatsiyasi tarkibida Moskvaga borib RSFSR va XXSR o‘rtasida imzolangan 1920-yil 13-sentabrdagi 24 moddadan iborat shartnomani tuzishda qatnashgan edi. Shuningdek, u XXSRning turkman sho‘basi rahbari sifatida ko‘pgina ishlarni ham amalga oshirgandi” (4).

“Otamaxzumoxun Muhammadrahimov rahbarlik qilgan davrda xonning va xon amaldorlarining tortib olingan ekin yerlari, ko‘llar, to‘qaylar va boylardan tortib olingan hovli joylar, ularning bog‘lari yersiz va kam yerlik dehqonlarga ajratildi. “Faqat 1921-yilda 6,5 ming desyatina (7095 gektar) yer yersiz va kam yerlik dehqonlarga bo‘lib berildi” (5).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov dinga, dindorlarga va vaqf yeriga, umuman olganda XXSRning ishlariga qa‘tiyatli rahbar sifatida yondoshdi va RSFSR tomonidan chizib berilgan andozani butunlay rad qildi.

Tarixiy vaziyatga ko‘ra, asrlar davomida diniy aqidalarga e‘tiqod qilgan xalq ommasida birdaniga vaqfni bekor qilib, inqilob yasash qiyin edi. Yersiz va kam yerlik dehqonlarga vaqf yerlaridan bo‘lib berilgan yerlarda ham ish ko‘ngildagidek emas edi. Shu boisdan ham vaqf yerlarga ekin ekib, hosil olgan dehqonlar o‘z yerlarida yetishtirilgan hosilni kechqurun, yashirin ravishda ushbu yerning sobiq egalarga, masjid imomlari, madrasalar mutavallilariga olib borib berishardi. Shuning uchun ham Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSRning 2-qurultoyida qabul qilingan vaqf to‘g‘risidagi qarorlarni bekor qildi. Shariat normalarini tiklay boshladi. Islom diniga ishonuvchilarning hurmatini joyiga qo‘ydi. Vaqfdan olinadigan soliqni bekor qildi.

Shuningdek, Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSR hukumati ishlariga kommunistik partiya a‘zolarining aralishishi va rahbarlik qilishiga chek

qo'yishga harakat qildi. Uning milliy rahbar sifatida tanlagan to'g'ri strategiyasida bir respublika hududida kommunistik partiya markaziy komiteti va hukumat markaziy ijroiya komitetidan iborat qo'shhokimiyatchilik bo'lishi mumkin emas edi.

“Xorazmda amalga oshirilayotgan Otamaxzumoxunning bunday milliy rahbarlik boshqaruvi, tabiiyki, RSFSRdan yuborilgan vakillarga to'sqinlik edi. To'sqinlik kuchaymasligi va XXSRni ta'sir doirasidan chiqarmaslik uchun, RSFSR MIK va xalq komissarlar soveti 1921-yil oktabr oyining oxirlarida Butun Rossiya MIK a'zosi, Oktabr to'ntarishi kunlarida Petrograd harbiy-revolutsion komiteti a'zosi, RKP (b) MK Turkiston Byurosi va Turkiston komissiyasi raisi, V. I. Leninning topshirig'iga binoan O'rta Osiyoga yuborilgan Adolf Abramovich Ioffe rahbarligida XXSRga favqulodda komissiya yubordi. Komissiya Xorazmda amalga oshirilayotgan milliy boshqaruv tizimidagi ishlarni bekor qilishga harakat qildi. “Bunga qapshi Xorazm MIKning raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimov Adolf Abramovich Ioffega, Xorazm respublikasining ichki ishlariga aralashadigan bo'lsa, 24 soat ichida Xorazmni tashlab chiqib ketishi haqida talabnoma topshirdi” (6).

Otamaxzumoxunning Xorazmda tinchlikni o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlarida harbiy nozir Mirkomil Mirsharopov bilan hamkorligi katta natijalar berdi.

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov XXSR hududida tinchlik o'rnatish, buning uchun murosaga borish maqsadida Qurbon Muhammad sardor-(Junaidxon) bilan ham 1921-yil 6-noyabrda “Birlik kelishuvi shartnomasi” tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Ya'ni, Otamaxzumoxun Muhammadrahimov shartnoma imzolab, undan oldingi rus harbiylarining qo'pollik bilan qilgan taktikasini takrorlamagandi. Ma'lumki, 1921-yil oktabr oyining boshlarida Junaidxon “O'rta quduq” nomli hududda turganida Zakaspiy frontining qo'mondonlari - Bilyaev va Belousovlar uni o'rab olib, butunlay taslim bo'lishga majbur qilgandi. Shartnomaga binoan Junaidxon o'z qurollarini ham topshirishi kerak edi. Ammo Junaidxon bu talabni milliy lider sifatida tan olmadi va kelishilgan kuni qurollarini topshirmadi.

Shartnoma bajarilmagach, Belousov va Bilyayevlar 12 kishilik otliq qo'shin bilan Junaidxon oldiga yetib borgan va shartnomaning bajarilishini talab qilgandi. Junaidxon shartnomani rad qilgach esa unga to'pponcha o'qtalib, asir olinganini ma'lum qildi. Ammo Junaidxon va uning sheriklari o'sha vaqtda Belousovn va Bilyayevlarni otib o'ldirdilar.

Shu tariqa Bilyayev va Belousovlarning Junaidxonni kuch ishlatish yo'li bilan bo'ysundirish niyati amalga oshmagan edi.

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov kuch ishlatish yo'li bilan ish bitmasligini bilgach, Junaidxon bilan murosaga kelish uchun 5 kishilik komissiya tuzdi. Komissiya raisligiga dohiliya noziri Hasan Ermatov belgilandi va uning a'zoliciga harbiy ishlar noziri Mirkomil Mirsharapov, adliya noziri muovini, ruhoniyy Iso oxun, kotiblik vazifasiga Muhammad Yusuf devon Otajonov, turkmanlardan vakil sifatida Elmuhammad Charievlar komissiya tarkibiga kiritildi. Ushbu komissiya 1921-yil 5-noyabrda Junaidxon bilan muzokaralar olib borib, yarash shartnomasini tuzishga muvaffaq bo'ldilar.

“Shartnomani Junaidxon tomonidan uning eng yaqin mahrami Shayx Nafas Xolnizoz o'g'li, Junaidxonning eng e'tiqodli ruhoniysi Xon Eshon va boshqa bir qancha kishilar imzolagan edilar. Shartnoma 7 punktdan iborat bo'lib, “Birlik shartnomasi” deb yuritilgan edi”. (7).

XXSR rahbariyatining milliy ruhdagi davlatchilik boshqaruvi, o'z ichki ishlarini o'zi mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi RSFSRning Xorazm XSRdagi muxtor vakili Iosif Maiseyevich Bikga, Xorazm kommunistik partiyasi rahbarlari nomi bilan ish olib borayotgan ayrim shovinistlarga yoqmas edi. Ular xalqning siyosiy jihatdan o'z yo'llarini aniq belgilab ola olmaganliklarini yaxshi sezib, davlat to'ntarishlari va davlat rahbarlarini o'zgartirib turish siyosatini amalga oshirib turdilar. RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bik 1921-yil 10-noyabrda RSFSR tashqi ishlar xalq komissarligiga yozgan xatida “hozirgi Xorazmning hukumat rahbarlari Xorazm uchun kerak emas. Hukumat butunlay Menglixo'ja Ibnayaminov va Otamaxzumoxun Muhammadrahimov qo'liga o'tdi. Milliy masala bilan ayrim intelligensiya shug'ullanadi”, deb yozgan edi. (8).

Otamaxzumoxun Xorazm hukumati ichki ishlariga aralashgani uchun RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikni vohaga qaytib kelmaslik talabi bo'yicha 19-noyabr kuni RSFSR hukumatiga murojaat yo'llaydi. Biroq Kreml munosabat bildiravermagach, Otamaxzumoxun yanada jiddiyroq harakat qilishga kirishadi. Jumladan, 22-noyabr kuni Rossiya hukumatiga radiotelegramma yuborib, RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikning o'z vakolati doirasidan chiqib, Xorazm hukumatini xalq dushmani deya targ'ibot qilayotgani, millatlar orasiga nizo solayotgani, qonxo'rliqi va talonchiligi uchun zudlik bilan chaqirib olishni so'raydi. Aks holda, ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklar, ikki davlatning orasiga siyosiy va iqtisodiy aloqalariga rahna solishi, do'stlikning o'рни urushga aylanishi ehtimoli yuqoriligini ma'lum qilgandi. Bu radiotelegramma Xorazmning RSFSRdagi doimiy vakili Sulton qori Jumanizozov, va tarjimon Jumanizoz Ollaqulievlar tomonidan Kremldagi V.I.Lenin, Chicherin, Kalininlarga yetkaziladi.

Biroq Kreml ma'muriyati ham Xorazmdan qilingan ikkinchi murojaatga rasman javob bermay, e'tiborsiz qoldiradi. Natijada 1921-yil 23-noyabr kuni Otamaxzumoxun Xorazm hukumatining yig'ilishini o'tkazib, RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseevich Bikning zudlik bilan, 24 soat ichida XXSR hududini tark etishi haqida qarorini chiqaradi. 1921-yilning 25-noyabr kuni Xorazm radiosi Xorazm hukumatining 17 nafar rahbarlari tomonidan imzolangan qarorini o'qib eshittiradi. Vaziyatning tarangligini sezgan Kreml shundan so'nggina RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Moiseyevich Bikni Moskvaga qaytarish haqida rasman qaror chiqaradi. Biroq Iosif Moiseyevich Bik 27-noyabr kuni Xivadagi Qizil Armiya kuchlariga tayanib, go'yoki XXSR MIK va Xorazm kommunistik partiyasi favqulodda majlisini chaqiradi.

Majlisda respublika rahbari Otamaxzumoxun va harbiy nozir Mirkomil Mirsharopov "xalq dushmani" deya ataladi.

Ana shunday fikrga tayangan holda 1921-yil 27-noyabrda Xorazm kommunistik partiyasi markaziy komiteti, Xorazm markaziy ijroiya komiteti respublika nozirlar kengashining kengaytirilgan qo'shma majlisini chaqirdi. Ushbu majlisda Xorazm markaziy ijroiya komitetining raisi Otamaxzumoxun Muhammadrahimovni, Xorazm Respublikasi nozirlar kengashining raisi Menglixo'ja Ibniyaminovni, Xorazm markaziy ijroiya komitetining ish boshqaruvchisi Bekjon Rahmonni, Xorazm markaziy ijroiya komiteti ijroiya bo'limining boshlig'i Muhammadjon Abdalovni, moliya noziri Muhammad Yusup Otajonovni, dohiliya noziri Hasan Ermatovni, xoriy noziri Mulla O'roz Xo'jamuhamedovni, harbiy ishlar noziri Mirkomil Mirsharopovni, turkman sho'ba raisi Yangiboy Murodovni, Trigulovni, Agaydarovni, Yungirovni Xorazm xalqining dushmani deb e'lon qilishdi. Ularni ishdan olib tashlash va qamashga qapop qilindi" (9).

Otamaxzumoxun Muhammadrahimov majlisga chaqirilmadi. U o'z ustidan chiqarilgan hukmdan xabar topgach, Ollaqulixon madrasasida yashirib jon saqlashga harakat qildi.

Bik Xivadagi 300 nafar pulemyot va miltiqlar bilan qurollangan Qizil armiya qo'shini bilan harbiy nozir Mirkomil Mirsharopovning uyiga bostirib, hovlini o'qqa tutdiradi. Tasodif tufayli omon qolgan Mirsharopov hovlidan olib chiqilib, ko'chadagi olomonning ko'z o'ngida do'pposlangan holda olib ketiladi. Bik Otamaxzumoxunning ham uyini o'rab oldiradi, ammo uni topishning iloji bo'lmaydi. Qizil Armiyaga tayangan Bik Nurillaboydagi hukumat uyi oldida "Senlarga mustaqil davlatligingizni shunday ko'rsatib qo'yaman", deya ochiqchasiga qichqiradi.

Polvonniyoz hoji Yusupovning “Xotiralari”da yozilishicha, “Otamaxzum Xivada yashirinib yurgan joylarida kasal bo‘lib, 1921-yil noyabr oxirida vafot etgan (ayrim manbalarda uni Olloqulixon madrasasida yashirinib yurganini bilib, topib otib tashlashgan-U.B.) Mahalla oqsoqoli kelib, hukumatga ma’lum qildi. Hukumat Bikka e’lon qildi. Bik avval doktorni yuborib, ko’rsatib, ondin so’ng dafn qilmoqg’a buyurdi. Bul doktorni ko’rsatganidin maqsad shul turur, yolg’ondin aytg’on bo’lmasunlar, deb. Doktorning aytgani birlan xotirjam bo’lib qoldi. Ham hukumatning tamomi ixtiyori Bikning qo’linda bo’ldi”.

Shu tariqa Otamaxzumoxunning respublika davridagi rahbarlik faoliyati shovinist rahbarlar tufayli ko’p vaqt davom etmadi. U 1921-yil may-sentabr oylarida adliya noziri, sentabr-noyabr oylarida esa respublika markaziy ijroiya komiteti raisi vazifasida ikki oygina faoliyat ko’rsatdi. Biroq ana shu qisqa vaqt davomida ham yillarga tatigulik, respublika manfaati uchun eng zarur ishlarni qilaoldi.

Otamaxzumoxunning nafaqat ikki oylik rahbarligi, balki hayoti, faoliyati tarix fanida umuman tadqiq qilinmagan bo’lib, tadqiqotchilar u zot oldida ma’nan qarz dordirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-71-fond, 1-ro‘yxat, 2-delo, 26-varaq.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi. R-71-fond, 1-ro‘yxat, 3-delo, 202-varaq.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond, 1-ro‘yxat, 6-delo, 50-varaq.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-71- fond, 1-ro‘yxat, 3-delo, 219-varaq.
5. М. М. Маткаримов “Аграрные преобразования в Хорезме и их социально-экономические последствия”, диссертация кўлёмаси, Тошкент, 1976, 48-бет.
6. Н. Каландаров. “Образование и деятельность Хорезмской коммунистической партии”, Тошкент, 1975, 154-бет.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. P-71-fond, 1- ro‘yxat, 3-delo, 204-207-varaqlar.
8. Н. Каландаров, “Образование и деятельность Хорезмской Коммунистической партии”, Тошкент, 1975, 155-бет.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond, 1-ro‘yxat, 3-delo, 235-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, 71-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 235-varaq.

TARIX

MOSKVA-VOLGA KANALI QURILISHIDA QATAG‘ON QILINGAN XORAZMLIK MAHBUSLAR TAQDIRI



Jasur XASANOV,
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD).

UO‘K 514.8

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet davridagi qatag‘on siyosati sabab Moskva-Volga kanali qurulishida ishlatilgan Xorazmlik mahbuslar hayoti yoritilgan. Shuningdek mahbuslarning og‘ir mexnat sharoitida yashashi, ishlashi va fojeyali taqdiri tadqiq qilingan.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни заключенных из Хорезма, которые были использованы на строительстве канала Москва-Волга из-за репрессивной политики советского времени. Были также исследованы жизнь, работа и трагическая судьба заключенных, находившихся в тяжелых условиях труда.

Annotation: This article explores the lives of Khorezm prisoners who were used in the construction of the Moscow-Volga Canal due to the repressive policies of the Soviet era. It also examines the prisoners' living, working, and tragic fate in harsh labor conditions.

Kalit so‘zlar: NKVD, OGPU, Dmitlag, Jinoyat kodeksi, mahbus, qatag‘on, ishchi kuchi, Moskva-Volga kanali, jasad, lager.

Ключевые слова: НКВД, ОГПУ, Дмитлаг, Уголовный кодекс, заключенный, репрессии, рабочая сила, канал Москва-Волга, труп, лагер.

Key words: NKVD, OGPU, Dmitlag, Criminal Code, prisoner, repression, labor force, Moscow-Volga canal, corpse, camp.

SSSR OGPU¹sining 1932-yil 14-sentabrdagi 889/s-sonli buyrug‘i bilan Moskva oblastida Dmitrov mehnat-tuzatuv lageri (Dmitlag) tashkil etildi. Moskva-Volga kanalini qurishda asosiy kuch sifatida qatag‘on qilingan mahbuslar mehnatidan foydalanish joriy etildi. Dmitrov lageriga Leningrad, O‘rta Osiyo, Temnikovsk, Vishersk, Sarovskiy, Sibir mehnat-tuzatuv lagerlaridan katta

¹ Организация государственного политического управления – Давлат сиёсий ташкилоти бошқармаси – ДСТБ.

miqdorda mahbuslar olib kelingan. 1932-yil oxiriga borib Dmitlagdagi mahbuslar soni 1 million 200 ming kishiga yetgan edi[1].



Moskva-Volga kanali qurilishi 1932-yil oxirida boshlanib, 1937-yil 15- iyulda yakunlangan. O‘zbekistondan shoir Tursunov Mirtemir¹ bilan birga “qizil vagonlar”da kelgan mahbuslar 1934-yil avgustida qurilish uchastkalarida ishlay boshlaganlar. Volgani Moskva daryosi bilan bog‘lovchi suv yo‘lining muayyan qismi qazish ishlari bilan boshlangan. Shunga qaramay, bu yerda eng murakkab ishlar qahraton qish sharoitida asosan qo‘l kuchi bilan bajarilgan. Issiq o‘lkadan kelgan minglab mahbuslarning sovuqdan birinchi yiliyoq qirilib ketish holi yuz bergan. Qurilishning asosiy ishchi kuchini mahbuslar tashkil etgan[2].

Minglab mahbuslar sovuqda kanalning qazishma ishlarida ishlab, charchagan, bellari loyga belanib, kiyimlari iflos, har doim och bo‘lgan, zaiflikdan o‘lib qolganlar, o‘lganlarni aravalarga ortishib, olib ketishgan. Kechga yaqin olib ketilgan mahbuslar jasadlarini ichki kiyimi bilan dafn qilishgan. Jasadlarni ko‘mish uchun maxsus guruh tashkil qilingan. Qabrlar keng, uzun,

¹ Каранг: Миртемирни махбус сифатида Москва Волга канали курилишида, Дмитлага ўтказган азобли хаёти ва фаолияти тўғрисидаги батафсил маълумотлар. – Каримов Н. МИРТЕМИР. Маърифий-биографик роман. «MERIYUS» Тошкент — 2012. Б. 85-113.

chuqur va katta qilib qazishgan va mahbuslar jasadlarini birin-ketin ot aravalarda olib kelib, ustma-ust qilib, qazilgan chuqur va keng qabrga tashlab, ko'p jaslarni bitta qabrga ko'mishgan[3].

Ma'lumotlarga ko'ra, oradan yillar o'tib, "kanalning gidrouzel majmuasida keng ko'lamli ta'mirlash ishlari olib borish jarayonida, u yerdan skelet uyumlariga duch kelingan. Bu skelet uyumlari kanal qurilishida ishlagan mahbuslar jasadlari bo'lib, eski tashlandiq qabristonlarga dafn qilingan jaslardan farq qilgan"[4].

Dmitlagdagi mahbuslar o'limi darajasi: 1933-yilda - 8873 kishi (ro'yxat bo'yicha 16,1 foiz); 1934-yilda - 6041 kishi (3,88 foiz); 1935-yilda - 4349 kishi (2,3 foiz); 1936-yilda - 2472 kishi (1,4 foiz); 1937-yilda - 1068 kishi (0,9 foiz); 1938-yilda - 39 kishi.

Hammasi bo'lib, 1932-yil 14-sentabrdan 1938-yil 31-yanvargacha Dmitlagda 22 842 kishi vafot etgan [5].

Dmitlag mahbuslarining tarkibi juda xilma-xil bo'lib, ko'pchiligi oddiy jinoiy moddalar bo'yicha qamoq muddatini o'tagan. Ayniqsa, lagerda "o'ttiz beshchilar" deb nomlanganlar, ya'ni, RSFSR Jinoyat kodeksining 35-moddasi bo'yicha sudlanganlar juda ko'p bo'lgan. Bundan tashqari 72, 73, 78, 79, 82, 83, 107, 109, 165, 170, 217, 230-moddalari bilan ayblangan mahbuslar ham bo'lgan. Bu moddalarga ko'ra: iqtisodiy, mulkiy jinoyatlar, rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirish, chayqovchilik, qamoqdan qochish, mansab vakolatlarini

suiste'mol qilish, qurolni noqonuniy saqlash, ayniqsa SSSR hukumat tartibiga qarshi xavfli jinoyatlar, banditizm bilan ayblangan mahbuslar bo'lgan[6].



Moskva-Volga kanalida ishlagan Dmitrov mehnat tuzatuv lageri mahbuslari qurilishdagi mehnatning o'ta og'irligi, xavo haroratining juda ham sovuqligi, kunlik yeb-ichish nochorligi, qurilish jarayonida mahbuslarning ko'z o'ngida og'ir mehnat qilib, sovuq iqlimda kasallangan mahbuslarning kunlik o'lim darajasining ko'payishi va ularning qabrlarga janozasiz ko'milishi, lager ma'muriyati tomonidan jazo muddati tugagan mahbuslarni ozod qilish o'rniga, turli xil ayblar qo'yib, qurilishda olib qolish maqsadida jazo muddatiga muddat qo'shish holatlarini ko'rganligi yuzasidan SSSR NKVD Dmitrov mehnat tuzatuv lageri Markaziy Attestatsiya Komissiyasiga (MAK) ariza bilan murojaat qilganlar. Ulardan faqat xorazmliklardan ayrimlarini keltiramiz:

Matchanov Bobo. 1890-yilda tug'ilgan, ishchi, oilali, 3 nafar farzandi bor, avval sudlanmagan, 23.09.1932-yil Xorazm okrugi Xalq sudi tomonidan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 144,149-moddasining A,V bandlari bilan sudlanib, 6 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Jazo muddati 15.08.1932-yildan

hisoblangan. Dmitrov mehnat-tuzatuv lageriga jazo muddatini o'tash uchun yuborilgan. 07.12.1934-yil Matchanov Bobo NKVD Dmitrov mehnat-tuzatuv lageri Attestatsiya Komissiyasiga avf so'rab ariza bilan murojaat qilgan. Arizani ko'rib chiqib, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Sovetining yakka tartibdagi amnistiya komissiyasiga Matchanov Boboning arizasi, anketasi, ma'lumotnomasi yuborilgan. Anketasining 14-punktiga avf bermaslik to'g'risida tavsiya yozib qo'yilgan. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Soveti huzuridagi sud komissiyasining 1935-yil 27-yanvardagi yig'ilishida Matchanov Boboga avf bermaslik to'g'risida qaror qabul qilingan[7].

Abduraximov Abduraxim. 1908-yilda tug'ilgan, quloq, oilali, 2 nafar farzandi bor, avval sudlanmagan, 11.05.1932-yil Xiva rayoni Xalq sudi tomonidan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 80-moddasi 3-qismi bilan sudlanib, 3 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Jazo muddati 11.05.1932-yildan hisoblangan. Dmitrov mehnat-tuzatuv lagerining 5-rayonida jazo muddatini o'tagan. 26.11.1934-yil Abduraximov Abduraxmon SSSR NKVD Dmitrov mehnat tuzatuv lageri Markaziy Attestatsiya Komissiyasiga avf so'rab ariza bilan murojaat qilgan. Arizani ko'rib chiqib, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Sovetining yakka tartibdagi amnistiya komissiyasiga Abduraximov Abduraxmonning arizasi, anketasi, ma'lumotnomasi yuborilgan. Anketasining 14-punktiga avf bermaslik to'g'risida tavsiya yozib qo'yilgan. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Soveti huzuridagi sud komissiyasining 1935-yil 27-yanvardagi yig'ilishida Abduraximov Abduraxmonga avf bermaslik to'g'risida qaror qabul qilingan[8].

Sharipov Latif. 1906-yilda tug'ilgan, xizmatchi, oilali, oiladagi 5 nafar a'zo avval sudlanmagan. 21.05.1934-yil Xiva rayoni Xalq sudi 4-uchastkasi tomonidan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 140-moddasi bilan sudlanib, 3 yilga ozodlikdan mahrum qilingan. Jazo muddati 21.05.1934-yildan hisoblangan. Dmitrov mehnat-tuzatuv lagerining 3-rayonida jazo muddatini o'tagan. 02.01.1935-yil Sharipov Latif OGPU Dmitrov mehnat-tuzatuv lageri Markaziy

Attestatsiya Komissiyasiga avf so‘rab ariza bilan murojaat qilgan. Arizani ko‘rib chiqib, O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Sovetining yakka tartibdagi amnistiya komissiyasiga Sharipov Latifning arizasi, anketasi, ma’lumotnomasi yuborilgan. Anketasining 14-punktiga avf bermaslik to‘g‘risida tavsiya yozib qo‘yilgan. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Soveti huzuridagi sud komissiyasining 1935-yil 27-yanvardagi yig‘ilishida Sharipov Latifga avf bermaslik to‘g‘risida qaror qabul qilingan[9].

Moskva-Volga kanali qurilishida xorazmliklarning ishtiroki, Dmitlagdagi fojiali taqdiri, mehnati, qismati haqida yangidan-yangi ma’lumotlarni qidirib topish, ularni tarix sahifalariga bitish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari yanada davom etadi, tariximizning ayanchli sahifalarini yaratish borasida qilinadigan ishlar talayginadir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Голованов В. [География скорби](#) – Вокруг Света, №9 (2756) сентябрь, 2003. – С. 28-43.
2. Каримов Н. Миртемир. Маърифий-биографик роман. «MERIYUS» Тошкент — 2012. Б. 103.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%BC%D0%B8%D1%82%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%BB%D0%B0%D0%B3#cite_ref-13.; “Семья”, 1990, № 13, С.18.; Мурожат қилинган сана: 03.12.2020 йил.
4. [Барковский В.С.](#) Тайны Москва-Волгостроя. Сборник рассказов по истории строительства канала им. Москвы. – М.: 2007. – С. 22.
5. Овчинникова И.Г. ГУЛАГ и люди. – М.: 2014. – С. 278-279.
6. <https://karta.psmb.ru/karta/articlesingle/dmitlag-iz-istorii-stroitelstva-kanala-moskva-volga/> Мурожат қилинган сана: 22.02.2021 йил.
7. О‘зМА, 86-fond, 10-ro‘yxat, 812-ish, 146-varaq.
8. О‘зМА, 86-fond, 10-ro‘yxat, 813-ish, 154-varaq.
9. О‘зМА, 86-fond, 10-ro‘yxat, 814-ish, 105-varaq.

FILOLOGIYA

BEDOR QALB

UO‘K 230.25



**Matnazar
ABDULHAKIM,
(1948-2010)
O‘zbekistonda
xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pahlavon Mahmudning ijodiy merosi va undagi falsafiy g‘oyalarning Farobiy dunyoqarashi bilan mushtaraklik jihatlari tadqiq qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается творческое наследие Пахлавона Махмуда и общность его философских идей с мировоззрением Фараби.

Annotation: This article examines the creative legacy of Pahlavon Mahmud and the commonalities of his philosophical ideas with the worldview of Farabi.

Kalit so‘zlar: Xiva, Farob, falsafa, tasavvuf, g‘oya, adabiyot, ijodiy meros.

Ключевые слова: Хива, Фараб, философия, мистицизм, идея, литература, творческое наследие

Key words: Khiva, Farab, philosophy, mysticism, idea, literature, creative heritage

Abu Nasr Forobiy hazratlarining “Fozil odamlar shahri” kitobidan yunon faylasuflari merosida badiiy adabiyot, jumladan, Pahlavon Mahmud ijodi bilan mushtarakliklarning bisyor ekanligi oydinlashadi. Bu mushtaraklik shundan iboratki, har ikkala ma’naviy meros, ya’ni yunon falsafasi ham, badiiy adabiyot ham bir maqsadga, u ham bo‘lsa inson shaxsini kamol toptirishga xizmat qiladi.

Forobiy hazratlari mazkur kitobida yozadi: **“Aflotun, inson tabiiy xislatlarga ega, bular undagi hulq-atvor va hatti-harakatlarga sabab bo‘ladilar, deb tushuntiradi...”**

Abu Nasr Forobiy talqinlaridan yana shu jihat oydinlashadiki, yunon faylasuflari o‘z mamlakatidagi qonun chiqaruvchilardan o‘z qonunlarini aholini kuch ishlatish orqali itoatda tutib turish uchun hukm yuritadigan tarzda emas, balki muayyan qonunlar majmuasi tasarrufida bo‘lgan mamlakat aholisini tashkil qiladigan har bir shaxsni ma’naviy jihatdan kamol toptiradigan bir darajada bo‘lishini talab qilganlar.

Shuning uchun ham Forobiy hazratlari bu haqda shunday davom etadi: **“Sohibi qonun bu xislatlarni nazarda tutishi, shu xislatlarni tuzatuvchi qonunlar chiqarishi kerak, chunki bu bilan sohibi qonun fuqaroning hulq-atvorini ham tuzatadi...”**

Yunon faylasuflari merosining qonun chiqaruvchilar haqidagi boblarida aks etgan mana shu jihatlari bizga mazkur merosning badiiy adabiyotga, xususan, Pahlavon Mahmud she'riyatiga ham muayyan ma'noda ta'sir ko'rsatganligini kuzatish imkonini beradiki, bundayin hol, bunday mushtaraklik, fikrimizcha, insoniyat ma'naviyat xazinasidagi noyob hodisalardandir.

Yunon faylasuflari oqil odamlar tomonidan chiqarilgan qonunlarning inson kamolotiga xizmat qilishini diqqat markazida tutgan bo'lsalar, Pahlavon Mahmud hazratlari badiiy so'zning inson shaxsining shakllanishidagi ulkan ahamiyatini alohida uqtirgan edi.

Pahlavon Mahmud inson ruhiy dunyosini yuksaltiradigan so'zni "gavhar" deb ardoqlagandi. Ul zot yozgan ediki, ruboiy:

So'z bo'ldi zilol labing aro to gavhar,
Bozor aro qizdirdi, ki, savdo gavhar.
Qo'lda qadah tutib guhar izlayman,
Izlash va topish, uchun-ku daryo, gavhar.

Pahlavon Mahmud hazratlari "qo'lda qadah tutib" izlagan gavhar bu – inson ma'naviyatiga sayqal beradigan badiiy so'z va uning sharofatidan ochiladigan go'zal ma'nolar edi.

“Rohatlanish, dard chekish va qayg'urish asosiy tabiiy xislatlar hisoblanadilar, – deb davom etadi Abu Nasr Forobiy, – ular tufayli fazilatlar va illatlar o'zlashtiriladi...”¹

Biz Pahlavon Mahmud hazratlari merosida insonlarga xos bo'lgan ana shunday xislatlar-u illatlar haqidagi ruboiylarni ko'p uchratamiz. Buyuk-shoirimizning salaflar fikratidan naqadar bahramand bo'lganligini va bu bahramandlik, yunon faylasuflari hamda ularning buyuk mashriqlik sharhlovchisi Forobiy hazratlari qalamiga mansub ilmiylikdan tubdan farq qilaroq, mutlaqo bir badiiy so'z san'ati timoyillari asosida, taqlidona emas, balki o'ziga xos bir tarzda muxtasar misralarda aks etganligining guvohi bo'lamiz.

Pahlavon Mahmudning ruboiylari betimsol bir hayotsevarlik ruhi bilan sug'orilgan. Buyuk shoirning bu ruhdagi she'rlarini ilohiy muhabbat bilan bir vaqtda insonning insonga bo'lgan muhabbati ohanglari ziynatlab turadi. Ruboiy:

Yoding ila har damu, har on toza bo'lur,
Tong yeli esar va gulsiton toza bo'lur.

¹ “Фозил одамлар шахри”, 23 бет.

Bayram kabi diydamda ekan diydoring,
Xotir xush-u, dil hurram-u, jon toza bo'lur.

Yunon allomalarining asarlarida ta'kidlangan insonga xos hamdardlik tuyg'ularini tarannum qilish, dadil aytish mumkinki, Pahlavon Mahmudning ijoddan ko'zda tutgan bosh maqsadlaridan biri edi. Ruboiy:

Dard tildi ko'ksimni, dili chok bo'ldim,
Yerga to'shab qon gilamim, pok bo'ldim.
Ko'z yoshima to'ldi hovuchim limmo-lim,
Ayb aylamangiz, men, mana, sho'rhok bo'ldim.

Odamlarni qayg'urish ham ularga hamdardlik singari Pahlavon Mahmud g'oyaviy rahnamalaridan bo'lgan javonmardlik tariqatining muhim bosqichlaridan edi, beqayg'u javonmardiyni tasavvur qilib bo'lmasdi. Ruboiy:

Hamla qilar menga g'am-og'u, ko'raman,
Ko'z ochaman, har ko'zda qayg'u ko'raman.
O'y suraman boshni oyog'imga qo'yib,
O'zni tanib, tizzani ko'zgu ko'raman.

Shoirning bu va buningdek ruboiylaridagi shodlik shodlik uchun, hamdardlik hamdardlik uchun yohud qayg'u qayg'u uchun bo'lib qolmasdan, balki insonni har jihatdan kamol toptirish uchun faol olib borilgan ma'naviy kurashlarning natijasidir.

Yunon faylasufi Aflotun qarashlarini sharhlashda davom etib, Abu Nasr Forobiy yozadi: **“Rohatlanish tuyg'ularini Xudoyi taolo ato etadi, Musiqaga bo'lgan moyillik ham shunday: tabiiy mayl tufayli musiqadan xabardorlik natijasida rohatlanish paydo bo'ldi. Aflotun yunonlarda mashhur bo'lgan ommaviy raqslar va surnay navolarini misol qilib ko'rsatadi... U har biri ayrim holda go'zallik nima-yu xunuklik nima, bema'nilik nimaligini tushuntiradi...”**¹

Pahlavon Mahmud ana shu go'zallik nima-yu xunuklik nima ekanligini tafovut qila olmaydiganlar dastidan aziyat chekib, she'rlar ijod qildi. Ruboiy:

Do'st bo'lgali bir umrga dono tanla,
Yoki go'zal bir guli ra'no tanla.

¹ “Фозил одамлар шахри”, 23 бет.

Bo'lmasa gar aylama nobud vaqting,

O'zingni top, o'zingni tanho tanla.

Pahlavon Mahmudning uqtirishicha, aks holda odamzod johil, befahm odamlar zulmiga giriftor bo'ladi. Ruboiy:

Afsus bugun bo'ldi olov dud bila teng,

Bo'ldi Xalil masnadi Namrud bila teng.

Davlatidan mastga quloq tutsang, der:

“Eshshakning hangi nag'mai Dovud bila teng”.

Ramziy ishoralarga to'la bu ruboiydan kelib chiqadigan xulosa shuki, go'zallikning har bir turida o'ziga xos xalillaru namrudlar, Dovud nag'malariyu eshaklarning hanglari mavjuddir va kimki o'zining nofahmlik “davlati”dan mag'rur bo'lsa, bu holda yaxshidan yomonning, Dovud nag'masidan eshak hangining, Xalildan Namrudning farqiga bormay qoladi. Unday odam odam qiyofasidagi jonivor tarzida bo'ladi. Va shoirning tag'in bir ruboiysida ifoda qilgani kabi, bunday odam bilan bir damlik suhbatdan bir asr zindon mahbusi bo'lmoq afzal ko'rinadigan bo'ladi.

Biz Farobiy hazratlari tarjima va talqinlaridagi Aflotun qarashlarini Pahlavon Mahmud merosi bilan mushtarakliklaridan hayratga tushamiz. Forobiy yozadi: **“Aflotun xursandchilikni xotirjam va sovuqqon qabul qiluvchi katta odamlarga nisbatan o'smirlar rohatlanishidan olgan quvonchni anchagina kuchliroq his etishlarini tushuntiradi...”**¹




Shu o'rinda beixtiyor Pahlavon Mahmud hazratlari peshvolik qilgan tariqatning “Javonmardiylik” deb atalishi mutlaqo tasodif emasligi ayon bo'ladi, Negaki, o'smirlar faqat rohatlanishdan olgan quvonchni kuchliroq his qilib qolmasdan, balki o'z a'mollarida ham ezgulikka, bag'rikenglikka moyil bo'ladilarki, javonmardlik tariqati yoshlarga, yoshlikka xos bo'lgan ana shu xususiyatni har bir odam ruhiyatiga singdirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Odamlar, deylik, ramazon oyida ezgu amallarni har qachongidan ko'proq ado qilib, yilning boshqa oylarida mazkur ramazondagi fe'l-atvoriga hamisha sodiq qolishlari odobdan bo'lgani kabi, javonmardlik tariqatining

¹ “Фозил одамлар шахри”, 23 бет.

mohiyatini ham kishilarda yoshlikka xos bo‘lgan go‘zal va xayrli ahloqli har bir odamning navqironligidan uning ruhiga singdirib, keyinchalik uni umr bo‘yi ana shu fe‘l-atvorga sodiq qilib qoldirishga erishuv masalasi tashkil etadi. Pahlavon Mahmud bu muborak tariqatning g‘oyaviy rahnamosi bo‘laroq, tabiiyki, o‘z ruboiylarida yuqorida zikr qilganimiz navqironlik ruhiyatiga, javonmardlikning tamoyillariga monand fikrlarni targ‘ib qildi. Ruboiy:

Yuksak bu umr daraxtimiz past qilma,
 Borliq bu sharob, mayliga, quy, mast qilma.
 Yo rab, karam et jumla javonmardlarni,
 Muhtoj etma, zor etma, past qilma.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” kitobida Aflotunning sohibi qonunlar haqidagi qarashlarini bayon qilar ekan, mazkur qarashlar zalvorli ma’naviy yuk tashishining guvohi bo‘lamiz. Fazilatlarga erishuv muayyan mashaqqatlar, riyozatlar evaziga bo‘lishini ta’kidlab, Forobiy yozadi: **“Aflotun bir bilimdon mehrli tabib shifobaxsh dori tayyorlab, bemor yaxshi ko‘radigan ovqatga qo‘shib berganini misol qilib ko‘rsatadi...”**¹



Hazrat Pahlavon Mahmudning ruboiyoti, bu muborak merosdagi go‘zal badiiy vositalar Aflotun ko‘zda tutgan ana shu dori qo‘shib beriladigan ne‘matni eslatadi.

To‘g‘ri, Forobiy mazkur kitobning boshqa bir sahifasida Aflotun **“hamma ezguliklar ayni paytda yoqimli”**, **“nimaiki chiroyli va ezgu bo‘lsa, xayrli va yoqimli”** deb uqtiradi”² deydi. Biroq biz ma’naviy fazilatlarga erishuvning naqadar riyozattalabligini ana shu riyozatlarni kechinibgina, o‘z navbatida mazkur riyozatning ham yoqimli ekanligini aniqlash baxtiga muyassar bo‘lishimizni o‘ylasak, kamolot yo‘lining naqadar mashaqqatli ekanligini anglab olamiz. **“Ezguligi yo‘q,**

¹ “Фозил одамлар шаҳри”, 23 бет.

² “Фозил одамлар шаҳри”, 25 бет.

faqat yoqimli narsalar bilan esa aqli kalta odamlargina rohatlanadilar”¹, deb xulosa chiqaradi Forobiy.

Pahlavon Mahmud lirik qahramoni riyozattalablikni o‘zi uchun sharaf deb biladi. Shoir uqtirishicha, dunyoning o‘zi uqubatlarga yo‘g‘rilgandir. Unda hayot kechirayotgan odamlarning tiriklik tarzi ham shunga monanddir. Ruboiy:

Achchiq bu jahon, ki, jon shirin bo‘lmaydi,

“Holva” desang zabon shirin bo‘lmaydi.

Charx lazzatini nasib bo‘lurmi totmoq,

Bu dargumon... gumon shirin bo‘lmaydi.

Shoirniig ta’kidlashicha, fazilattalab odam hamisha ranju mashaqqat va bedorlikda bo‘lmog‘i zarur. Aks holda u o‘zining erishgan-erishmagan fazilatlaridan kibrlangan zohidning ayanchli ahvoliga tushadi. Ruboiy:

Tuz totmadim hech, ishq yuragim qon aylar,

Uxlamadim, yor meni nolon aylar.

Holinga mening tushsami, bir dam zohid,

Darrov o‘zini farishta e’lon aylar.

Pahlavon Mahmud ta’kidlashicha, fazilatlarni qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan odam mazkur fazilatlarga faqat bitta – Haq yo‘lida yurmak orqali erishmagi mumkindir.

To‘g‘ri, insoniy fazilatlar insonlarning fe’llarida, ularning amali solihlaridadir. Biroq, shunisi muhimki, bu amali solihlar dilida Olloh mehri bor odamlardagina mavjuddir. Shuning uchun ham Haq diydoriga oshiqqan yo‘lovchi ana shunday dillarnigina manzil qilish orqali fazilatlar marrasiga yetib bormog‘i mumkin. Ruboiy:

Ustimga ulug‘ safar libosin yopdim,

Manzillar aro ko‘p yugurib, ko‘p chopdim.

Behisht kabi to‘xtov edi har dil menga,

Har dilda, ne baxt, faqat o‘zingni topdim.

Mutolaa davom etgan sayin, Forobiy hazratlari asarlaridagi jihatlar bilan Pahlavon Mahmud qarashlaridagi chambarchasliklarning naqadar kuchli ekanligi ayon bo‘la boradi. Forobiy Aflotun qarashlariga to‘xtalarkan, jumladan, quyidagilarni yozadi: **“...ushbu bobda Aflotun badan uchun juda zarur**

¹ Ўша асар, ўша жойда.

bo‘lgan jismoniy mashqlar ruh uchun ham shunday zarurdir, chunki badanni pok, sog‘lom etish ruhni ham pok, sog‘lom etadi, deydi...”¹

Pahlavon Mahmud hazratlari yunon faylasufining bu qarashini o‘z pahlavonlik faoliyati bilan isbot etib yashaganligi ayon. Biroq, ruh va jismning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi masalasi shoir Pahlavon Mahmud nazaridan ham chetda qolmagan. Shoir o‘z ruboiylarida insonning jismi naqadar mustahkam bo‘lsa, ruhi ham shunchalik mustahkam bo‘lishini mumtoz bir badiiy vositalar ko‘magida ifoda etdi, odamlarni har jihatdan yetuk bo‘lib kamol topishga da’vat qildi. Ruboiy:

Kun kundan esar, vahki, netay, yel qattiq,
Holimga mening fig‘on qilar el qattiq.
Ko‘z yosh ayamay vujudni, chun, yuvmoqda,
Devor guvala, netay, kelar sel qattiq.



Forobiy talqinidagi yunon faylasuflari qarashlari bilan Pahlavon Mahmud she’riy tafakkuri xazinasidagi hamohangliklardan tag‘in bittasi bu ularning may va mayxo‘rlik haqidagi fikri. Forobiy yozadi: **“Keyin Aflotun boshqa bir masalani tushuntirishga o‘tadi. U mayxo‘rlik haqidagi misollarni keltiradi. Yunonlarda bir guruh odamlar may ichishgan, boshqalar esa ichishmagan. Ba’zan zarurat yuzasidan may ichishga ehtiyoj bo‘lgandir, masalan es-hushini yo‘qotish uchun ayollarni to‘lg‘oq tutganda yoki badan yarasi kuydirilayotganda yohud behol bo‘lib qolganda...”²** Bu masala islomiy

¹ “Фозил одамлар шахри”, 27 бет.

² “Фозил одамлар шахри”, 27 бет.



qarashlardagi ichkilikka munosabatda ham Pahlavon Mahmud she'riyatidagi mayxo'rlikka qarash bilan hamohanglik ayon ko'zga tashlanadi.

Biz shariatda mayxo'rlikka naqadar keskin salbiy munosabat bildirilganligidan voqifmiz. Baribir bu qonun arkonlari ham hayotiy mantiqqa xilof ish tutmagan. Masalan, "Muxtasar" kitobida may masalasiga munosabat bildirilar ekan, **odamzod mayni aysh-ishrat uchun ichmasligi, mayni nihoyatda kamquvvat qilib tayyorlangan holda zarurat yuzasidan iste'mol qilishi mumkinligi** uqtirilgan. Shundan ayon bo'ladiki, mayning eng kamquvvat xillarini ham faqat tibbiy muolaja maqsadlarida ishlatishga ruxsat mavjuddir. Biz bu mavzuda Pahlavon Mahmud ijodidagi qirralar haqida fikrlaganimizda, albatta, mayning she'riyatdagi tasavvufiy mazmunini e'tibordan soqit qilamiz. Mumtoz shoirlarimiz ijodida, jumladan, Pahlavon Mahmud merosida ham so'fiyona mazmundan tashqari, mayga maishiy munosabat bildirilib bitilgan misralar oz emasdirki, gapimiz ana shu xususdadir. Xuddi shu ma'noda, Pahlavon Mahmudning ajoyib ruboiylari mavjuddir va bu ruboiylar islom dini talablariga monand bitilganligi bilan bir qatorda, biz yuqorida zikr qilib o'tgan yunon faylasufi Aflotunning sharobga munosabatlari masalasidan voqiflik ruhiyatida bitilgandir. Ruboiy:

Bodai la'l birla tiniq gavharimiz,

Basma-bas ichdik, "dod" dedi sog'arimiz.

Bilmadik hech may ustida bizmi bugun,

Ketdikmi qolib may tagida yo barimiz.

Azaldan abadga qarab taralayotgan ilohiy ma'naviyat nurlarining tolalariga mushtarakliklarning mavjudligi bizlarning ruhiyatimizda umuminsoniy qadriyatlarga vorislik hissini kuchaytiradi. Bunday mushtarakliklarning manbai, xususan, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Pahlavon Mahmud singari turli xalqlarga va avlodlarga mansub buyuk farzandlarning tafakkur xazinalaridan bo'lsa, nur ustiga nur deganidek, bunday qadriyatlar ildizlari ma'naviyatdan iborat bo'lgan baynalminalchilik tuyg'ularimizni ham tarbiya toptiradi. Barcha xalqlarning kelajakdagi qardoshliklarini jadallashtiradi va yanada mustahkamlaydi.

FILOLOGIYA

“RISOLAI SULTON XOJA AHMAD YASSAVIY” ASARI HAQIDA MULOHAZALAR



**Nodirxon
HASANOV,
O‘zMU Jurnalistika
va o‘zbek
filologiyasi fakulteti
professori**

UO‘K 230.25

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hayoti, uning ilm, ma’rifat va ma’naviyat yo‘lidagi tarixiy xizmatlari tahlil qilingan. “Risolai sulton Xoja Ahmad Yassaviy” risolasi misolida ma’rifatparvar shoirning hayoti va faoliyatiga oid yangi ma’lumotlar taqdim etiladi.

Аннотация: В статье анализируется жизнь Ахмада Яссави и его исторический вклад в науку, просвещение и духовность. На примере трактата «Рисолаи султан Ходжа Ахмад Яссави» представлены новые сведения о жизни и творчестве просвещенного поэта.

Annotation: This article analyzes the life of Ahmad Yassavi, his historical contributions to science, enlightenment, and spirituality. Using the example of the treatise "Risalai Sultan Khoja Ahmad Yassavi", new information about the life and work of the enlightened poet is presented.

Kalit so‘zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, hikmat, tasavvuf, asar, odob, arkon, manba, tarix.

Ключевые слова: Ходжа Ахмед Яссави, хикмат, суфизм, произведение, правила, каноны, источник, история.

Key words: Khoja Ahmad Yassawi, hikmat, sufism, work, rules, canons, source, history.

Keyingi yillarda Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va ta’limoti mavzusida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, qo‘lyozma xazinalarimizda Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq, hanuz keng tadqiqotga jalb etilmagan bir qancha asarlar ham mavjudki, ularni o‘rganmasdan yassaviyshunoslikda ilgarilash qiyin. Shunday asarlardan yana biri – “Risolai sulton Xoja Ahmad Yassaviy”dir (1).

Bu risola O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasidagi № 3808/XIV raqamli majmua tarkibida saqlanadi. Hijriy 1253-yil G‘anixoja Xayrullohxoja o‘g‘li tomonidan nastaliq xatida ko‘chirilgan 324 varaqdan iborat bu majmuada yana o‘n to‘rtta tasavvufga doir asar o‘rin olgan (2). Ahmad Yassaviy risolasi tartib bo‘yicha o‘ninchi asardir (3).



Ahmad Yassaviyga nisbat berilib, “Haza risolatu sulton Xoja Ahmad Yassaviy” (bu Xoja Ahmad Yassaviyning risolasidir) sarlavhasi bilan boshlangan va forsiyda bitilgan bu asar tariqat odoblari, pir va murid munosabatlari, ilohiy ishq-muhabbat, ma’rifat hamda darvishlik kabi tariqatning bir qancha muhim masalalari bayoniga bag‘ishlangan.

Muqaddimada yozilishicha, “qutb ut-tariqat va burhon ul-haqiqat hazrati Xoja Ahmad Yassaviy bu risolasida Haq yo‘lchilarining botin ko‘zlari ochilishi uchun toliblarga manfaat yetkazmoq maqsadida tariqat odoblaridan bir necha harf (tur)larni bayon etadilar. Bular: tariqatning hukmlari, ruknlari, vojiblari, sunnatlari, mustahablari va adablari bo‘lib, ularning har biri olti qismga bo‘linadi”(4).

Risolada o‘rni-o‘rni bilan Qur’oni Karim oyatlari, Muhammad alayhissalom hadisi shariflari, shuningdek, piru ustozlarga hurmat va ona roziligi xususidagi she’rlardan parchalar keltirilgan.

Ushbu risolani “Faqrnoma” va “Javohir ul-abror” asarlari bilan qiyoslaganda, ular orasida o‘xshash va yaqin jihatlar ko‘zga tashlandi. Masalan, tariqat adablari masalasini olib ko‘raylik:

“Faqrnoma”da hazrati Payg‘ambar, hazrati Ali va hazrati Shahobiddin (5) kabi zotlardan rivoyat qilingan faqirlik va darvishlikning qirq maqomi haqida so‘z

yuritilgan (6). “Javohir ul-abror”da yetmish ilm va vuslat hosil qilmoq uchun qirq to‘rt maqomga erishmoq lozimligi, bu maqomotni tahsil etmasdan shayxlik da’vosini qilgan kishiga avliyolar dushman ekanligi, qiyomatda bunday kimsa yuzi qora holda tirilishi kabi so‘zlar Ahmad Yassaviydan naql etiladi (7). Ahmad Yassaviyning biz tadqiq etgan ushbu risolasida ham darvishlikning mazkur qirq to‘rt maqomidan komil shayxning xabardor bo‘lmog‘i shart qilib belgilangan (8). “Devoni hikmat”dagi quyidagi to‘rtlik esa mazkur fikrlarning Ahmad Yassaviyga oidligini isbotlashga xizmat qiladi:

Lohut aro murid agar maqom tutsa,
Darvishlikda qirq to‘rt maqom, ondin o‘tsa,
Shayxman teyu dunyo qo‘yub o‘tni yutsa,
Bemashaqqat topmas iymon halovatin.

“Faqrnoma”da faqrning olti odobi sanab o‘tilgan bo‘lsa, “Javohir ul-abror”da yassaviylikning olti odobi bevosita Ahmad Yassaviy tilidan batafsil bayon etilgan. Chunonchi, Haziniyning yozishicha, tariqat shahristonining ahkomi oltita: ma’rifati Haq, saxovati mutlaq, haqiqiy sidq, Xudo sevgisiga g‘arq bo‘lgan yaqinlik, tavakkuli rizqi muallaq (yog‘ilib turgan rizq tavakkuli), teran tafakkur. Shayxlik va muqtadolik arkoni oltita: ilmi dini yaqin, hilmi mubini matin, sabri jamil, rizoyi jalil, ixlosi Xalil, qurbi jazil (har jihatdan komil bo‘lgan Allohga yaqinlik). Tariqat vojiblari oltita: talabi sohibkamol va taqarrubi zuljalol, shavqi visoli lo yazol, xavfi moliki bezavol., har qanday holda rajo-umidvor bo‘lish, kecha-kunduz doimiy zikrda bo‘lish, fikri tavassuli Hayyi muta’ol. Tariqat sunnatlari oltita: jamoat bilan namoz o‘qish, saharlarda uyg‘oqlik, doim tahoratli yurish, huzuri billoh il-karim, zikrullohni ta’zim birla ado aylash, solih, orif va muqtado zotlarga itoat qilib, ularni duo qilish... Tariqat mustahablari oltita: ko‘ngul xushnudligi bilan mehmon kutish, uni imkon qadar mehmon qilish, mehmon naqadar ko‘p tursa, shuncha g‘animat bilish, mehmonni qirq qadamgacha kuzatmoq, mehmon xotiri na istarsa bajarmak va muhayyo qilmak, Xoja Ahmad Yassaviyga va o‘z shayxi haqqiga doim duo qilmoq. Tariqat odobi oltita: ikki tizzasi ustiga tavoze va adab bilan cho‘kkalamoq, o‘zini boshqa insonlardan haqir ko‘rmak, har kishini o‘zidan afzal ko‘rmak, jumla shayx va pirlarni azizu valiy bilmak va huzurlarida sukut saqlamoq, mashoyix majlisida ruxsatsiz so‘zlamaslik, shayxining valiylik sirlari va karomat ramzlarini chin e’tiqod bilan muhofaza etmoq (9).

Tariqatning mazkur odoblari Ahmad Yassaviy risolasida ham deyarli aynan takrorlanadi (10).

Ahmad Yassaviy risolasi va “Javohir ul-abror” orasida tariqat odobi xususida juz’iy farq shundan iboratki, Haziniy asarida oltinchi bobning oltinchi qismida shayxning valiylik sirlari va karomat ramzlarini chin e’tiqod bilan muhofaza etish odobi qayd etilgan bo’lsa, Ahmad Yassaviy risolasida ulug’larning hurmatini chin ko’ngildan o’rniga qo’yish, ularning ruxsatlari bilan ish yuritish va ularning xizmatini o’z ota-onasidan avval qo’yish tavsiya etilgan.

Ma’lumki, tasavvuf yo’liga kirgan solikdan kamolot hosil qilmoq uchun muayyan ma’naviy bosqichlarni bosib o’tmog’i talab etiladi. Bu xusus barcha tariqatlarda bo’lganidek, yassaviylikda ham joriy etilgan. Chunonchi, Haziniyning Ahmad Yassaviydan naql etishicha, muhaqqiq va mudaqqiqlar nazdida, mazkur qirq to’rt mo’tabar maqomni o’zi uchun yetakchi va tayanch qilib olgan tolibu soliklar g’ayrat ko’rsatib, quyidagi sakkiz maqomga mukammal ravishda sa’y-harakat qilishlari lozimdirki, bu maqomlar zaruriy sulukni qisqa vaqtda bosib o’tishda ular uchun foydalidir. Birinchi, tadbakorlar maqomi: riyozat va mujohada... Ikkinchi, olimlar maqomi: tavoze’, tazarru’, tavajjuh va besh xazarotni talab etish (11). Uchinchi, zohidlar maqomi: riqqat, diqqat, muhabbat va shafqat. To’rtinchi, sobirlar maqomi: tahammul (sabr), teran mulohaza va tavakkul. Beshinchi, rozilar maqomi: xursandchilik, irtibot va (xalqqa) aralashish. Oltinchi, shokirlar maqomi: tavhid, tamjid va tahmid. Yettinchi, muhiblar maqomi: doimiy iroda, avrod, azkor va istig’for bilan band bo’lish. Sakkizinchi oriflar maqomi: kunduzlari ro’zador, kechalari bedor va doimiy muroqaba martabasi (12).

Ahmad Yassaviy risolasida esa ulug’ shayx bu borada shunday marhamat qiladi: “shayxga irodat qilmoqning sharti shundayki, shayx qirq to’rt maqomdan xabardor bo’lsin. Agar bu maqomlardan xabardor bo’lmasa, yigirma ikki maqomdan xabardor bo’lsin. Agar darvishlikning bu maqomlaridan ham voqif bo’lmasa, albatta, darvishlikning quyidagi sakkiz maqomidan voqif bo’lsinki, bu sakkiz maqomdan sakkiz harf hosil bo’ladi: alif, be, te, sin, sod, fe, qof, ro. Bilgilki, alif – rostlikdir. Darvish alif kabi to’g’ri – rost bo’lsin; be – bashoratli bo’lsin; te – tarki dunyo qilsin; se – sayru sulukda bo’lsin; sod – sabrda bardavom bo’lsin; fe – foqa (muhtojlik)da bo’lsin; qof – qanoatkor bo’lsin; ro – darvish doim riyozatda bo’lsin” (13).

Muhammad alayhissalomning “Faqirlik faxrimdir” degan mashhur hadislariga tayangan tasavvuf arboblari faqr maqomini tasavvufning asosi va manbai deb bilganlar. Shahobuddin Suhravardiyga ko‘ra, faqr tasavvufiy martabalarga erishish yo‘lidir(14). Zero, faqr yo‘lining o‘ziga yarasha mashaqqatli bosqichlari borki, Haziniy ularni o‘z asarida Ahmad Yassaviy tilidan shunday bayon qiladi: “Faqr yo‘lidagi safarda botin olami va g‘ayb ul-g‘ayb diyorida olti yo‘l bo‘lib, *o‘n sakkiz ming* olam bu olti yo‘l boshida hayronu muztar. Faqr yo‘lini murod qilgan soliklar ushbu hisobsiz va mashaqqatli safarlarni bosib o‘tishlari shart. Solik botin olami va g‘ayb ul-g‘ayb diyorida *uch yuz oltmish* daryolar talotumi va yomg‘irlarga uchraydi. Qirq to‘rt barzah va pardalar ochiladi. Har barzah va parda ostidan va zuhuridan qirq *to‘rt yo‘l* chiqadi... Faqr fano biyobonining ushbu manzillaridan qulovuzsiz aslo o‘tib bo‘lmaydi”. (15)

Ahmad Yassaviy risolasi tuzilishi jihatidan “Faqrnoma”ni eslatadi. Chunki “Faqrnoma”da keltirilgan faqrning quyidagi olti odobi Ahmad Yassaviy risolasidagi oltinchi bobga oid odoblar bilan yaqindan o‘xshash: “Ey darvish, faqirning olti odobi bor turur: ul yaxshi-yomon so‘zga sukut qilmoq va pir oldida xomush bo‘lmoq va beijozati pir so‘zlamamak va kishi birlan ochchig‘siz bo‘lmoq va xos olimning xizmatini qilmoq va nafsini o‘lturmak va havo va havasni tark qilmak. Faqrdin pokiza narsa bo‘lmas!” (16).

Demak, Ahmad Yassaviyga ko‘ra, faqr martabasi maqomi a‘lo bo‘lib, unga har kim ham erishavermaydi. Zero, bu maqom uzoq yillar davomida riyozat va mujohada chekish orqali erishiladigan yuksak bir martabadir.

Yuqoridagi qiyoslardan ham ma‘lum bo‘layotirki, Ahmad Yassaviy risolasi hajm jihatidan kichik bo‘lishiga qaramasdan yassaviyshunoslikda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki uning bir qancha mashhur tasavvufiy asarlar bilan birga kitobat qilinganligi fazilatli bir jihati bo‘lsa, forsiyda yozilganligi o‘sha paytlar yassaviylikning forsiyzabon xalqlar orasida ham keng tarqalganligini bildiradi. Ayni paytda risoladagi fikrlar “Devoni hikmat”dagi to‘rtliklarning mazmun-mohiyatini ochishda ham yaqindan yordam beradi. Zero, yassaviylikka oid manbalardan puxta xabardor bo‘lmasdan, “Devoni hikmat”dagi to‘rtliklarning ma‘no-mohiyatini to‘la anglash qiyin.

Ahmad Yassaviy risolasining tasavvufga bag‘ishlangan bir qator asarlar bilan ayni majmuada o‘rin olganligi ham bejiz emas. Zero, risola mazkur asarlar

bilan bog‘liq. Chunki ularda Ahmad Yassaviyning nomi bilan bir qatorda Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulholiq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Hakim Sanoiy kabi mutasavviflar hamda Arslon bobo, Mansur ota, Hakim Sulaymon ota, Zangi ota, Uzun Hasan ota, Is‘hoq Xoja, Olim Shayx Azizon singari ko‘plab yassaviya mashoyixlari ayrim o‘rinlarda Ahmad Yassaviy bilan bog‘liq ravishda tilga olingan.

Umuman, tariqatnoma turidagi bunday risolalar hajm jihatidan kichik bo‘lsa-da, ma’no-mohiyati, tasavvuf arkoniga doir ma’lumotlarga va irfoniylar, adabiy, falsafiy atamalarga boyligi, tariqat pirlari va so‘fiylarning fikr-mulohazalari-yu toliblarga yo‘llanmalarni o‘zida mujassam etganligi bilan tasavvufshunoslikda alohida ahamiyatga molikdir.

Bu turdagi asarlar tariqatlarning ma’naviy-ijtimoiy holati, shayx va murid munosabatlari va tasavvufning fikriy xususiyatlarini yoritishi jihatidan va ayni vaqtda mutasavviflarning Qur’oni Karim va hadisi shariflarga munosabati, manqabalar, salaflar ta’limotiga izdoshlikni aks ettirishi bilan ham o‘ziga xos qimmatga egadir.

Risolaning topilishi manbashunoslar va yassaviyshunoslar uchun Ahmad Yassaviy ilmiy merosiga doir tadqiqotlarni hali davom ettirish kerakligini, uning qalamiga mansub asarlarning qo‘lyozmalari yana topilishi mumkinligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ушбу рисола ҳақида матбуотда илк бор тадқиқотчи Неъмат Жабборов фикр билдирган: Н.Жабборов. Рисола дар одоби тариқат – тасаввуф тарихига оид муҳим манба // Қўлёзмалар – дурдоналар... Илмий-амалий анжуманга тақдим этилган маърузалар баёни. 23-25-бетлар. – Тошкент: 2001);

2. Мажмуадаги бошқа асарлар куйидагилардир: Саййид Шариф ибн ҳазрат Мавлавий ал-Муҳаммад ал-Ҳусайнийнинг «Мутафарриқоти мунтахаба» (Мақомоти ҳазрати Хожа Аҳрор) (16-12 а), «Нафаҳот ул-унс»дан олинган парча (12 б-68 а), «Ал-ламъату ломиъа» (68 а-83 а), Муҳаммад Мусо ибн Хожа Исо Даҳбедийнинг «Зубдат ул-ҳақойиқ» (Мақомоти сулуки ҳазрати Хожа Аҳрор), (83 б-161 б) ва «Наводир ул-маориф» (162 б-218 б), «Рисолаи зикрия» (219 б-230 б), «Тариқати мужаддия» (230 б-237 а), «Тариқати хожагон» (237 б-255 б), «Тухфат ул-ахёр» (Имом Муҳаммад Амин Зоҳид) (257 б-283 а), «Дар шарҳи арбаъин»

(Имом Аҳмад Ғаззолий) (283 б-287 а), «Рисола дар баёни мақомоти ишқ ва ҳолоти ошиқ» (287 а-301 б), «Рисолаи қаландари ва суврати дарвиши» (301 б-305 б), «Рисола дар баёни суврати фақир» (305 б-312 а), «Рисола дар баёни қоидаи тариқ» (317 а-322 б).

3. 312 б - 316 б варақ.

4. 313 а-б;

5. Шаҳобиддин Сухравардий ёки Шаҳобиддин Исфижобий («Рисола дар таржимаи Аҳмад Яссавий», «Ламаҳот» каби манбаларда ёзилишича, Аҳмад Яссавий бу зотлардан сабоқ олган);

6. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: 1992. 11-бет;

7. Жавоҳир ул-аброр мин амвож ил-биҳор. Istanbul Universitesi Kutuphanesi. ТҮ, №3893. 55 а-б варақ.

8. 313 б варақ;

9. 65 б-66 б варақ;

10. 313 а варақ.

11. Хазароти хамса – борлиқнинг беш асосий мартабаси, категорияси; 1. Мутлақ ғайб хазрати, 2. Мутлақ шаҳодат хазрати, 3. Изофий ғайб хазрати, бу эса икки қисм: а/ мутлақ ғайбга яқин бўлган қисми, бунга руҳлар олами, мужаррад нафслар ва ақллар олами дейилади, б/ мутлақ шаҳодат оламига яқин бўлган қисми, бунга мисол олами, малакут олами дейилади. 4. Тўрт оламни ўзида мужассам қилган хазрат; инсон олами, мулк олами, малакут оламининг мазҳари ва тажаллигоҳи, малакут олами жабарут оламининг мазҳари ва тажаллигоҳи, жабарут мутлақ ғайб хазрати-оламининг мазҳари ва тажаллигоҳи, бу эса илоҳий исмлар ва ваҳдоният хазратининг тажаллигоҳи, бу эса аҳадият ва аҳадият хазратлари билан биргаликда хазрат ва олам адади етти бўлади (қ-нг: S. Uludag. Tasavvuf Terimleri Sözlüğü. İstanbul, 1996, S. 232);

12. 57 а-б варақ;

13. 313 б варақ;

14. Şihabuddin Şühreverdi. Avarif ul-maarif. İstanbul, 1993. S. 67.

15. 59 а-б варақ;

16. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Тошкент: 1992. 17-бет.

FILOLOGIYA**SO‘FIZODA SHE‘RIYATIDA IJTIMOIIY JADIDONA****G‘OYALAR TALQINI**

**Marhabo
QO‘CHQOROVA,**
Filologiya fanlari
doktori, professor,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori
instituti
ilmiy xodimi.

UO‘K 230.25

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid adabiyotining namoyandalaridan biri Muhammadsharif So‘fizoda ijodining tadqiqi hamda shoirdan yagona adabiy meros bo‘lib qolgan “Taronalar” she‘riy to‘plamiga jamlangan lirikasida ifodalangan ijtimoiy jadidona g‘oyalar talqini o‘rganildi.

Аннотация: В данной статье исследуется творчество одного из представителей джадидской литературы Мухаммадшарифа Суфизоды, а также анализируется интерпретация социальных джадидских идей, выраженных в его лирике, собранной в единственном оставшемся литературном наследии поэта – поэтическом сборнике «Тароналар».

Annotation: This article explores the creative work of one of the prominent representatives of Jadid literature, Muhammadsharif Sufizoda, and analyzes the interpretation of social Jadid ideas expressed in his lyrical poetry, which is compiled in his only remaining literary legacy – the poetry collection “Taronalar”.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, So‘fizoda, “Taronalar”, she‘riy to‘plam, ijtimoiy g‘oyalar, ma‘rifat, ayollar mavzusi, qatag‘on.

Ключевые слова: джадидская литература, Суфизода, поэтический сборник, «Тароналар», социальные идеи, просвещение, тема женщин, репрессия.

Key words: Jadid literature, Sufizoda, poetry collection “Taronalar”, social ideas, enlightenment, women’s issues, repression.

Jadidchilik harakatining namanganlik namoyandalaridan biri Muhammadsharif So‘fizoda (1880-1937) dir. Ma‘lumki, tarixiy manbalar va olimlarimizning tadqiq etishiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti hay‘atining 1926-yil 27-fevralda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Hamzaga “xalq yozuvchisi”, So‘fizodaga “xalq shoiri” unvonini berish hamda ularga shaxsiy nafaqa tayinlash masalasi ko‘rib chiqiladi va bu masala ijobiy hal etiladi” [Karimov N. 1:5.]. Ammo mash‘um qatag‘on siyosati Hamza va So‘fizodaga oldiniga yaxshilik qilganday bo‘ldi. So‘ngra, millatning har ikki iste‘dodli vakilini qatl etdi. Hamza sho‘ro siyosatining uyushtirilgan siyosiy o‘yinlari bilan toshbo‘ron qilingan bo‘lsa, So‘fizoda “O‘zSSR NKVD qoshida tuzilgan mashhur “Uchlik” aybnomasi bilan otuv jazosiga buyurildi. Biroq,

shoirning jasur qalami bilan yozilgan hajviy lirikasi sovet davrida ham, istiqlol yillarida ham o‘rganilishdan aslo to‘xtab qolmadi.



Muhammad Sharif So‘fizoda hayoti va ijodi yuzasidan Ahmad Muhammad Ubayd, Lutfulla Olimiy, M.Solihov, M.Shayxzoda, T.Rasulov, Y.Shamsharov, J.Abdullaxonov, B.Qosimov, I.Abdullaev, Sh.G‘afforov, A.Rahimov, A.Xalilbekov, N.Karimov, B.Nazarov, H.Orifiy, M.In‘om kabi olim va shoirlarning maqola va monografiyalari chop etilgan. Mustaqillik yillarida ayniqsa, Muhammad Sharif So‘fizoda hayoti va ijodi jadal sur‘atda o‘rganildi. Bir qancha risola, adabiy portretlar yaratildi.

So‘fizoda lirikasini to‘plab, uning ilk adabiy portretini yaratgan olim To‘lqin Rasulov hisoblanadi. U shoirning “Taronalar” she‘riy to‘plamini nashrga tayyorlagan. Mazkur to‘plam akademik Izzat Sulton tahriri ostida 1968-yilda chop etilgan. Kitob T.Rasulovning “Shoir So‘fizoda haqida” deb nomlangan kirish maqolasi bilan boshlangan. Olim bu kirish maqolada So‘fizodaning hayoti va ijodini batafsil yoritib, shoir lirikasining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarini ochib bergan. Ammo T.Rasulov bor kuchi bilan So‘fizodaning “jadid”chi emasligiga urg‘u beradi. Albatta, bu davr siyosati tufayli, shoirni sovet davrida qayta tiriltirish uchun urinish bo‘lgan. So‘fizoda ijodini ilk tadqiqotchilardan bo‘lgan Miyonbuzruk Solihov esa uni jadid namoyandasi sifatida talqin etadi. Umuman olganda, shoir hayoti va ijodini tadqiq etgan sovet davri adabiyotshunoslarining ba‘zilari uni “jadid” adabiyotining vakili desa, ikkinchi guruh olimlar “yo‘qsullar shoiri” sifatida talqin etishdi. Albatta, So‘fizoda hayoti va ijodini bir-biriga qarama-qarshi tarzda o‘rganish murakkab davr siyosati bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Qolaversa, So‘fizodaning ijodidagi jadidchilarga qarshi yozilgan ikki she‘ri uni “jadidchi emas” degan talqinlarga asos bo‘lgan. Bu she‘rlarning biri “Madaniy makiyonlarga tuhfamiz. Millatchilarga” deb nomlangan she‘rida jadid ma‘rifatparvarlarini “ziyonli makiyonlar” deb ta‘riflaydi:

Hoy ziyonli makiyonlar, hurpayib qolmish paring,
Yirtilib boshingdagi durrang, ezilmish qansharing,
Kurk bo‘ldungmiki, chiqmas bangi vahshat ovaring,
Endidan so‘ng bemahal qichqirma ayg‘oq bo‘l baring,



Zarbidan dunyoni titratgan hukumatdir naring [So‘fizoda. 3: 41.].

Bizningcha, So‘fizoda yangi sovet hukumatining jadidlarga nisbatan munosabatini, hamda o‘zining hayotini himoya qilish maqsadida ham unda ikkilanishlar bo‘lgan. Aslida, shoirning o‘zi butun lirikasida xalqning ongini ochishga, ilmli-ma‘rifatli bo‘lishga chaqirgani holida, jadidchilarga qarshi ikkita she‘r bag‘ishlaganini shunday izohlash mumkin. Ammo baribir So‘fizodaning joni omon qolmadi, u qatag‘onga uchradi. Yuqoridagi she‘rida So‘fizoda “millatchilar”ni “kaltadum darranda”, “boqim sharmanda”, “diniy xurofotchi”, “qalbi xiyonatparvar”, “bobov o‘g‘li”, “eski ziyoli, o‘g‘ri, moxov”, “shilqim shaqil”, “munofiq fitnacha” deb ta‘riflaydi. Davrning o‘ta murakkabligini hisobga olgan holda So‘fizodaning jadidlarga munosabati va ijtimoiy-siyosiy voqelikka shaxsiy pozitsiyasining tebranuvchanligini to‘g‘ri tushunib, baholash kerak, nazarimizda. Masalan, yuqoridagi she‘r T.Rasulov uchun So‘fizodaning jadidchi emasligi uchun katta dastak bo‘lib xizmat qilgan. Olim shunday yozadi: “Ba‘zi tadqiqotchilar shoir ijodiga baho berishda uni jadid ideologlarining yirik vakili sifatida tasvirlashga urinadilar. Lekin biz bu fikrga mutlaqo qo‘shilolmaymiz. Zero, olim o‘zi ta‘kidlaganidek, “...murakkab bir sharoitda So‘fizoda yangi o‘zbek adabiyotini yaratayotgan, uni eng ilg‘or g‘oyalar an‘analar bilan bezatib, revolyutsion g‘oyalar bilan qurollantirayotgan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy va Abdulla Qodiriylar safida bo‘ldi” [So‘fizoda. 3: 17.].

Olim yana So‘fizoda ijodini tadqiq etishda shunday davom etadi: “To‘g‘ri, So‘fizodaning Ulug‘ Oktyabr revolyutsiyasiga qadar yozgan ayrim asarlarida o‘sha davrning kuchli oqimi bo‘lgan jadidizm ma‘lum darajada sezilarlidir. Masalan, uning ayrim maqolalarida va forsha she‘rlarida rus chorizmi istibdodi haqida fikr yuritiladi. Lekin progressiv Rossiyaning aniq tasavvur qila olmaganini anglashilib turadi. O‘zbekcha, turkcha, va ozarbayjon tilidagi asarlarida esa Yevropa madaniyatidan bahramand bo‘lishga chaqiradi. Ayrim hollarda “islom”ni reviziya qilish niyatidagi fikrlari ham uchraydiki, bularning hammasi ijtimoiy muhitning muqarrar ta‘siridir.

Lekin bu ta‘sirilar shoirni jadid adabiyotining “yirik” vakili qilib ko‘rsatish imkoniyatini bermaydi.” [So‘fizoda. 3: 13-14.]. Sovet davri adabiyotshunoslari So‘fizodani jadid ideologiyasining tashuvchi emasligini bo‘rttirib ko‘rsatish orqali uning adabiy merosini xalqqa qaytardi, deb xulosa chiqarish mumkin.

So‘fizoda ustoz Muqimiy bergan “Vahshiy” taxallusi ostida o‘ta tig‘dor, hajviy lirika namunalarini yaratdi. Uning ilm-ma‘rifatni targ‘ib etuvchi

she'rlarida xotin-qizlar mavzusi, kambag'allarning og'ir ahvoli, shayx va dindorlarning qallobligi o'tkir hajv tig'i bilan qalamga olinadi. Jumladan, shoirning "O'qing, onalar" she'rida millat xotin-qizlarini ilm-ma'rifatli bo'lishga da'vatkorlik g'oyasi ustunlik qiladi. Masalan:

Millati islomiyaning bonusu,
O'zbek elining qo'rako'z ohusi,
Kar qilur bir kun jahl og'usi,
Ilmu amal ushbu kasal dorusi.
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o'qur, siz ham o'qing, onalar [So'fizoda. 3: 26.].

Millatning, xususan, xotin-qizlarning ilmli-ma'rifatli bo'lishga, jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli bo'lishga da'vat, erk-ozodlik singari ijtimoiy estetik ideallarni So'fizoda boshqa jadid namoyondalari singari kam hajmli lirikasida tarannum etdi. Shoir asarlarining qo'lyozmalari bir necha marotaba kuydirib yuborilgan. Shuning uchun So'fizoda lirikasi bizgacha to'liq yetib kelmagan. Shoir "Chust boyorlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishganlari" sarlavhali hajviy she'rida zamona johillarini tanqid tig'i ostiga oladi. Shoir bu yerda Chust va chustiliklarning johilligini fosh etadi. Usuli jadid maktablarini yoptirgan, pora berib, pristavlarni topgan, shaharga poezd yo'lining qurilishiga yo'l qo'ymagan, yangilikni qabul qila olmagan johil musulmonlar, hovli-joyini sotib, Hajga ketgan chustliklar, ilm istamay, faqat savdogarlik, qorin g'ami bilan andarmon chustilar, qirqqa kirsas ham, bo'ydoq yurgan kambag'allar, nodon chustilar deya satirik yo'sinda she'r bitadi:

O'qub, ilmu adabni o'rganib avlodimiz netsun,
Falonsiz, ilmsiz, savdoga chaqqon chustilar bizlar.

Duo qilsin dedik, qizlarni sotdik oqsoqollarga,
Valekin qilg'uchi olamni vayron chustilar bizlar. [So'fizoda. 3: 32.].

Behbudiy, Cho'lpon, Hamza va boshqa jadid ma'rifatparvarlari singari So'fizoda ham zamona johilliklarini, razolatga botgan millat ahvolini hech ayamasdan tanqid etadi. Xususan, uning fosh etuvchi satirik she'riyatida achchiq haqiqatlar dadil ochib tashlanadi. So'fizodaning "Jon berib, erkinchilikni



ishchilar oldi arang” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasida Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi shoirlari Muqimiy, Zavqiy, Furqatlarning o‘ziga xos satirik uslubi bo‘y ko‘rsatadi.

“Qalaysizlar!” deb nomlangan “Biz” va “Ular” o‘rtasidagi munozaraga asoslangan hajviy lirika namunasida So‘fizoda ishchi-dehqon sinfi bilan boylar sinfi o‘rtasida muloqot uslubini qo‘llaydi. Biz – bu ishchi-dehqonlar, kambag‘al xalq tilidan yozilgan bo‘lsa, Ular – boylar, ekspluatatorlar tilidan yozilgan.

Shoirning mashhur “Burgalar” she‘ri So‘fizoda Qo‘qonga ta’lim olishga kelib, xarob va abgor madrasa hujralaridagi ahvol tufayli yuzaga kelgan burgalab ketgan toliblarning xobxonalari haqida yozilgan.

Berahm, bag‘ritosh, jafokor burgalar,
Berding manga ko‘p muncha ham ozor, burgalar,
Haryonga urib oh ila o‘zni sitamingdan,
Ag‘nab chiqaman kechasi bedor, burgalar,
Bir menmi desam, shohu gado hasrat etarlar,
Faryod qo‘lingdan sani xunxor, burgalar... [So‘fizoda. 3: 54.].
(Shoir bu she‘rida “Vahshiy” taxallusini qo‘llagan)

Vahshiy bila ko‘p o‘ynama, qil tavba-tazaru,
Anglatgil axir senga na darkor, burgalar [So‘fizoda. 3: 54.].

So‘fizoda “Gazeta to‘g‘risida” she‘rida toshkentlik zamondoshi, jadid ma‘rifatparvari Tavallo singari Turkistonda matbuotning shakllanishi, ilk gazeta nusxalarining chop etilishini katta mamnuniyat bilan qarshilaydi:

Yashnatib dil g‘unchasin, fasli bahor aylar gazet,
Suv berib ko‘ngul bog‘ini sabzavor aylar gazet.

Sharqdan Mag‘ribgacha bo‘lg‘on havodisin yozib,
Ne go‘zal mag‘rub xobarlar oshkor aylar gezat [So‘fizoda. 3: 58].

Demak, So‘fizodaning bu tipdagi she‘rlari zamona yangiliklarini, taraqqiyotni ko‘rib o‘zini baxtiyor his etayotan jadid bobokolonlarimizning ruhi bilan tutashligini his etish mumkin.

Jadid ma'rifatparvari So'fizodaning "Saylovga", "Vatan", "Xonimlar isminda" kabi qator o'nlab she'rlarida ijtimoiy g'oyalar hamda jadidona badiiy talqinlar bo'rtib turadi.

Xulosa shuki, Muhammadsharif So'fizoda ijodini jadid adabiyotidan ayro holda o'rganish mumkin emas. So'fizoda tom ma'noda jadid g'oyalarini tashigan yorqin namoyandalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. Муҳаммадшариф Сўфизода. – Тошкент: Мухаррир, 2012. – 132 б.
2. Солиҳов М. Сўфизода ва унинг ижоди. – Тошкент: Ўздавнашр, 1934. – 42 б.
3. Сўфизода. Тароналар. (Нашрга тўплаб, тайёрловчи: Расулов Т.) – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – 68 б.
4. Қайюмов Пўлотжон Домулла. Тазкираи Қайюмий. III. (нашрга тайёрловчи: Азиз Қаюмов) – Тошкент: ЎЗР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1999. – 720 б.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.
6. Шайхзода М. Сўфизода ва унинг ижоди ҳақида / Машъала. – Тошкент, 1935. - №1. – Б. 29.
7. Ҳусайнхон О. Буюклик неъмат. – Наманган: "Наманган" нашриёти, 2020. – 104 б.

FILOLOGIYA**OLAMNING LISONIY MANZARASINI YARATISHDA
TOPISHMOQLARNING O‘RNI****UO‘K 230.25**

Zohida MUQIMOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va
folklori instituti xodimi,
filologiya fanlari
bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvomadaniy birlik hisoblanuvchi topishmoqlar o‘zi tegishli xalqning madaniyatini, milliy tafakkurini ko‘rsatuvchi birlik sifatida tadqiq etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются загадки, которые считаются языковой и культурной единицей, как единица, отражающая культуру и национальное мышление народа, которому они принадлежат.

Annotation: This article examines riddles, which are considered a linguistic and cultural unit, as a unit that reflects the culture and national thinking of the people to which they belong.

Kalit so‘zlar: Topishmoq, folklor, adabiyot, jumboq, savol, javob, madaniyat, hayot jarayoni.

Ключевые слова: Загадки, фольклор, литература, головоломки, вопросы, ответы, культура, жизненный процесс.

Key words: Riddles, folklore, literature, puzzles, questions, answers, culture, life process.

Topishmoqlar jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, aql-zakovat, zehn, fikr o‘tkirligini sinash quroli, idrokni, obrazli tasavvur qobiliyatini o‘stiruvchi aqlning charxi, ajdodlarimizning ruhiy olami, uning tarixiy o‘tmishini bilishning kalitidir. Topishmoqlarni “bilishning kaliti” deyishimizga yana bir asos shuki, ular insoniyatning bilishga bo‘lgan qiziqishlari sabab yaratilgan, shakllangan. Ularda o‘zi tegishli xalqning obrazli tafakkuri, madaniyati, milliy qadriyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning har tomonlama yetuk bo‘lib shakllanishida bebaho durdona boyliklardan biri sanaluvchi topishmoqlarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Chunki ularda ma’naviy mezon hisoblanuvchi

qadriyatlar o'z tarannumini ko'rsatadi. Aytish joizki, topishmoqlar ham tarbiya manbayi, ham qadriyatlarni aks ettiruvchi vositadir.



Jahon folklorshunosligida, turkiy folklorshunoslikda, jumladan, o'zbek folklorshunosligida topishmoqlarning folklor janri sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, voqelikni metaforik nutq vositasida ifoda etish tamoyillari, topishmoqlar tasnifi, struktur-semantik tabiati va badiiyati yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan¹. Rus tilshunosligida topishmoq matnlarining lingvopoetik xususiyatlari, lingvomadaniy tahlillari masalalari keng yoritilgan².

Turkologiyada 60-yillarning oxiri, 70-yillarning boshiga kelib ayrim turkiy xalqlar topishmoqlarining til xususiyatlari yuzasidan tadqiqot ishlari qilingan. Jumladan, tilshunos olimlar J.Adambayeva, A.M.Nurgaliyeva, K.A.Nurgaliyevlar qozoq xalq topishmoqlarining til

¹ Qarang: Жўраева М.Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: Филол. фан. 6-ча фалсафа д-ри. –Тошкент, 2017. – Б. 8-9.

² Топоров В.Н. Из наблюдений над загадкой // Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. Т.1. – М.: Индрик, 1994. – С.10-117. (– 270 с); Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. Т.1. – М.: Индрик, 1994. – 270 с.; Исследования в области балто-славянской духовной культуры. Загадка как текст. Т.2. – М.: Индрик, 1999. – 189 с.; Тарабукина М.В. Концепт “человек” и способы его отражения в русских и якутских загадках”. – Идил 2.9 (2013). – С. 36-43; Макарова Наталия. Загадки русского народа. В: <http://www.klassikpoez.narod.ru/zagadki.htm> [Доступ 28 X 2014]; Kamalova Alla. Народная загадка сквозь призму логического анализа. “Acta Neophilologica” XVII: 8-9. (2015); Гашарова А.Р. – Жанр народной загадки и формы ее использования в ашугском творчестве лезгин // Филология: научные исследования. –2020. – №8. DOI:10.7256 / 2454 https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=31859.

xususiyatlarini, G.Oxundova ozarbayjon xalq topishmoqlarining til xususiyatlarini tadqiq qilgan¹.

O'zbek xalq topishmoqlarini to'plash va nashr etish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Shundan boshlab vaqtli matbuotda topishmoq janri haqida maqolalar e'lon qilingan². G'.O.Yunusov, A.Nosirov, H.Zarif, I.Orifiy, B.Karimov, Z.Husainova, M.Jo'rayeva kabi folklorshunos olimlar o'zbek topishmoqlarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar. Ayniqsa, Z.Husainovanning o'zbek xalq topishmoqlarini o'rganish va nashr qilish borasida xizmatlari katta bo'lgan. U xalq topishmoqlari haqidagi o'nlab maqolalar va "O'zbek topishmoqlari" (1966) monografiyasi muallifidir. 1981-yilda chop etilgan topishmoqlarning mukammal nashri, ya'ni 2664 ta topishmoqni o'z ichiga olgan "Topishmoqlar" to'plami ham unga tegishlidir.

Odatda, topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallagani bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o'z ifodasini topadi. Z.Husainova "Topishmoqlar" kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: "An'anaviy topishmoqlar" va "Yangi topishmoqlar". "Birinchi guruhda osmon, yer, suv; tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum; odam, uning a'zolari va xislatlari – jami 21 mavzu jamlanadi. Yangi topishmoqlarda elektrotexnika, radiotexnika, maktab va o'quv qurollari – jami 9 mavzu jamlangan"³. Ma'lum bo'ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o'zi yo'q ekan.

¹ Адамбаева Ж.Д. Литературно-стилистические и языковые особенности казахских загадок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1966; Ахундова Гюльшен Ислам кызы. Лексика и синтаксис азербайджанских загадок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1986; **Нурғалиева А.М., Нурғалиев К.А.** Казахские традиционные загадки как специфическая форма трансляции культурно-исторического опыта // Культурно-историческая психология. 2022. Том 18. № 4. С. 59–69. DOI: 10.17759/chp.2022180406

² Qarang: Хусаинова З. Топишмоқларнинг тарихи асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №5. – Б. 93-98.

³ Хусаинова З. Топишмоқларнинг тарихи асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – №5. – Б. 93-98.

O'zbek tilshunosligida ham o'zbek xalq topishmoqlari leksik-sintaktik jihatdan maxsus o'rganilgan ¹. Tilshunos olim X.Abdurahmonov topishmoqlarning ayrim til xususiyatlariga bag'ishlangan dastlabki fikrlarni, garchi maqollar bilan birga bo'lsa-da, boshlab berganligi e'tiborga loyiqdir².

Tilshunos olimlar M.N.Saitbayeva, J.X.Abdullayev, M.Saparniyazovalar topishmoqlarning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishga doir nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishgan³.

Topishmoqlarning til xususiyatlarini, xususan, ularning sintaktik xususiyatlarini yaxshi o'rganmay, topishmoqlarning mazmunini, o'ziga xosligini tushunish qiyin. Bu borada o'zbek tilshunosligida M.Saparniyazova "O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari" ⁴ deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ushbu tadqiqotda o'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari batafsil yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida o'zbek xalq topishmoqlari tarkibidagi lingvomadaniy kodlarning madaniy xususiyati tadqiq qilingan⁵. Galdagi vazifa esa o'zbek xalq topishmoqlarida ifodalangan qadriyatlarni, subyektiv munosabatni tadqiq qilishdir.

¹ Акрамов Т. Топишмоқларнинг баъзи синтактик хусусиятлари ҳақида / Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент., 1981. – Б. 86-90; Сaitбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С.21; Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. –114 б.; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 126.

² Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Тошкент: Фан, 1964.

³ Сaitбаева М.Н. Именное сказуемое в узбекских народных загадках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактиксемантик хусусиятлари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2005

⁴ Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик- семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б.126.

⁵ Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasi dagi o' rni (o'zbek tili barqaror birliklari misolida): Monografiya. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. – 216 b.

Ma'lumki, topishmoqlarda tasvir obyekti yoki aytilmoqchi bo'lgan fikr yashirin tarzda beriladi. Topishmoq javobini topish uchun uning til xususiyatlarini, undagi obrazli metaforik ifodani anglamoq, tayanch vazifani bajarayotgan lingvomadaniy kodni "ochmoq" zarur. "Chunki topishmoq xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqli holda tasvir obyektini yoki aytilmoqchi bo'lgan fikrni aniq-ravshan, tushunarli qilib emas, imkoni boricha mavhum qilib, yashirib, xiralashtirib, odatdagidan butunlay boshqacha qilib tasvirlashga intiladi"¹.

O'zbek xalq topishmoqlarida o'zbekcha milliy tafakkur in'ikos topadi; o'zbek millati xarakteri, tabiati ifodalanadi, uning ijtimoiy hayoti va turmushining ayrim qirralari: dehqonchilik, polizchilik, uy yumushlari bilan bo'g'liq faoliyati yorqin aks etadi, eng asosiysi, ma'naviy mezon hisoblanuvchi qadriyatlar o'z bo'yini namoyon qiladi hamda ijtimoiy me'yorlarni o'zida muhrlaydi. Shu boisdan ham mazkur birliklarni aksiologik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

"...obrazli tafakkur insoniyatning universal tafakkur shakli sanalishi bilan birga, muayyan xalqning adabiyoti, san'ati, maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar, nutqiy etiketlar, topishmoqlar kabi lingvomadaniy birliklarida in'ikos etuvchi, xalqning mental o'ziga xosligini ifodalovchi hissiy-ruhiy tafakkur shaklidir"². Ayniqsa, topishmoqlarda o'zi tegishli xalqning obrazli tafakkuri yaqqol namoyon bo'ladi. "Biz topishmoqlarning yaratilishi, uning obrazlari ko'pgina hollarda mifologiya, qadimiy hayot tarzi bilan bog'liqligiga ishonamiz. Ajoyib istioralar, yorqin qiyoslashlar, obrazli ifodalar bilan jilolangan o'zbek topishmoqlari qadimiy quyoshli o'zbek yerining jozibasi va o'ziga xosligini tasvirlabgina qolmay, folklor asarlari silsilasida ulkan estetik qimmatini bilan xalq ma'naviy dunyosi

¹ Сапарниязова М. Ко'rsatilgan dissertatsiya. – Б.15.

² Аҳмедова Н. Образли тафаккур ва ўзбек болалар нутқи: Филол. фан. б-ча фалсафа доктори ...дисс. автореф. – Тошкент, 2021. –Б.14.

taraqqiyotining xazinasini sifatida bizning kunlarimizda ham jamiyatimiz yaxlit madaniy hayotining muhim tarmogʻi boʻlib qolmoqda”¹.

Taʼkidlash joizki, topishmoqlar olamning lisoniy manzarasini yaratish usullari bilan boshqa barqaror birliklardan alohida ajralib turadi. Ularda antropomorfizm, lingvomadaniy kodlarning rang-barangligi, qiyoslash va metaforiklik yuqori darajada amal qiladi. Jumladan, *Oq dalada qora uruʻgʻ* (Yozuv); *Oqdir dalasi, Qoradir urugʻi. Qoʻl bilan ekiladi, Til bilan oʻriladi* (Kitob); *Koʻrinishi goʻyo olmos, Oʻt-olovga chiday olmas* (Muz); *Koʻkda supra ochildi, Uni yerga sochildi* (Qor); *Egri-bugri tuyalar, Bir-biriga suyalar, Qotib turar yil sayin, Bagʻrida xazina, sir* (Togʻ); *Tariqday kichkina xol. Gapni tugatar darhol* (Nuqta) topishmoqlarida oʻzgacha ifoda aks etgan.

“Topishmoqda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga oʻxshatish, oʻzaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantirilishi ayon. Unda til egalarining olamni idrok etishidagi milliy oʻziga xoslik yaqqol koʻzga tashlanadi. Jumladan, *Koʻk koʻylakka Gʻoʻza yoydim* (Osmon, yulduzlar) topishmogʻida osmon koʻk koʻylakka, yulduzlar gʻoʻzaga oʻxshatilib gavdalantirilgan boʻlsa, *Ustidagi koʻylagi, Xuddi qogʻozga oʻxshar. Toʻgʻrasang, jahli chiqib, koʻzingni darrov yoshlar* (Piyoz) topishmogʻida yashiringan narsaning, yaʼni piyozning koʻrinishi, alohida belgisi qiyoslangan”².

Oʻzbek tilida javobida anor va uning donachalari yashiringan *Kichkina dekcha, ichi toʻla mixcha* (Anor); *Bir hujra, Bir hujraning ichida hujra, Qirq hujraning ichida mullabachchalar* (Anor va uning donachalari) topishmoqlari bor. Maʼlumki, tojik xalqi qozonni “deg” deb ataydi; dekcha esa kichik qozonni bildiradi. *Dekcha* soʻzi *deg* soʻziga *-cha* kichraytirish qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil boʻlgan. Assimilyatsiya hodisasi sabab *degcha* soʻzi *dekcha* tarzida qoʻllanilib, kichkina qozon *dekcha* deb yuritila boshlagan. *Kichkina dekcha, ichi*

¹ Ўзбек халқ топишмоқлари / www.ziyouz.com кутубхонаси

²Muqimova Z.Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi oʻrni (oʻzbek tili barqaror birliklari misolida): Monografiya. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. – B.72.

to'la mixcha topishmog'idagi *dekcha* so'zi ham kichik qozonni bildirib, u anorning badiiy ifodasidir. Ushbu topishmoqda anorning dumaloqlik shakli dekchaga tashbeh qilingan.

Bir hujra,

Bir hujraning ichida hujra,

Qirq hujraning ichida mullabachchalar (Anor va uning donachalari) topishmog'ida anor va uning oq mayin parda bilan o'ralgan qismlari *hujra* makon lingvomadaniy kodi bilan, anor mevasi donalari *mullabachchalar* antropomorf lingvomadaniy kod orqali yorqin tasvirlangan. Bu topishmoq o'zbek mumtoz adabiyotining o'tkir qalam sohibasi Uvaysiyning anor haqidagi mashhur "Ul na gumbazdur, eshig-u tuynugidin yo'q nishon, Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur, makon? Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar, Yuzlariga parda tortig'liq turarlar bag'ri qon! (Anor)¹ chistonini yodga soladi. Bunda anorning dumaloqligi gumbazga o'xshatilgan; *gumbaz* so'zi lingvomadaniy kod vazifasini bajarib kelgan. Bundan ko'rinadiki, o'zbek tili lingvomadaniy kodlari o'zbekona milliy tafakkurning in'ikosi bo'lib, o'zida o'zbek xalqi madaniyatini yaqqol ifodalaydi.

O'zbek tili barqaror birliklar, jumladan, o'zbek xalq topishmoqlari o'zbek xalqi tafakkurining in'ikosi sifatida xalqning milliy-obrazli tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi olamning o'zbekcha lisoniy manzarasini yuzaga keltirishda asosiy vositalardandir.

Topishmoqlar aqlni charxlash, fikr o'tkirligini sinash quroli hamda ajdodlarimizning milliy tafakkuri, milliy madaniyatini bilish kalitidir.

¹ <https://tafakkur.net/anor-chistoni/jahon-otin-uvaysiy.uz>

FILOLOGIYA

ADABIY ALOQALAR RIVOJLANSIN DESAK...



Allanazar ABDIYEV



**Anvar
ALLAMBERGENOV**

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Anvar Allambergenov va Qorqalpog‘iston xalq yozuvchisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Allanazar Abdiyev suhbat

SAVOL: Allanazar og‘a, birinchi savolim ijodga kirib kelishingiz bilan bog‘liq. Ilk mashqlaringizni necha yoshlarda yoza boshlagansiz? Ular eng avval qayerda e‘lon qilingan? Dastlabki kitoblaringiz qachon chiqqa? Umuman olganda, ijodga kirib kelishingiz bilan bog‘liq xotiralaringizni o‘rtoqlashsangiz.

JAVOB: Iste‘dod ilohiy tuyg‘u, ilohiy qobiliyat deb hisoblayman va shunday tushunaman. Har qanday iste‘dodni sayqallash, rivojlantirish uchun ko‘p o‘qish, o‘rganish va ko‘p mehnat qilish zarur bo‘ladi. Men o‘zimda yozuvchilikka qobiliyat borligini bilmaganman. Lekin 4-5-sinfligimdan boshlab bolalar uchun mo‘ljallangan gazeta-jurnallar, badiiy kitoblar o‘qishga qiziqish juda kuchli bo‘lgan. O‘sha davrlar, ya‘ni 1970-yillar oxiri, 1980-yillar boshlarida deyarli har bir xonadonga ko‘plab gazeta-jurnallar kelardi. Akam va

kelinoyim o'qituvchi bo'lganligi sababli o'sha davrda e'lon qilinadigan adabiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy gazetalar va jurnallarning ko'pchiligiga obuna bo'lardilar. Men ham ular bilan birgalashib shu gazeta va jurnallarni o'qirdim. Shu zaylda gazeta va jurnallar mutolaasiga qiziqishim ortganidan ortardi. Bu orada maktab kutubxonasidagi barcha kitoblarni o'qib tugatdim. Undan keyin tuman markazidagi kutubxona kitoblarini o'qishga kirishdim. U yerdan birdaniga uchta, to'rtta kitob olardim. Hajmi katta bo'lsa bitta yoki ikkita kitob berardi. "Maktabdagi darslaringga ulgurolmay qolasan", derdi kutubxonachilar. Olgan kitoblarimni 2-3 kun Ichida, oshib ketsa, 4 kun ichida o'qib tugatardim. Kutubxonaga borib o'qib bo'lganlarimni topshirib, yangi kitoblardan yana uyga olib kelar edim. Shunday qilib maktab davrimdayoq butun qoraqalpoq folklorini, mumtoz adabiyoti vakillarining ijod namunalarini, qolaverasa, zamonaviy qoraqalpoq adabiyoti vakillari asarlarini ham o'qib tugatdim. Men tug'ilgan Taxtako'pir tumanida qozoq millatiga mansub odamlar ham ko'p edi. Shu sababli ko'plab qozoqcha kitoblarni ham asliyatda o'qib chiqqanman.

Shularning natijasida menda badiiy ijodga qiziqish uyg'ongan bo'lsa kerak. 6-7-sinf paytimda she'rlar, hajviyalar, qisqa hikoyalar yozib yurganman. Lekin, buni hech kimga hatto, uydagilarga ham bildirmaganman. 8-sinfdaligimda bir sabab bilan uydagilar mashqlarim haqida xabar topgan. Mening katta akam qoraqalpoq bolalar gazetasi "Jetkinshek"da ishlagan, ijod bilan ham shug'illangan, hikoya va qissalar yozgan. Amakim ham, ularning o'g'illari ham yaxshigina shoir bo'lgan. Shularni hisobga olsak, bizning qonimizda ijodga bo'lgan qiziqish bor deb o'ylayman. O'quvchilik paytimizda 9-10-sinf o'quvchilari kasb-hunar o'rganishi uchun haftada bir kun kasb-hunar kombinatlariga borardik. Bir safar kombinatdaligimizda sinfdosh o'rtog'im "buni qaranglar, Allanazarning yozganlari gazetada chiqibdi" deb "Jetkinshek" gazetasini hammaga ko'rsatdi. Shu vaqtgacha yozishimni hech kimga aytmaganman. Shundan boshlab atrofimdagilar bu haqda xabar topgan. Yozganlarim ilk bor gazetada chiqishi meni juda quvontirgan. 1979-yilda "Tangali baliq" nomli bir afsonam, 1980-yili hajmi biroz kattaroq "Maqtanchoq xo'roz" deb nomlangan ertagim chiqdi. Shundan keyin she'rdan ko'ra ko'proq nasriy janrdagi asarlar yozishga qiziqib ketdim. 1985-yili Nukus davlat universitetiga o'qishga kirdim. Shundan so'ng satirik va yumoristik ruhdagi hamda boshqa ko'plab hikoyalarim tumanimizdagi "Taxtako'pir tongi" va "Qoraqalpog'iston yoshlari" gazetalarida, "Amudaryo" jurnalida e'lon qilina boshlandi. Bundan tashqari publitistik maqolalar, ilmiy-fantastik, detektiv janrdagi asarlar yozishga ham qiziqu boshladim. Natijada "Do'stlar to'g'risida" va "Ajoyib odamlar" deb nomlangan fantastik qissalar yozdim. Talabalikning

so‘nggi yillarida “Ins-jinslar uyasi” deb nomlangan adabiyotimizda ozmi-ko‘pmi shov-shuvlarga sabab bo‘lgan romanimni yozib tugatdim. Bundan oldin “Eran saxiy” deb nomlangan qissa yozgandim u “Amudaryo” jurnalida 1989-yil e‘lon qilindi. Shunda ustozim filologiya fanlari doktori, professor Q.Kamalov qissamni o‘qib, “sen Chingiz Aytmatovning yo‘lidan ketyapsan”, deb e‘tirof etgan edi.

Shu yillari badiiy ijoddan tashqari ilmiy maqolalar ham yozib turardim. Qoraqalpoq ilmiy-fantastik adabiyoti bo‘yicha tadqiqotchilar deyarli yo‘q edi. Lekin bu janrga qiziqish oratyotganligi boisdan bitiruv malakaviy ishimga shu yo‘nalish bo‘yicha mavzu olganman va uni a‘lo bahoga himoya qilganman. Undan keyin aspiranturada, 1995-yil o‘z muddatida “Qoraqalpoq adabiyotida ilmiy-fantastika janrining paydo bo‘lishi va shakllanishi” mavzusida nomzodlik ishimni muvaffaqiyatli himoya qilganman.

Dastlabki kitobim, agar uni kitob deb aytish mumkin bo‘lsa, o‘ntacha hikoyadan iborat “Bizlar baxtli bo‘lamiz” deb nomlangan cho‘ntakbop shaklda 1992-yili nashr qilingan. U vaqtlarda kitob chiqarish juda qiyin edi. Sababi u davlat rejasiga kiritilishi talab etilardi. U avval Yozuvchilar uyushmasida muhokama qilinar, undan keyin 2-3 yil nashryotda navbat kutardi. Bu yosh yozuvchilar uchun juda murakkab jarayon bo‘lardi, albatta. Negaki, yoshlar o‘z kitobining tezroq chiqib, tezroq tanilishni, mashhur bo‘lishni istaydi. Shu vaqtda nashr etilgan kitobimni bugun kitob deb sanash qiyindir, lekin o‘sha vaqtda u menga olam-olam quvonch bahsh etgan. Har narsaning yo‘lochari bo‘ladi degandek, men ham kitobim bahonasida katta ijodkorlar Saylovbay Jumag‘ulov, Miratbay Nizonov, Hikmatulla Ayimbetov, Allashbay Rimov, Jumaniyoz O‘taniyazov va shu kabi boshqa ijodkorlarni yig‘ib, duosini olishga harakat qilganman.

SAVOL: Allanazar og‘a, siz qoraqalpoq tilida ijod qilasiz. Asarlaringizni o‘zbek tiliga shoirlar, yozuvchilar, tarjimonlar tarjima qilishgan. Ularning tarjimasidan ko‘nglingiz to‘ladimi? Ular siz aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni aslyatdagidek qilib o‘zbek kitobxonlariga yetkaza olyaptimi?

JAVOB: Yozgan asarlarimning deyarli barchasi o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ayrimlari esa qozoq va rus tillariga o‘girildi. O‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarim “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallarida, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Kitob dunyosi”, “Tong yulduzi” kabi gazetalarda e‘lon qilingan. 2023-yilda “Burgut cho‘qqi” nomi bilan roman, qissalar va hikoyalardan iborat kitobim O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etildi. Buning uchun Uyushmadan minnatdorman. Shu to‘plamga 10 ta hikoyam, 2 ta qissam va 1 ta romanim kirgan. Kitob so‘nggida shoir G‘ayrat Majidning ijodim haqidagi maqolasi ham berilgan.

O'zbek tiliga birinchi tarjima qilingan asarim "Eran saxiy" hisoblanadi. Uni Rahimjon Otayev, ya'ni Otauli taxallusi bilan ijod qiladigan og'amiz tarjima qilib, 2001-yili "Yoshlik" jurnalida e'lon qildi. Undan keyin hikoyalrim Rustam Musurmon, Muzaffar Ahmad, Fotima Mirzaboyeva, Hidoyat Ahmedov, Bozorboy Umarov, Gulmira Polvonova singari ijodkorlarning tarjimasida o'zbek matbuotida e'lon qilingan.

Qoraqalpoq tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish ham oson ish emas. Ammo Rahimjon Otayev, Rustam Musurmon, Hidoyat Ahmedov kabi tarjimonlarning tarjimalarini alohida e'tirof etishim lozim. Yozganlarimda qoraqalpoq tilida o'quvchiga nima demoqchi bo'lgan bo'lsam, ularning tarjimasi orqali o'zbek tilida ham aynan shu narsa saqlanib qolgan. Ba'zi tarjimonlarning tarjimalarida ayrim so'zlarni tushunmasdan boshqa ma'no beruvchi so'zlarga almashtirib tarjima qilish o'rinlari ham uchraydi. Aytganlarim katta kamchilik emas, ammo izlansa shu kabi bitta-yarimta xatolar chiqib keladi. Umumiy qilib aytganda, asarlarim o'zbek tiliga yaxshi tarjima qilingan.

SAVOL: Bu savolim oldingi savolning mantiqiy davomi desam ham bo'ladi. Qoraqalpoq tarjimonlarining qardosh va xorijiy tillardan qoraqalpoq tiliga qilayotgan tarjimalari va qoraqalpoq tilidan boshqa tillarga qilayotgan tarjimalari haqida, qolaversa, tarjimonlarning bugungi kundagi umumiy faoliyati haqida nimalar deya olasiz?

JAVOB: Tarjima masalasini yaxshi yo'lga qo'yilgan deb ayta olmayman. Negaki bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinadigan asarlar badiiy jihatdan puxta va pishiq bo'lgan, o'z xalqining o'quvchilariga manzur bo'lgan va badiiy kengashdan o'tgan asarlar boshqa tilga tarjima qilinishi kerak deb hisoblayman. Baxtga qarshi, bugungi kunda bunday sharoit yo'q. Internet zamonida yashayapmiz. Qoraqalpoqning yosh yozuvchilari, shoirlari, havaskorlar boshqa xalqlar adabiyotidan qoraqalpoq tiliga yoki bizning adabiyotimizdagi faqat o'zlari biladigan, o'zlari tanigan ijodkorlarninggina asarlarini boshqa tillarga tarjima qilmoqda. Matbuotda ham, to'plamlarda ham shunday tarjimalarga duch kelmoqdamiz. Buning sababi yosh ijodkorlar qoraqalpoq adabiyoti vakillarining salmoqli asarlarini o'qimagan, ko'rmagan va ularni bilmaydi. Jahon adabiyotidan qoraqalpoq adabiyotiga tarjima masalalarida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Bu qabildagi ishlar tarjimachilikning foydalaridan ko'ra ko'proq ziyoniga xizmat qilyapti, desam ham yanglishmagan bo'laman. Negaki, eng salmoqli asarlarimiz chet tillariga o'grilmay, o'rtamiyona va undan ham pastroq asarlar tarjima qilinsa va u tarjimini o'qigan xorijlik o'quvchi xayolida qoraqalpoq adabiyotining ahvoli shu ekan-da, degan xulosa paydo bo'ladi.

Tarjima masalalarida rejali tarzda faoliyat olib borish kerak, deb hisoblayman. Yozuvchilar uyushmasi qoshida tarjima bo'limi bor, lekin uning

ham ishini a'lo darajada deb baholay olmaymiz. Kengash tarjimonlarni yig'ib, chet tillariga tarjima qilish uchun bizdagi eng sara asarlar ro'yxatini ularga berishi kerak. Xuddi shunday jahon adabiyotining eng sara namunalarining ro'yxatini tuzib, ularni birin-ketin qoraqalpoq tiliga tarjima qilish kerak. Shundagina adabiyotning bor bo'y-basti ko'rinadi. Shundagina adabiy aloqalar rivojlanadi. Tarjimonga faqat til bilishi kifoya qilmaydi. U tarjima qilayotgan xalq adabiyotini ham yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari, tarjimon eng avvalo ijodkor bo'lishi kerak, o'zi she'r yozishi yoki nasriy asarlar yozishi, adabiyotni yaxshi bilishi, badiiy asarni his qilishi kerak. Shundagina tarjima maromida bo'ladi. Bugungi kunda tarjimonlarning so'z boyligi juda kambag'al. Faqatgina oddiy so'zlashuv tilini o'rganib olib, katta-katta asarlarni tarjima qilish yaramaydi. Uning ustiga, tarjimon deganlarimizning ko'pchiligi, qoraqalpoq tilini yoki o'zi tarjima qilayotgan o'zbek, rus, ingliz va boshqa tillarni yaxshi bilmaydi, yengil tarjima qiladi.

SAVOL: “Eran saxiy” qissangizda ko'plab qadimgi turkiy tildagi so'zlardan foydalangansiz. Bu qissaning genezisi qayerga borib taqaladi? Yoki voqealar badiiy to'qima mahsulimi?

JAVOB: “Eran saxiy” asarini talabalik yillarimda, 1986-1987-yillarda yozganman. Uni qayta-qayta tahrirlaganman. Umuman aytganda, barcha asarlarimni tahrirlashdan erinmayman, 10 marta, 15 marta, hatto 20 martalab tahrirlashdan qochmayman. Shundagina asar o'quvchiga manzur bo'lishi mumkin, deb hisoblayman.

Bu qissamda haqiqatni, to'g'ri so'zni, tanqidni aytadigan odam jamiyatda yashashi qiyinligini, har qanday odam jamiyat ichida yashab turib, undan ajrab qololmasligini aytmoqchi bo'lganman. Jamiyatda har xil odamlar: laganbardorlar, manmanlar, yolg'onchilar, jinoyatchilar, yovuzlar bor. Shular qatorida yaxshi odamlar ham bor. Aynan shu yaxshi odamlarning haqiqatni gapirishi o'zlari uchun qiyin bo'lishini ko'rsatib bermoqchi bo'ldim. Hamma zamonlarda bunday toifa odamlar bo'lgan. Shu sababli men olis tarixni qalamga oldim. Qissa yozilgan yillar hayotini ko'rsatay desam ham bo'lmasdi. Negaki, “sovet hokimiyati haqiqatni aytishni man qilgan” degandek gaplar bo'lib, asarim nashr qilinmasligi mumkin edi.

Qoraqalpoqlarning tarixi olis sak-massagetlar tarixiga borib taqaladi, bu haqda rus olimlari o'z tadqiqotlarida aytib o'tgan. Shularni inobatga olgan holda “Eran saxiy”ni shu davrlarda yashab o'tgan ota-bobolarimiz deb aytsak ham yanglishmaymiz. Saxiy qavmidan chiqqan Eranning o'z qavmini har xil yomon illatlardan saqlashga bo'lgan harakatlari, qavmni pokiza saqlab qolish g'oyalari tevaragida Eranning harakatlari ko'rinadi. Bir so'z bilan aytganda, Eran o'z

xalqini sevadigan, nohaqlikdan nafratlanadigan, to'g'rilik tarafdori bo'lgan va barcha insonlar shunday haqiqatsevar bo'lishini orzu qiladigan obraz desam, mubolag'a bo'lmaydi.

SAVOL: To'lepbergen Qayipbergenov o'z asarlari bilan qoraqalpoqlar tarixini yozish bo'yicha ancha salmoqli ishlar qildi. Bu ish undan keyin ham davom etyaptimi, hozirgi kunda ham tarixga murojaat qilayotgan yozuvchilar bormi?

JAVOB: To'g'ri aytasiz, qoraqalpoqlarning XVIII-XIX asrlardagi tarixi bo'yicha To'lepbergen Qayipbergenov o'zining "Mamanbiy afsonasi", "Baxtsizlar" va "Gumrohlar" deb nomlangan uch romandan iborat trilogiyasini yaratdi. Bu kitoblarda qoraqalpoqlarning tarixi badiiy aks ettirildi. Undan oldingi no'g'ayli davridagi qoraqalpoqlar tarixi bo'yicha Kamol Mambetovning "To'zigan el" deb nomlangan 4 kitobdan iborat asari bor. Bundan tashqari, xalqimizning Turkistonda yashagan davri hayoti haqida Jubatxon Muratboyevning ham asarini aytib o'tishimiz kerak.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston xalq yozuvchisi Kengesboy Karimov nasrda qalam tebratib, o'zining "Og'abiy" degan romanlar turkumini kitobxonlarga taqdim qildi. Asar XIX asrdan boshlab sovet hukumati davrigacha bo'lgan qoraqalpoqlar hayotidan hikoya qiladi. Uning "O'n uchinchi ovul" deb nomlangan asarida esa paxta ishi davridagi voqealar qalamga olingan. Yozuvchining "Ulug' dasht bo'rilari" deb nomlangan romanida VII-VIII asrlardagi turk xoqonligining shakllanishi va rivojlanish davrini tarixiy shaxslar Kultegin, Bilga xoqon obrazlari orqali badiiy talqin qilgan.

Kamina ham qoraqalpoqlarning tarixi bo'yicha asar yozishni o'ylab yurgan edim. 2022-yilda "Qadimgi qoraqalpoqlar" deb nomlangan romanimni yozib tugatishga muvassar bo'ldim. Bu romanda qoraqalpoqlarning Sak, Massaget davrlaridagi tarixi talqin qilingan. Albatta, u davrda qoraqalpoq degan xalq bo'lmagan, lekin baribir, sak va massagetlar shu hududlarda yashagan xalqlarning ota-bobolari ekanligi haqiqat. Xalqimiz To'marisni o'zining tarixiy siymosi deb hisoblaydi. Shu siymo atrofida xalqimiz tarixini ochib berishga harakat qildim. Davrning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, maishiy hayotini aks ettirishga urindim.

SAVOL: Siz filologiya fanlari nomzodi, adabiyotshunos olimsiz. Aytingchi, adabiyotshunoslarning qoraqalpoq adabiyoti tarixini, kechagi kunini va hozirgi adabiy jarayonni tadqiq qilayotganidan ko'nglingiz to'ladimi? Qaysi adabiyotshunoslarni yuqoridagi yo'nalishlarda faol tadqiqot ishlari bolib boryapti, deb hisoblaysiz?

JAVOB: Bugungi qoraqalpoq adabiyotshunosligini kishini qanoatlantiradigan darajada deb ayta olmayman. Bu gap faqat qoraqalpoq

adabiyotshunosligi uchun emas, balki boshqa xalqlar adabiyoti uchun ham tegishli deb o'ylayman. Bu olimlarimiz, tadqiqotchilarimizning bugungi kunga moslasholmayotganining belgisi ham bo'lishi mumkin. Bugun matbuotda e'lon qilinayotgan yoki nashriyotlarimizda yangi nashr bo'layotgan ko'plab asarlar uchun o'z vaqtida munosabat bildirish, yaxshi bo'lsa yaxshisini, yomon bo'lsa yomonini aytish davomli ravishda bo'layapti, deb ayta olmayman. Umumiy xarakterdagi maqolalarda yuzaki aytilgan bo'lishi mumkin. Ammo tadqiq qilish, tanqid qilish yoki e'tirof etish doimiy ravishda bo'lib turibdi, deb ayta olmayman.

Adabiyotshunoslik yo'nalishida Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpoq davlat universitetida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayni kunlardagi ilmiy ishlar mavzulari juda oddiy tarzda olinayotgandek, nazarimda. Tadqiqotchilar bir qaraganda katta mavzu olganday ko'rinadi. Masalan, mavzuda mustaqillik yillari nasri, she'riyati va shu kabi muammolar qo'yiladi. Biroq, mavzudan keyin qavs ochib bir yoki ikkita ijodkor ijodi misolida yoki bitta asar misolida deb juda maydalab yuborganiga guvoh bo'lamiz. Bu bir ilmiy daraja oladigan dissertatsiya bo'lganligi uchun katta bir janr yoki katta bir davrni tadqiq qilib, shu bo'yicha dissertatsiya himoya qilish kerak. Afsuski shunday tadqiqotchi tor doirada qolib ketadi. Mavzu berish jarayonida bularning ilmiy rahbarlari ham e'tiborli bo'lishi kerak. Mavzular dolzarb bo'lishi, ishlanmagan bo'lishi lozim. Bularning barchasi adabiyotshunosligimizda talay muammolar borligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda adabiyotshunosligimizda faol ijod qilayotgan olimlarimiz bor, ular Qurbanbay Jarimbetov, Peredebay Nurjanov, Quvanishbay O'razimbetov, Baxtiyar Genjamuratov, Ziyada Bekbergenova, Kamal Palimbetov, Qo'naqbay Turdibayev, Aytmurat Aliniyazov, Qonusbay Yusupov, A.Do'simbetova, Jupar Qaniyazovalar yetarli imkoniyatga, bilimga ega. Yuqoridagi nomlarini aytib o'tganimiz adabiyotshunoslar bilan yosh adabiyotshunoslar yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yishi, ular bilan bamaslahat ilmiy tadqiqotlar olib borishi maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'ylayman.

Anvar Allambergenov: Allanazar og'a, vaqt ajratib biz bilan suhbat qurganingiz, savollarimizga javob berganingiz uchun katta rahmat. Ilmiy-badiiy ijodingizda sizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Sog' bo'ling!

Allanazar Abdiyev: Salomat bo'ling! Igna bilan quduq qazgandek mashaqqatli ishlaringizga hamisha rivoj tilayman!

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

4 (25)
2025-yil, aprel.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,5 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22